

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Mansur BEKMURODOV, Nargiza YUSUPOVA

MADANIYAT SOTSILOGIYASI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan bakalavriatning kasbiy pedagogik ta'lim yo'nalishi
talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

“YANGI NASHR” nashriyoti
Toshkent – 2010

UDK 316(070)

60.5

M14

Mas'ul muharrir ped. f. d., prof. M. Quronov

Taqrizchilar: i. f. d. N. Aliqoriyev;

s. f. n. A. Yunusov;

A. Bekbulatova

Bekmurodov, Mansur.

Madaniyat sotsiologiyasi [Text]: o'quv qo'llanma/ M. Bekmurodov, N. Yusupova; mas'ul muhar.: M. Quronov; taqrizchilar: N. Aliqoriyev [va boshq]; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: Yangi nashr, 2010. – 144 bet.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng jamiyatimizda yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlarni ilmiy o'rganish, islohotlarni tizimiy tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababdan jamiyat asosining muhim jabhasi bo'lmish madaniyatning ijtimoiy rivojini chuqur o'rganishga jazm qildik. Ushbu o'quv qo'llanma madaniyatning ijtimoiy tizimda amal qilishi va fan sifatida shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini, uning asosiy sohalari va tushunchalarini yoritib bergan.

Mazkur o'quv qo'llanma ijtimoiy fanlar yo'nalishida ta'lim olayotgan barcha oliy o'quv yurtlari talaba va aspirantlari uchun hamda madaniyatshunoslik, sotsiologiya, antropologiya, etnografiya, davlatchilik tarixi va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan qiziquvchilar uchun tavsiya etiladi.

BBK 60.5

ISBN-978-9943-330-58-0

© "YANGI NASHR" nashriyoti, 2010-y.

KIRISH

Ko'p yillar mobaynida madaniyat sotsiologiyasi sotsiologiya tarkibidagi yo'nalish sifatida amal qilib kelgan. Shu davrlarda madaniyat jarayoniga nisbatan bo'lgan yuzaki yondashuv madaniyatning ilm sifatida rivojlanishiga ham yuzaki qaralishiga sabab bo'ldi.

Sobiq Ittifoq siyosatida yetakchi o'rin tutgan marksistik doktrinaga binoan madaniyat va madaniyat masalalariga iqtisod va iqtisodiy munosabatlar singari asosiy soha sifatida emas, balki ikkinchi darajali masala sifatida yondoshilgan. Ma'naviy, ma'rifiy, madaniy sohalarga yuzaki yondashuv natijasida ushbu sohalarning jamiyat a'zolari orasida mavqeyi tushib ketishiga, ularga juda kam e'tibor berilishiga, ular rivoji uchun mablag'larning yetarli darajada ajratilmasligiga va, nihoyat, ularning qadrsizlanishiga olib keldi.

Bugungi kundagi madaniyat sotsiologiyasi o'zgacha bo'lmog'i lozim. Agarda yaqin tarixdagi madaniyat sotsiologiyasi o'z predmetini juda tor doira: badiiy adabiyotlarni, san'atni, madaniyat uylarining faoliyatini o'rganish va ularni tahlil qilish, turli kishilar guruhi va qatlamlarining didini o'rganish va hokazolar bilan cheklagan bo'lsa, endilikdagi madaniyat sotsiologiyasi ijtimoiy-ma'naviy hayotimizning uzviy jihatiga aylanib bormoqda. Mustaqillikka erishishimizdan bir necha yillar avval ijtimoiy fanlar, xususan, sotsiologiya sohasida ayrim rivojlangan mamlakatlardan orqada qolgan bo'lsak-da, hozirda yuz berayotgan ulkan ijobiy o'zgarishlar jamiyatimizdagi ma'naviyat sohasini, madaniyatning o'zini tubdan o'zgartirib yubordi.

Dunyoda jadal yuz berayotgan global o'zgarishlar madaniyat sotsiologiyasi fani zimmasiga jiddiy ma'naviy mas'uliyat yuklamogda. Madaniyat sotsiologiyasi yaqinda shakllangan ijtimoiy fan hisoblansa-da, lekin bu atamani umuman yangi atama, deb ham ayta olmaymiz. G'arb mamlakatlari olimlari o'z asarlarida madaniyat sotsiologiyasi atamasini avvaldan ishlatib kelishadi. Xususan, o'tgan asr boshlarida Alfred Veber tomonidan madaniyat sotsiologiyasi haqida bir necha bor to'xtalib o'tilgani ma'lumdir.

Madaniyat sotsiologiyasi fani jamoatchilik e'tiborini o'zining keng qamrovliligi, insonning ijtimoiy holati hamda uning hozirgi va o'tmishidagi jamoaviy mavqeyi haqida ma'lumot bera olishi bilan o'ziga qarata olgan. Madaniyat sotsiologiyasi inson borlig'ining ijtimoiy asosi haqida tizimiy ma'lumotlar beradi.

Bugungi fan-texnika jadal rivojlanayotgan vaqtda madaniyat sotsiologiyasining tabiati, ko'lami, fan sifatidagi ahamiyati va ijtimoiy soha sifatidagi o'rni kabi muhim masalalar tadqiq etilishi kerak. Madaniyat sotsiologiyasining keng qamrovli ekanligi sabablaridan biri u nafaqt ilmiy soha, balki ijtimoiy soha ham ekanidir. Qiyosiy va madaniyatlararo o'rganilish natijasida madaniyat sotsiologiyasi ijtimoiy sohaga ta'sir qiladi va, o'z navbatida, o'zi ham bu ta'sir ostida bo'ladi.

XXI asr va uchinchi mingyillik boshida insoniyat oldida turgan vazifalar o'zining hajmi va ko'lami jihatidan shu darajada ulug'vor va kattaki, ularni mushtarak maqsadlar uyg'unligisiz amalga oshirish mumkin emas. Jahon sivilizatsiyasining muhim beshiklaridan biri hisoblangan O'zbekiston oldida turgan vazifalar esa uning jahon hamjamiyatiga shiddat bilan kirib kelishi asosida yanada konkretlashmoqda.

Madaniyat sotsiologiyasi fani boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarga qaraganda birmuncha yosh hisoblanadi. Ushbu faning boshqa mamlakatlarda o'qitilishi ancha ilgari boshlangan, shuningdek, madaniyat sotsiologiyasi fanini o'rganish mamlakat,

millat taqdiri hamda kelajagi bilan bevosita bog‘liq. Madaniyat sotsiologiyasi fanini o‘qitish, o‘rgatish, ayni paytda, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni qadriyat sifatida anglash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, mazkur fan aholining turli tabaqalari, ayniqsa, talaba-yoshlarda millat ma’naviyatini ilmiy o‘rganish orqali yuksak madaniyatni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

I BO‘LIM. MADANIYAT NAZARIYASI TARIXI

I. I. Madaniyatning ijtimoiy fanlar va sotsiologiya negizida tutgan o‘rni

Bugungi kunda madaniyatni, madaniyat rivojlanishi bosqichlarini, uning jamiyatdagi tutgan o‘rni o‘rganuvchi bir qator fanlar mavjud. Shulardan eng asosiylari: ijtimoiy falsafa, sotsiologiya, etnologiya, etnografiya, madaniy va ijtimoiy antropologiya, madaniyatshunoslik, madaniyat sotsiologiyasi va madaniyat falsafasi. Ushbu ijtimoiy fanlarning barchasi empirik ma’lumotlarni to‘plash va analiz qilish orqali turli jamiyat va davrlarga tegishli bo‘lgan madaniyatlarni bir-biriga nisbiy ravishda o‘rganadi. Ular o‘rtasidagi farqni va chegarani aniqlash mushkul masalalardan biridir. Shu kunga qadar bu fanlarni o‘rganib kelayotgan olimlar, asosan, ushbu fanlarning yaratilishida sababchi bo‘lgan turli maktab va yo‘nalishlarga asoslangan holda ularni bir-biridan ajratib kelmoqdalar. Madaniyat hodisasini o‘rganuvchi ijtimoiy fanlarning barchasi unga o‘z tadqiqot obyekti va perdmoti nuqtayi nazarlaridan kelib chiqib yondoshsalarda, lekin ular o‘rtasidagi farqlar bugungi kungacha ham nisbatan mavhumligicha qolmoqda.

Madaniyatshunoslik madaniyatning vujudga kelish sababi va shart-sharoitlarini, taraqqiyot qonuniyati va rivojlanish tendensiyasini yagona bir sistema sifatida o‘rganish, uning vazifalari va tuzilishini aniqlash kabi mujassamlashgan ilmiy izlanishlar olib borish bilan shug‘ullanadi. Turli sohalarda (falsafa, ilohiyot, etika, estetika va hokazo) ilmiy asarlar yaratgan olim-

larning madaniyatga nisbatan, uning qonuniyatlari va rivojlanish tendensiyasiga nisbatan bergan baholari majmuyini o'rganish ham madaniyatshunoslik vazifalaridan biridir.

Kundalik hayotda "madaniyat" atamasini qo'llar ekanmiz, ongning oliy mahsullari bo'lgan san'at, adabiyot, musiqa, rassomlik kabilarni nazarda tutamiz. Sotsiologiyada madaniyat tushunchasi inson tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan barcha faoliyatlar mahsuli tarzida tushuniladi.

Madaniyat sotsiologiyasi – *inson faoliyatining rang-barang mahsullarini tarkibiy hamda mazmuniy jihatidan tadqiq etib, uning taraqqiyot tendensiyalarini ijtimoiy tizim hamda ijtimoiy institutlarga bog'liq ravishda o'rganuvchi fandir.* Madaniyat sotsiologiyasining predmeti, maqsad va vazifalari, uslub va hajmiga beriladigan baho ham o'zgarib boryapti. Endilikda, madaniyat sotsiologiyasi jamiyatdagi madaniyat ko'rinishlarini, uning jamiyatda qabul qilingan me'yorlarga mos ravishda rivojlanish darajasini va jamiyat strukturasi bog'liq holda qanchalik o'sayotganini o'rganishning o'zi yetarli bo'lmay qoldi. Endi, madaniyat sotsiologiyasi yuqorida sanab o'tilgan vazifalarni bajarish bilan birgalikda, o'z oldiga sotsiomadaniy o'zgarishlarning asl sabablarini va ularning amalga oshish yo'llarini, qonun-qoidalarini topish hamda analiz qilishni maqsad qilib qo'ymog'i lozim.

Barcha ijtimoiy fanlar qatori madaniyat sotsiologiyasi fanining ham asosiy muammosi inson hisoblanadi. Zero, madaniyat – bu inson yaratgan narsalardir. Madaniyat sotsiologiyasi insonning olam bilan faol munosabatini va bu munosabatlar uning hayot tarzida namoyon bo'lishini o'rganadi.

I. 2. Madaniyat tushunchasiga tarixiy va ilmiy yondashuv

Madaniyat arabcha madina (shahar, kent) soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, u tabiat va oʻzaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining oʻziga xos usulidir. “Madaniyat alohida individning hayot faoliyati, ijtimoiy guruhning yoki jamiyatning hayot faoliyati usulini aks ettiradi. Dastlab, madaniyat tushunchasi insonning tabiatga maqsadga muvofiq taʼsiri (yerni ishlash va hokazo) hamda insonning oʻzini tarbiyalash va oʻqitish maʼnolarini ifodalagan. Keyinchalik madaniyat tushunchasi orqali sivilizatsiya bilan bogʻliq mazmun tushunila boshlandi. Madaniyat jamiyatdan tashqarida mavjud boʻlmaydi. Ijtimoiy munosabatlardagi har qanday oʻzgarish madaniyatga taʼsir etadi va madaniyat bu munosabatlarning qanday natijalarga olib kelishidan xabar beradi. Shu boisdan madaniyat nafaqat oʻtmishga yoki bugunga, shu bilan birga, insonning kelajakka boʻlgan munosabatidir. Madaniyat – inson faoliyatining ham mahsuli, ham sifat koʻrsatkichi. Insonning oʻzi ham pirovard natijada madaniyat mahsulidir. Jamiyatdagi madaniy muhit qanday boʻlsa, inson ham shunday shakllanadi”¹.

Madaniyat – bu insonlar tomonidan yaratilgan moddiy va maʼnaviy boyliklar, qadriyatlar yigʻindisi, shuningdek, madaniyat – bu insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va maʼnaviy boyliklar majmuyigina boʻlib qolmay, ayni paytda, u jamiyat taraqqiyotining darajasini ham ifodalaydi, yaʼni jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarning yigʻindisi madaniyatda gavdalanadi.

Madaniyat tushunchasi keng va tor maʼnolarda ishlatiladi:

“Madaniyat” tushunchasi keng maʼnoda insoniyatning bu-

¹ Falsafa qomusiy lugʻat. (Tuzuvchi va masʼul muharrir Q. Nazarov). – T.: Sharq, 2004. 230-bet.

tun tarixiy rivojlanish tendensiyasi jarayonida yaratgan barcha moddiy va ma'naviy boylıklarining yig'indisini aks ettiradi. Tor ma'noda esa jamiyatning ma'naviy hayotini ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Lotin tilidan olingan "kultura" atamasi esa "yerga ishlov berish, parvarish qilish, o'stirish, yer mehnati" ma'nolarini anglatib, insonlar harakatining o'zgarishi, o'sishi va inson mehnati bilan bog'liq jarayonlarni anglatadi. Hozirgi kunda bu atamalarning har ikkisi ham ma'rifatparvarli bo'lish, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, bilimli bo'lish, jamiyat rivojlanishi yo'lidagi kashfiyotlar mazmunida ishlatiladi. Madaniyat ko'p qirrali hodisa bo'lib, faqatgina qadriyatlar tizimi orqali uning bor mazmun-mohiyatini tushunish mumkin. Shuni unutmaslik kerakki, madaniyat mohiyati cheksiz-chegarasiz darajada ulkan. U insoniyat madaniyati tarixi haqida, turli tarixiy davrlar madaniyati haqida (masalan, antik davr, o'rta asrlar, uyg'onish davri), turli millat va elatlar madaniyati haqida (fransuz, o'zbek, qirg'iz, sharqona, g'arbona va hokazo), diniy madaniyatlar haqida (bud-daviylik, islom, xristianlik), turli ijtimoiy va professional guruhlar madaniyati haqida (qishloq, dehqon jamoa xo'jaligi, fermer jamoa xo'jaligi, shaharliklar, ijtimoiy guruhlar va hokazo) va alohida olingan shaxslar madaniyati haqida (Konfutsiy, Farobiy, Navoiy, Gandi va boshqalar) ko'pgina ma'lumotlar berishi mumkin. Bularning barchasi madaniyatning qanchalik darajada keng va ko'p qirrali ekanligidan dalolat beradi.

Shuningdek, madaniyat atamasi jamiyatdagi ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy hayotda qo'lga kiritilgan yutuqlar majmuyi, biror ijtimoiy guruh yoki xalqning yutuqlari, o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik va ma'rifatlilik majmuyini bildiradi.

Madaniyat atamasiga berilgan rang-barang izohlar madaniyatning aynan ko'p qirrali ekanligini bildiradi. Madaniyatshunos-

likka bag‘ishlangan adabiyotlarda ko‘rsatilishicha, bugungi kunda madaniyat hodisasiga bir necha yuzdan oshiq ta‘rif berilgan¹.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki “madaniyat” atamasi bugungi kunda ko‘proq quyidagi mazmunda ishlatiladi:

– ma‘naviy, estetik, intellektual rivojning umumiy ko‘rinishiga qisman mavhum tarzda berilgan baho;

– huquq, tartib, intizom, ma‘naviy komillikka va demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyat holatini tavsiflash (bu vaziyatda madaniyat atamasi ko‘proq sivilizatsiya atamasi bilan sinonim ravishda qo‘llaniladi);

– biron-bir jamiyatning, jamoaning, guruh a‘zolarining yoki tarixiy jarayonning mavjudligini (yoki mavjud bo‘lganligining), ularning o‘ziga xos takrorlanmas xususiyati borligini ko‘rsatuvchi holat;

– kishilarning intellektual va badiiy faoliyati (musiqa, adabiyot, tasviriy san‘at, teatr, kino va hokazo) mahsulini bildiruvchi jarayon.

Antik davrdan boshlab, jamoatchilik madaniyatini nafaqat bilim va ko‘nikma, balki insoniyat amaliy harakatining natijasi sifatida qabul qilina boshlangan. Masalan, er.av. 45-yilda yashagan faylasuf Sitseron ong, tafakkur madaniyati haqida to‘xtaladi. Rim notig‘ining fikricha, onga, tafakkurga ham xuddi yerga e‘tibor berilgani kabi e‘tibor, tarbiya va ishlov berilishi lozim. Ana shunday, tafakkuriga ishlov bera olgan, ma‘naviy olamini va qobiliyatlarini rivojlantira olgan insongina madaniyatning asosiy mohiyati bo‘lib hizmat qiladi². (Sitseron Mark Tulliy – qadimgi Rim respublikasining atoqli davlat arbobi, notiq, faylasuf, tarixchi va huquqshunos. Sitseron rim jamoasini falsafiy ma‘rifatparvarlik ruhida tarbiyalashga umrini bag‘ishlagan. Maz-

¹ Qarang: E. Axmedova, P. Gabидулин. Культурология. Мировая культура. – Т.: Акад. Худ. Узб. 2001.

² Qarang: Сицерон М. – Т. Избранные сочинения. – М., 1975 г. стр. 252.

kur yoʻnalishda juda koʻp ilmiy ommabop va ilmiy-badiiy risolalar va maqolalar yozgan. Sitseron falsafiy qarashlarida asosiy urgʻu axloq-odob va siyosiy nazariya muammolariga berilgan boʻlib, insonning axloqiy va fuqarolik burch va vazifalari muhtosibligi taʼlimotiga asos soldi. Uning siyosiy tafakkuri tabiiy huquq gʻoyalari bilan bogʻliq holda ifodalangan boʻlib, Aristotel taʼlimotiga suyangan holda eng yaxshi va oqil davlatni boshqarish shakli sifatida demokratiya va aristokratiya qorishmasidan tashkil topgan davlat hokimiyati mexanizmini afzal koʻradi¹.

Demokrit fikricha ham, inson tabiatga taqlid qilish va uni oʻziga boʻysundirish jarayonida madaniy qadriyatlarni yaratib borgan. Grek falsafasining eng asosiy kulminatsion nuqtasi bu insonga qolip sifatida qarashdan iboratdir. Ular hamma narsani inson qiyofasida koʻrishadi, oʻz dunyoqarashlarida hamma narsani inson shakl-shamoyili va xarakteriga oʻxshatishadi. Ular falsafasida hattoki xudolar ham oʻz xatti-harakatlari va tashqi koʻrinishlari bilan inson sifatida, inson qiyofasida tasvirlanganlar.

Oʻrta asrlarga kelib madaniyat hodisasini idrok etishda maʼlum bir oʻzgarishlar yuz berdi. Endi xudo qadr-qiyamat negizi sifatida qabul qilinib, shu asosda madaniyat prinsiplari ishlab chiqildi. Xristianlik falsafasining asoschisi Avreliy Avgustin fikriga koʻra, Xudo yoʻlida yashash – bu inson uchun yagona boʻlgan qadrli yoʻl. Eng goʻzal, yaxshi, toza va yorugʻ xislatlar Xudoda mavjuddir, hayotda emas. Xudo sanʼatkor kabi borliqni yaratdi. Inson ham sanʼatkor, u madaniyatni yaratdi².

Oʻrta asrlar madaniyatining oxirgi xudojoʻy faylasufi Foma Akvinskiy realizmning moʻtadil namoyondasi sifatida maydonga chiqdi va Xudoning birlamchiligi, ruhning oʻlmasligi kabi gʻoyalarni targʻib qiluvchi falsafaga asos soldi.

¹ Falsafa qomusiy lugʻat. (Tuzuvchi va masʼul muharrir Q. Nazarov). – T.: Sharq, 2004. 447-bet.

² Qarang: Falsafa qomusiy lugʻat. (Tuzuvchi va masʼul muharrir Q. Nazarov). – T.: Sharq, Avreliy Avgustin. 2004.

Uygʻonish davriga kelib vaziyat birmuncha oʻzgardi. Odam (individ) mustaqillikni qoʻlga kirita boshladi. Natijada uning yangicha dunyoqarashi va pozitsiyasi shakllandi.

Endilikda inson nafaqat Xudo tomonidan yaratilgan mavjudot, balki u oʻzini oʻzi “yaratgan” ijodkor sifatida namoyon boʻla boshladi. Insoniyat rivojlanishi jarayonida atrof-muhitga, tabiatga moslashib, ijtimoiylasha boshlaydi. Natijada u oʻzini oʻzgartirib borishi jarayonida tabiatga ham taʼsir qiladi va uni ham oʻzgartiradi. Shunday qilib, uygʻonish davriga kelib madaniyat atamasi chuqur mazmundagi hodisa sifatida qabul qilina boshladi. Insonning chin maʼnodagi INSON sifatida mavjud boʻlishini aynan MADANIYAT hodisasida koʻra boshlashdi. Individ madaniyatni oʻzlashtirish bilan birga unga aks taʼsir etadi. Shaxsning shakllanishi jarayonida madaniyatning dunyosi ham boyib boradi. Shuningdek, inson madaniyat normalariga amal qilgan holda nafaqat tabiatni va jamiyatni, balki shaxsiy “tabiati”ni ham oʻzgartiradi, deb hisoblana boshlandi.

XVII – XVIII asrlarga kelib, inson tafakkuri jamoatchilikning diqqat markazida boʻlib qoldi. Madaniyat, maʼrifat, bilim qadr-lana boshladi. Maʼrifatparvarlik davridagi madaniyat muammolari Gelvetsiy, Volter, Golbax, Russo, Kant, Gegel kabi Gʻarb mutafakkirlarining asarlarida oʻz aksini topdi.

Fransuz maʼrifatparvarligi asoschisi Jan Jak Russo oʻz asarlarida zamonaviy sivilizatsiyaga katta eʼtibor beradi. Russo qarashicha, madaniyat hodisasiga sivilizatsiya sinonim boʻlib keladi. Yaʼni madaniyatning sinonimi – sivilizatsiya. Chunki madaniyat hodisasidan biri boʻlmish ilm-fan ham, sanʼat ham aynan bizning nuqsonlarimiz, xato-kamchiliklarimiz natijasi oʻlaroq vujudga kelgan. Insonlar bilimga, ilmga oʻz muammolari yechimining najotkori sifatida qaray boshlashadi. Insoniyat oldida ilmning qadri oshdi. Bilim esa, oʻz navbatida, madaniyat bilan parallel ravishda teng qoʻyildi. Mavzu boshida aytib oʻtganimizdek, madaniyatli – bu ilimli, maʼrifatli boʻlish, taʼlim-

tarbiya ko‘rganlik, degani. J. J. Russo aynan shuni nazarda tutib ilm-fanni, san’atni insoniyat yo‘l qo‘ygan kamchiliklar natijasi deb hisoblaydi)¹.

“Ilm-fan va madaniyat rivoji “ma’rifatparvarlik” asrida yorqin namoyon bo‘ldi. Ma’rifatparvarlik yoki ma’rifatchilik harakati jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy sohalarida o‘rnatilgan ijtimoiy-siyosiy zulmkorlik siyosatiga qarama-qarshi o‘laroq shakllangan ijtimoiy falsafiy va ommaviy-demokratik harakatlar sifatida amal qiladi. Uning maqsadi muayyan jamiyat hayotini falsafiy-g‘oyaviy va ma’naviy-ma’rifiy zo‘ravonlikdan, jaholatparastlikdan ozod etib, erkin tafakkur, ilg‘or ma’naviy-ma’rifiy tizim orqali taraqqiyotning barcha zarur moddiy va ma’naviy jabhalariga tadbiiq etishdir”².

“Ma’rifatparvarlik” atamasi birinchi bor ingliz shoiri J. Miltonning “Yo‘qotilgan jannat” dostonida qo‘llangan bo‘lsa ham, uni ilk bor Fransiya zaminida amaliyotda qo‘llashdi. G‘arbning tarixiy va falsafiy fanida “ma’rifat” deganda inson aqlidrokining kuchiga va bilimlar tantanasiga cheksiz ishonch davri anglanadigan bo‘ldi. Sharq madaniyati tarixida ma’rifatparvarlik muhim o‘rin tutib kelgan. Ajdodlarimiz Ahmad Yassaviy, Buxoriy, Termiziy, Naqshband o‘zlarining beqiyos bilimlari bilan umuminsoniy madaniyatning ma’rifatparvarlik oqimi shakllanishiga ulkan hissalarini qo‘shganlar. Termiziy “Kitob bayan al-ilm” risolasida bilimni nur, yorug‘likka qiyoslagan. Az-Zamaxshariy: “Harakat zaif bo‘lgan joyda kuchli bilim foydasizdir. Harakatsiz bilim – ipsiz kamalak o‘qidir”, – degan edi³.

Madaniyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlaridan biri – bu uning to‘xtovsiz ravishda boyib borishi va rivojlanishidir. Moddiy ishlab chiqarishning rivoji madaniyat taraqqiyotiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalarning ishlab

¹ Qarang: G. Skerbek, N. Gile. Falsafa tarixi. – T.: Sharq, 2002.

² Falsafa qomusiy lug‘at. (Tuzuvchi va mas‘ul muharrir Q. Nazarov). – T.: Sharq, 2004. 255-bet.

³ Az-Zamaxshariy. Maqolalar. – Qohira.

chiqarish usullarining almashinuviga qarab madaniyat ham sifat darajasi jihatidan o'zgarib boradi. Jamiyatning taraqqiy etishi madaniyatning o'zgarishini talab qiladi, madaniyatning yangilanishi esa, o'z navbatida, jamiyatning taraqqiy qilishiga sabab bo'ladi.

XXI asrga kelib, madaniyat ijtimoiy hayotning barcha sohalariga kirib bormoqda. Hozirgi kunda ishlab chiqarish madaniyati haqida, maishiy va xizmat ko'rsatish (servis) madaniyati haqida, boshqaruv madaniyati haqida, xulq madaniyati haqida bemalol gapirish mumkin. Madaniyatning sanab o'tilgan har bir sohalarida inson kuch-qudrati rivojining natijasini ko'rish mumkin.

I. 3. Madaniyatning asosiy shakl va elementlari

Ilmiy adabiyotlarda madaniyatni moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'lish rasm bo'lgan. Madaniyatni moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'lish inson faoliyatining ikki asosiy sohasi – moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liqdir. Moddiy madaniyat moddiy faoliyatning barcha sohalarini va natijalarini o'z ichiga oladi. Moddiy madaniyatning muhim elementlari ishlab chiqarish, transport, aloqa vositalaridir. Moddiy madaniyatga uy-joy, kiyim-bosh, uy-ro'zg'or buyumlari, iste'mol vositalari deb ataladigan hodisalar ham kiradi. Bularsiz ma'lum bir xalq madaniyati, uning tarixiy taraqqiyotining turli bosqichlaridagi o'ziga xosliklari haqida to'g'ri fikr yuritish mumkin emas. Albatta, moddiy madaniyatni faqat ishlab chiqarish va iste'mol vositalariga taqab qo'yish to'g'ri bo'lmaydi.

Umuman olganda, ijtimoiy hayotda moddiy ishlab chiqarish sohasi bilan birgalikda, ijtimoiy soha, siyosiy soha, ma'naviy soha faoliyatlari ham mavjud. Kishining bu sohadagi faoliyat-

lari madaniyat klassifikatsiyasining asosi sifatida qabul qilinadi. Bunday klassifikatsiya tizimining birinchi bosqichiga bir qarashda mustaqil ko‘ringan, lekin bir-birlari bilan chambarchas bog‘langan quyidagi madaniyat sohalari kiradi:

- moddiy madaniyat;
- ijtimoiy faoliyat;
- siyosat;
- san‘at;
- ma‘naviy madaniyat.

Moddiy madaniyatga moddiy madaniyat elementlari: – texnika madaniyati, ishlab chiqarish madaniyati, rejalashtirish madaniyati, taqsimlash va ayirboshlash madaniyati, kitob, uy, mashina san‘at asarlari, ya‘ni insonlar tomonidan yaratilgan va jismoniy jihatdan mavjud bo‘lgan barcha buyumlar kiradi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, sotsiologlarni moddiy madaniyat elementlari kishilar ta‘siri ostida bo‘lgan vaziyatdagina qiziqtiradi.

Ijtimoiy madaniyatga oila va nikoh masalalari madaniyati, ijtimoiy-demografik guruhlar madaniyati, maishiy madaniyat, maorif va ta‘lim madaniyati, shaxslararo muloqot madaniyati, ekologik madaniyat kiradi.

Siyosiy madaniyat sohasiga huquqiy madaniyat, fuqarolik madaniyati, siyosiy faoliyat yuritish madaniyati, ya‘ni sinflararo muloqot, ijtimoiy guruhlar, davlat, xalq kiradi.

Ma‘naviy madaniyat sohasiga dunyoqarash, mafkura, ilm-fan, din, badiiy madaniyat, san‘at, milliy an‘analar, axloqiy madaniyat, estetik madaniyat, an‘ana, shaxslararo aloqalar, munosabatlar, urf-odatlar va hokazolar kiradi.

Madaniyatni moddiyga va ma‘naviyga bo‘lishning o‘zi shartli holat hisoblanadi. Bir tomondan, moddiy madaniyat elementlari bo‘lgan kitoblar, ibodatxonalar, tasviriy san‘at va hokazolar

ma'naviy g'oya natijasi sifatida vujudga kelgan bo'lsa-da, ikkinchi tomondan, ular moddiy mavjud bo'lishga ehtiyoj sezadilar.

Ma'naviy madaniyat, avvalo, g'oya sifatida ijodkor tasavvurida vujudga keladi, so'ng ushbu g'oya moddiy madaniyat sifatida yaratiladi va dunyo yuzini ko'radi. "Ma'naviy madaniyat ma'naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy ong shakllarini yaratish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatning barcha sohalarini qamrab oladi. Ma'naviy madaniyat namoyon bo'lishining turli ko'rinishlari mavjud: har xil tasavvurlar va g'oyalar, nazariyalar va ta'limotlar, ilmiy bilimlar va san'at asarlari, axloqiy va huquqiy normalar, falsafiy, siyosiy qarashlar, mifologiya, din va hokazo. Bularning barchasi o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichida turgan va o'zaro muayyan munosabatlarga kirishgan kishilar tomonidan yaratiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, ma'naviy madaniyat ma'naviy faoliyat natijasi sifatida kelib chiqayotgan hodisalarnigina emas, balki ularni yaratish jarayonida kishilar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni ifodalash uchun ham xizmat qiladi"¹.

Ma'naviy madaniyatning moddiy madaniyatga nisbatan o'ziga xosligi nimada ko'rinadi? Birinchidan, ma'naviy madaniyat nafaqat narsa shaklida, balki faoliyat shaklida ham namoyon bo'ladi (shifokor, o'qituvchi, qo'shiqchi, raqqos faoliyati; ma'ruza, aktyor o'yini faoliyati va hokazo). Ikkinchidan, ma'naviy qadriyatlar eng uzoq yashaydigan qadriyatlar hisoblanadi, ya'ni ma'naviy madaniyatning betakror asarlari mazmun-mohiyati jihatidan hech qachon qarimaydi. Bunga Xorazmiy, Farg'oniy, Farobiy yaratgan asarlar misol bo'la oladi. Uchinchidan, ma'naviy madaniyat o'z yaratuvchisi va ijodkori haqida moddiy madaniyatga nisbatan ancha ko'proq ma'lumot bera oladi. To'rtinchidan, ma'naviy madaniyatning birgina kategoriyasining o'zida bir qator boshqa ma'naviy madani-

¹ Falsafa: (O'quv qo'llanma) / E. Yusupovning um. tahr. ost. – T.: Sharq, 1999.

yat kategoriyalari yotgan bo'ladi. Masalan, biron-bir badiiy madaniyat asari faqat estetik jihatni namoyon qilibgina qolmay, balki axloqiy, xulqiy, dunyoqarashni o'stiruvchanlik kabi bir qator ma'naviy qadriyatlarini ham ko'rsatadi.

Ma'naviy qadriyatlar jamiyatda insonlar tomonidan iste'mol qilinmasa edi, ular yaratilishi haqida gap ham bo'lmasdi. Ma'naviy qadriyatlar mavjudligi jamiyat a'zolari, insoniyat tomonidan unga nisbatan talab borligini bildiradi. Lekin bunday "talab" va "iste'mol" moddiy narsalarga bo'lgan talab va iste'moldan farqlanadi. Agarda moddiy narsalarda mahsulot (oziq-ovqat, kiyim-kechak va hokazo) tezda tugatilsa, ma'naviy qadriyatlar esa insonlar tomonidan bir necha marotaba foydalanilishi mumkin. Ahamiyatli jihati shundaki, vaqt o'tgan sayin ma'naviy madaniyat sayqallanib, yanada qadri oshib boradi.

Ma'naviy madaniyatning jamiyatda to'la-to'kis mavjud bo'lishini ijtimoiy institutlar ta'minlaydi. Bu ijtimoiy institutlarning asosiy vazifasiga aynan ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish, taqsimlash va ayirboshlash kiradi. Ular tarkibiga turli tashkilot va muassasalar kiradi, ya'ni: birinchidan, ma'naviy madaniyatni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish (ijodiy uyushma, ilmiy-tadqiqot institutlari, xalq ijodiy jamoalari, kinostudiyalar, nashriyot va hokazo); ikkinchidan, ma'naviy qadriyatlarini taqsimlab chiqarish (kinoteatrlar, sirk, konsert uyushmalari, ma'ruzaxonalar, maktablar, kutubxonalar, muzeylar va hokazo); uchinchidan, madaniyatni ishlab chiqarish va taqsimlash jarayonini sintetik ravishda bir-biri bilan birlashtirish orqali (klublar, teatrlar, filarmoniyalar, radio, televideniye, oliy ta'lim muassasalari kafedralari va hokazo).

"Uzoq vaqtlar fanda madaniyat deganda faqat ma'naviy madaniyat nazarda tutildi. Negaki borliqni haqiqat, yaxshilik, go'zallik belgilaydi deb hisoblashgan. Shuning uchun birinchi o'rinda ilmiy tadqiqotlarning asosi axloq, nafosat bo'lib keldi. Natijada jamiyatning moddiy hayotini, uning iqtisodiyotini

o'rganishga e'tibor berilmadi. Moddiy madaniyat tadqiqot uchun qiziqarsiz hisoblandi.

Industrial jamiyatning vujudga kelishi, uning texnikaviy taraqqiyoti va texnologiyalarining tezda almashishi madaniyatshunoslarni insoniyatning barcha moddiy madaniyatini o'rganishga majbur qildi¹. Shuningdek, hozirgi kunda madaniyat tizimlaridan bo'lmish moddiy va ma'naviy madaniyat bir-biriga shunday ta'sir qilyaptiki, bir tomondan, ma'naviy madaniyat moddiy madaniyat yaralishiga sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan, moddiy madaniyatning boyishi ma'naviy madaniyatning yangi qirralarining ochilishiga sabab bo'lmoqda. Eng qizig'i, uchinchi tomondan esa, moddiy madaniyatda ma'naviy madaniyat va, aksincha, ma'naviy madaniyatda moddiy madaniyatni uchratish mumkin. Masalan, ilmiy-texnik jarayon bo'lmish om-maviy axborot vositalari, radio, televideniya, kino, magnitafon, videotexnika, komputer kabilar moddiy madaniyat bo'la turib, ma'naviy madaniyat oshishiga xizmat qiladi. Ma'naviy madaniyat bo'lmish ilm-fan esa texnikaning rivojiga xizmat qiladi. Hattoki texnikani ma'naviylashtirish asri boshlandi (masalan, texnika estetikasi...).

Moddiy madaniyat deb insoniyat mehnati bilan yaralgan, uning barcha moddiy ehtiyoj va talablariga javob beradigan bir necha moddiy qadriyatlar yig'indisiga aytiladi. Moddiy madaniyatga, avvalo, mehnat qurollari va ishlab chiqarish, ijtimoiy-maishiy xizmat turlari (bular: transpot, aloqa vositalari, kommunal uy-joy xo'jaligi xizmati va hokazo), kiyim-bosh, uy-ro'zg'or buyumlari kiradi. Demak, moddiy madaniyat insonning tabiatni qay darajada egallay olganligini va unga ta'sir qilib, uni qanchalik o'zgartira olganligini ko'rsatadi.

Madaniyatshunos olim Yu. V. Rojdestvenskiy o'zining madaniyatshunoslik faniga bag'ishlangan asarlaridan birida mod-

¹ E. Gulmetov va bosh. Madaniyatshunoslik: Ma'ruzalar matni. – T., 2000. 23-bet.

diy madaniyat haqida qimmatli ma'lumotlar bergan. Kitobxonga biz ushbu asardan olingan ma'lumotni berishni lozim topdik.

Hayvonot olami. Bu kategoriyaga hayvonot olamiga mansub jonzotlar kiradi. Ya'ni bu kategoriyada faqatgina xo'jalikda (ot, mol, asalari va hokazo) foyda keltiradiganlargina emas, balki san'at darajasida go'zal deb hisoblangan zot (kaptar, to'ti, zotdor mushukchalar va hokazo) ham kiradi. Yovvoyi hayvonlarning uy hayvoni bilan chatishtirilgani (gibrit) ham moddiy madaniyatning hayvonlar zoti kategoriyasiga kiradi. Bu jarayondan o'tmagan yovvoyi hayvonlar moddiy madaniyat kategoriyasiga kirmaydi.

O'simlik navi. Bu jarayon seleksiya va o'simlikni parvarishlash orqali amalga oshadi. Berilgan e'tibor natijasida o'simlikning har bir turida navlar soni tinimsiz ravishda oshib boradi. Shuningdek, ularning foydali tomonlari ham ma'lum bir sharoitga, iqlimga moslashadi, yashab keta olish xususiyatlari o'sadi. Shuni aytib o'tish kerakki, o'simlikni urug'lar orqali ham saqlash mumkin. Ularni saqlay olish imkoniyatlarining mavjudligi esa madaniy mehnatga tegishli bo'lgan urug'lar kolleksiyasini, ularni sistemalashtirishni beradi. Bular bilan maxsus tashkilotlar shug'ullanadi, ya'ni urug'chilik xo'jaligi va hokazo.

Bino va qurilmalar. Bu majmualar moddiy madaniyatning eng ko'rgazmali elementi hisoblanadi. Bino – insonlar mavjud bo'ladigan, ular yig'iladigan joy.

Transport vositalari. Moddiy madaniyatning bu kategoriyasi ko'chmas va ko'chuvchi yoki harakatlanuvchi umumiy mulk majmuasini bildiradi. Ko'chmas mulk quyidagilarda ko'rinadi:

- transport yo'llarini belgilash;
- umuman, yo'llar qurilishi (beton, yer osti yo'li, ko'prik, rels, shpala va hokazo);

– transport vositalari uchun kerakli bino va qurilishlar (pochta bekatlari, temir yo‘l bekatlari, benzin quyish shoxobchalari, depo va hokazo).

Aloqa va aloqa vositalari. Moddiy madaniyatning bu sohasi pochta, telegraf, radio, televezion tarmoq, telefonli va radiotelefonli tizimni o‘z ichiga oladi¹.

Jahon xalqlari madaniyatining ko‘pgina elementlari bir-biri bilan umumiylik xususiyatiga ega. Ushbu masala bilan shug‘ullangan D. Merdok 70 ga yaqin shunday elementlarni ajratib ko‘rsatib o‘tgan. Umumiylikka ega bo‘lgan bu elementlar sotsiologiyada **madaniy universalialar** deb yuritiladi. Madaniy uneverasialarga til, etiket qoidalari, tug‘ilish va o‘lim bilan bog‘liq bo‘lgan marosimlar, sovg‘a berish va olish qoidalari, kishi yoshi o‘rtasidagi tafovutlar va undan kelib chiqadigan munosabatlar, mehmonga borish qoidasi, qarindosh-urug‘chilik munosabatlari, qarindosh-urug‘ o‘rtasidagi incest holatini taqiqlash, xonani jihozlash, gigiyena qoidalariga amal qilish, ob-havoni kuzatish va shu kabi barcha madaniyatlarda uchraydigan va, asosan, bir xil ko‘rinishda ifodalanadigan hodisalar kiradi.

Lekin insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, jahon xalqlari madaniyati negizida madaniy uneverasialaradan ko‘ra, madaniy tafovutlar va madaniy rang-barangliklar ko‘proq uchramoqda. Insoniyat madaniyatlarining turli-tumanligi qadriyatlar, xulq me‘yorlari orqali ko‘rinadi. Masalan, ayrim xalq vakillari ustritsalarni tansiq taom sifatida iste‘mol qiladi, lekin mushuk va kuchuklarni yemaydi. Musulmonlar cho‘chqa go‘шти yemaydilar, hindlar esa yeydilar, ammo ular mol go‘шти yemaydilar. G‘arb erkaklari bir-birlari bilan o‘pishib so‘rashsa, bu tabiiy holat sifatida qabul qilinadi, Sharq erkaklari uchun bu jarayon or-nomusning buzilishi belgisi sifatida qayd etiladi. Bu xususiyatlarning barchasi bir jamiyatni ikkinchi jamiyatdan ajratib turadigan keng madaniy tafovutlarning bir jihati, xolos.

¹ Qarang: Рождественский Ю. В. Введение в культуроведение. М., 1996.

Insoniyat madaniyatlari bir-biridan jiddiy farq qilganligi uchun, bir madaniyat vakillariga boshqa madaniyatda qabul qilingan xulq-atvor va tasavvurlar juda yoqimsiz ta'sir qiladi. Demak, har bir madaniyatda o'ziga xos, betakror xulq shakllari qabul qilingan bo'lib, boshqa madaniyat vakillariga ular g'alatiroq tuyilishi mumkin. Har qanday madaniyatni uning o'z ma'no belgilari va qadriyatlaridan kelib chiqib o'rganmoq kerak. Aks holda, begona madaniyat to'g'ri tushunilmay qolish xavfi tug'iladi va bu madaniyatga obyektiv yondashishning ilojini qoldirmaydi. Shuning uchun sotsiologiya bir madaniyatni o'zga madaniyat nuqtayi nazari bo'yicha baholashdan uzoqlashishga intilinadi.

I. 4. Madaniyat va sivilizatsiya

Madaniyat va sivilizatsiya bir-biri bilan chambarchas bog'liq tushunchalardir. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida *sivilizatsiya* atamasi mustahkam ravishda oyoqqa turib oldi va shu asrlarning o'zidayoq ilk bor ko'plik ma'nosida ishlatila boshlandi (sivilizatsiyalar, avvaliga Fransiyada, so'ngra esa Angliyada amalda qo'llanila boshlandi). *Sivilizatsiya* atamasi lotin tilidagi *civis* – fuqaro va *civilis* – tegishli so'zlaridan olingan bo'lib, “fuqarolik”, “fuqarolikka oid”, “fuqarolikka doir”, “fuqaroga tegishli” degan ma'nolarni bildiradi. Uzoq tarixiy rivojlanish bosqichini boshidan o'tkazgan *sivilizatsiya* tushunchasi bugungi kunga kelib biron-bir kishilik jamiyati rivojini yoki qachonlardir o'z rivojida ma'lum bosqichga erishgan jamiyatni nazarda tutadi. Shuningdek, bu atama madaniyat atamasi bilan bog'lanib kelganda qarashlar sofliğini, huquqiy va ijtimoiy tartibning o'rnatilganligini, jamiyat osoyishtaligini bildiradi. Taxminan 5 ming yil burun Yer sharining ayrim hududlaridagina sivilizatsiya, ya'ni kishilarning ilk birlashuvi va ularning qonun-qoidasi asosidagi muloqot yuzaga kela boshlagan.

Sivilizatsiya sharoitida madaniyat rivojlanishi yuqori pog'onaga ko'tariladi, natijada yangidan-yangi moddiy va ma'naviy madaniy qadriyatlar yaratiladi.

Hozirda bu tushuncha:

1) ijtimoiy rivojlanishning yovvoyilik va varvarlikdan keyin keladigan bosqichini;

2) umuman, kishilik jamiyati rivojlanishining ma'lum bir bosqichini (masalan, neolit davri, kapitalistik yoki hozirgi zamon sivilizatsiyasini);

3) ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyani (masalan, quldorlik yoki kapitalistik sivilizatsiyalar);

4) geografik jihatdan farqlanuvchi hududlarni (masalan, Yevropa, Osiyo yoki Yaqin Sharq sivilizatsiyasi);

5) diniy mansubligi bilan farqlanuvchi madaniy birliklarni (xristian yoki islom sivilizatsiyasi);

6) kelib chiqishi va planetar mansubligiga ko'ra ajraluvchi birliklarni (Yer sivilizatsiyasini va yerdan tashqari sivilizatsiyalarni);

7) etnik mansubligiga ko'ra farqlanuvchi ijtimoiy-madaniy birliklarni (arab yoki hind sivilizatsiyasi);

8) makon va zamondan cheklangan jamiyatlarni (qadimgi Misr yoki Vavilon sivilizatsiyasi) va shu kabi ma'nolarni ifodalash uchun qo'llaniladi.

Sivilizatsiya tushunchasini ijtimoiy rivojlanishning yovvoyilik va varvarlikdan keyin keladigan bosqichini ifodalash uchun ishlatish ma'lum ma'noda o'rinli. Chunki bunday ma'noda ishlatilganda, sivilizatsiya tushunchasi kishilik jamiyati rivojlanishining ibtidoiy holatidan keyingi davrdagi butun holatini to'laligicha qamrab oladi"¹. "Bunday yondashuvda sivilizatsiya tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya tushunchasiga nisbatan keng mazmun kasb etadi. Ma'lum bir xalqqa yoki millatga

¹ Falsafa: (O'quv qo'llanma) / E. Yusupovning um. tahr. ost. – T.: Sharq, 1999. 309-bet.

tegishli bo‘lgan va aynan ushbu xalq yoki millat madaniyatini, rivojini bildirayotgan *sivilizatsiya* tushunchasini geografik jihatdan o‘zga hududda yashovchi xalq yoki millatga nisbatan ishlatish o‘rinli emas (bu masalaga biz yuqorida, madaniyat shakllari va elementlarini bayon etganimizda to‘xtalib o‘tganmiz). Masalan, Osiyoda rivojlanishning turli bosqichlarida turgan xalqlar mavjud. Albatta, bir-biriga yaqin bo‘lgan geografik makonda yashash ijtimoiy-madaniy hayotda qandaydir o‘xshash, umumiy tomonlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ammo bu vaziyat har bir xalqni yoki millatni o‘z dini, tili, madaniyati, turmush tarziga ko‘ra bir-biridan farqlanuvchi mustahkam birlik, yaxlitlik deb baholash uchun asos bo‘la olmaydi. Sivilizatsiya tarixning, jamiyatning sifat jihatidan o‘shining o‘ziga xosligini, u yoki bu mamlakat doirasida amal qiladigan, ishlab chiqarish kuchlari, inson faoliyati, madaniyati tomonidan belgilanadigan umumiy ijtimoiy qonuniyatlarning spetsifikasiga xos xarakterli xususiyatini ifodalaydi. Bunday sifat jihatidan o‘sh xususiyatlarining yo‘qolishi sivilizatsiyaning halokatini anglatadi. Sivilizatsiyaning mohiyatini tushunishda unga mansub bo‘lgan madaniyatning rolini anglash muhim. Agar ishlab chiqarish kuchlari sivilizatsiyaning moddiy asosini tashkil etsa, madaniyat ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oladi, uning qiyofasini, o‘ziga xos rangini belgilab beradi. Hatto ishlab chiqarish kuchlariga ham o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatni, ahamiyatlilik darajasini in’om etadi. Bu bilan madaniyat ijtimoiy hayotning tashkiliy vazifasini, ya’ni sivilizatsiyaning shakllanishini, mavjud bo‘lishi va rivojlanishini belgilab beruvchi o‘ziga xos negiz, “matritsa” (“matritsa” tushunchasi *mualliflardan*) vazifasini bajaradi. Demak, sivilizatsiya madaniyatning konkret namoyon bo‘lishini, uning real mavjud hayotini aks ettiradi. Sivilizatsiya falsafiy qarashlarida asosiy urg‘u axloq-odob va siyosiy nazariya muammolariga

berilgan bo‘lib, insonning axloqiy va fuqarolik burch-vazifalari mutanosibligi ta’limotiga asos soldi”¹.

Madaniyat tushunchasi bilan *sivilizatsiya* tushunchasi ko‘p hollarda sinonim sifatida yonma-yon ishlatiladi. Bunda sivilizatsiya tushunchasi ostida yaratilgan moddiy va ma’naviy yutuqlar nazarda tutiladi. Lekin sivilizatsiya haqida yuqoridagi fikrga qarama-qarshi bo‘lgan qarashlar ham mavjud. Sivilizatsiya va madaniyat tushunchalarini bir-biriga ilk bor qarama-qarshi qo‘ygan olimlar XVIII – XIX asrlarda Germaniyada yashab ijod qilishgan.

Nemis sotsiologi Ferdinand Tyonis “Umumiylik va jamiyat” (1887) asarida *ijtimoiy birlik (jamoaviylik)* va *jamiyat (ijtimoiy)* tushunchalariga asoslangan konseptual tizimni yaratishga harakat qildi. Ya’ni Tyonis ijtimoiy munosabatlarning ikki turini ajratib ko‘rsatdi (ijtimoiy birlik va jamiyat turlari).

Birinchi turdagi ijtimoiy birlik munosabatlarga insonni ichidan yo‘naltiruvchi tabiiy instinktiv birliklar kiradi. Ularga axloqiy mas’uliyat, emotsional teranlik misol bo‘la oladi. Bu munosabatlar oila, urug‘, qon-qardoshlik, qo‘shnichilik, etnos, xalq kabi ijtimoiy birliklarga (jamoaviylikka) xosdir. Bu munosabatlar esa aynan *madaniyat* negizida vujudga keladigan munosabatlardir.

Ikkinchi turdagi munosabatalarga yoki, boshqacha aytganda, ijtimoiy munosabatalarga ongli ravishda qo‘yilgan maqsadga qarab harakat qilish va o‘z xohishi bilan istaganini tanlash erkinligi kiradi. Birinchi turdagi munosabatlarga (ijtimoiy birliklarga) ona muhabbati misol bo‘la olishi mumkin, ikkinchi turdagi munosabatalarga (ijtimoiylikka) esa savdogarlik faoliyati misol bo‘ladi. Birinchi turdagi munosabatlar jamoani tashkil qiladi, ikkinchi turdagi munosabatlar jamiyatni hosil qiladi. Jamoada instinktlar, hissiyotlar hukmronlik qiladi. Jamiyatda esa hisob-kitobli

¹ Falsafa qomusiy lug‘at. (Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q. Nazarov). – T.: Sharq, 2004. 246-bet.

tafakkur, mexanizmga monand munosabatlar qonunlariga rioya qilinadi. Demak, birinchi turdagi munosabatlarga psixologik va shaxsiy munosabatlar (oila, qo'shnilar jamoasi, o'smirlar guruhi va hokazo) kirsam, ikkinchi turdagi munosabatlarga tashkilotlar va siyosiy partiyalar kirishi mumkin. Birinchi turdagi munosabatlar o'zining davomiyligi va emotsionalligi bilan ajraladi. Ikkinchi turdagi munosabatlar o'zining tasodifiy rasmiyatchilikka xosligi yuzasidan va shaxssizligi bilan ajraladi¹. Albatta, ikkinchi turdagi munosabatlar qisman birinchi turdagi munosabatlarga asoslanishi mumkin, lekin ular umuman begona, bir-biriga yot bo'lgan, hattoki o'zaro dushman bo'lgan kishilar orasida ham quriladi. Ikkinchi turdagi munosabatlarning barchasi ratsional tizimga asoslanadi. Ularning a'zolari va subyektlari nafaqat yakka shaxslar, balki turli guruhlar, jamoalar, hattoki davlatlar va birlashgan tashkilotlar bo'lishi mumkin. Bu darajadagi munosabatlarning barchasi *sivilizatsiya* ichida (negizida) vujudga kelgan munosabatlardir. Jamoaviylikdan sekin-asta ijtimoiylashuvga o'tish orqali sotsial tashkillashganlik jarayonining rivojlanishi mumkinligini ko'rsatib bergan Tyonis bu jarayonda, shuningdek, boshqa holat ham yuz berishini ko'rsatib o'tadi. Olim, ijtimoiy jarayon madaniy aloqalarning kamayib borishi, an'anaviy aloqalarning uzilishi, mehr-muhabbatning so'nishi, insonlar o'rtasida yaqinlik munosabatlarining yo'qolib borishi bilan bog'liq holda yuz beradi", – deb ta'kidlaydi². Bu ma'naviy qadriyatlarining o'rni sovuqqonlik va faqat aqliy salohiyatga suyanib ish ko'rish jarayoni egallaydi.

1919-yilda "Yevropaning so'nishi" asarini chop etgan nemis faylasufi Osvald Shpengler sivilizatsiya jarayonida G'arbni qat'iy halokat kutayotganligini bayon etadi. Shpengler nuqtayi

¹ Qarang: Skirbekk, G., Gile N. Falsafa tarixi: oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'll. – T.: Sharq. 2002.

² Qarang: Л. Г. Юонин. Социология культуры: Учебное пособие 2-е издание. – М.: Логос, 1998.

nazari bo'yicha, sivilizatsiya – bu rivojlanishning eng oxirgi pog'onasigacha ko'tarila olgan, insonlar tomonidan yaratilgan "sun'iy olam" yig'indisidir. Sivilizatsiya – bu halokatning boshi va madaniyatning yakunidir. Sivilizatsiya – hayotning izidan o'lim kelganidek, yoshlik ketidan qarilik quvganidek, gullab-yashnash o'z nihoyasi yetganidek, madaniyatning ketidan quvib yuradigan hodisa va uni bartaraf etib bo'lmaydi.

Madaniyat – bu insonning ma'naviyati, ichki olami, ijodiy qobiliyati, ilhomi va mehr-muhabbatidir. Sivilizatsiya esa noijodiyot, tabiiy bo'lmagan quruqlik va sun'iylikdir. Demak, Shpengler uchun sivilizatsiya – bu ijodiyot, ilhomlanish, rivoj va ravnaq belgisi bo'lmish ma'naviy boyish davri o'rninga, jamiyatning ma'naviy toshqotishi, ijodining tang holatga kelishi, ma'naviy bo'shliq davri bilan almashuvidir.

Sivilizatsiya – jamiyatning texnik rivojlanishini, progressini bildirsa-da, lekin bu jarayon quruq, sun'iy, barcha narsani hisob-kitob bilan o'lchaydigan jarayondir. Shuning uchun Shpengler sivilizatsiyani har qanday madaniyat yakuni, xulosasi deb bilgan. "Shpengler Osvald – nemis idealist-faylasufi, hayot falsafasi vakillaridan biri. U konservativ-millatchilik yo'nalishida publitsistik chiqishlar qilgan, ammo nemis natsistlarining hamkorlik qilish to'g'risidagi takliflarini rad etgan. Shpengler o'z qarashlarida cheksiz kengayishga qaratilgan organik hayot tushunchasidan kelib chiqadi. Madaniyatni u "organizm" sifatida talqin qiladi. Uningcha, bu yagona umuminsoniy madaniyat yo'qligini va bo'lmaganligini ko'rsatadi. Shpenglarning ta'kidlashicha, har bir madaniy "organizm" tarixi uning ichki hayotiy siklidan kelib chiqqan holda ming yilcha oldin belgilanadi. Madaniyat halokatga uchrashi jarayonida sivilizatsiyaga aylanadi. Madaniyatdan sivilizatsiyaga o'tish esa ijodkorlikdan mahsulsizlikka, shakllanishdan qotib qolishga, qahramonona tashabbuslardan

mexanik “ishga” o‘tish bo‘ladi. Olim fikricha, sivilizatsiya oqibatida badiiy va adabiy ijodga ehtiyoj qolmaydi”¹.

Shpengler konsepsiyasiga qo‘shiluvchilarga nisbatan uni muhokama qiluvchilar soni ko‘proq bo‘lishiga qaramay, bu konsepsiya olimlar orasida tez tanildi. Masalan, insonparvar-gumnist A. Shveytser jamiyat qalbsiz bo‘lgan texnik-mexanik sivilizatsiyadan qochib qutula olmasligini, oxir-oqibat bu sivilizatsiyaning baribir ushbu jamiyatga kirib kelishi xavfi mavjudligi – jamiyat a‘zolarining tushkunlik holatiga tushishiga olib kelishini aytadi. N. Berdyayev: “Sivilizatsiya va madaniyat hodisasiga xronologik yondashib, ular davrlar almashinuvi natijasida yuzaga keladi”, – deb Shpengler nazariyasini xato sifatida ko‘rsatadi. Berdyayevning ta’kidlashicha, sivilizatsiya davrida madaniyat mavjud bo‘ladi va, aksincha, madaniyat davrida sivilizatsiya mavjud bo‘ladi.

Shuni aytish lozimki, Shveytser madaniyat va sivilizatsiya o‘rtasidagi farqni shartli, deb ko‘rsatib o‘tadi. Shveytser fikricha ham, Shpengler fikricha ham, bitta jarayonni ifodalash uchun fransuz tadqiqotchilari “sivilizatsiya”, nemis tadqiqotchilari “madaniyat” atamasini ishlatishadi. Masalan, fransuz tarix maktabi namoyandalari “sivilizatsiya” atamasini ishlatishsa-da, aslida, madaniyat tushunchasi va jarayonlarini nazarda tutishadi. Taylor esa o‘z asarlarida madaniyatni sivilizatsiyaga tenglashtirib qo‘ygan.

E. Ahmedova o‘zining “Культуралогия” asarida ko‘rsatishicha *sivilizatsiya – bu insondan tashqarida, ya’ni unga bog‘liq bo‘lmagan holda yuz beradigan jarayondir. U insonga ta’sir ko‘rsatib uning ichki dunyosiga kirib borishi ham yoki bo‘lmasa, unga qarshi chiqishi ham mumkin. Madaniyat esa insonning*

¹ Falsafa qomusiy lug‘at. (Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q. Nazarov). – T.: Sharq, 2004. 454-bet.

*ichki olami, uning ma'naviy boyligi namunasi bo'lib, kishining qay darajada rivojlanganligini ko'rsatib beradi*¹.

Ko'pgina adabiyotlarda "sivilizatsiya" biron-bir jamiyatning rivojlanganligi darajasini bildiradi. Lekin bu darajaga erishish jamiyat taraqqiyotining qaysi pog'onasiga ko'tarilgandagina yuz berishi mumkinligi yoki, boshqacha aytganda, "sivilizatsiya" darajasiga erishish va "sivilizatsiya" maqomiga sazovor bo'lish nuqtasi (chegarasi) hech qaysi izlanishlarda aniq ko'rsatilmagan. Shuni aytib o'tish mumkinki, sivilizatsiya belgilari sifatida kamida quyidagilar mavjud bo'lmog'i lozim. Avvalo:

1) davlat xalqni jiplashtira oluvchanlik qobiliyatiga ega bo'lishi lozim;

2) davlat xalqni xo'jalik, harbiy, huquqiy, qonuniy jihatdan boshqara olishi lozim;

3) yozuvning mavjudligi. Yozma huquq normalariga, qonun-qoidalariga ega bo'lgan kishilik jamiyati – sivilizatsiyalashgan jamiyat, yozilmagan qonun-qoidalar, an'ana va urf-odatlariga rioya qilgan jamiyat sivilizatsiyalashmagan jamiyat hisoblanadi.

4) muayyan ijtimoiy ishlab chiqarish texnologiyasiga ega bo'lish lozim;

5) takrorlanmas madaniyati, qadriyati, falsafiy qarashlari, odoq-axloq normalari, qonuni, huquqiy normalari mavjud bo'lishi lozim;

6) o'z hayotiy tamoyillariga ega bo'lishi lozim;

7) insonparvarlikning yuqori pog'onasiga ko'tarilgan bo'lishi lozim. Odamxo'rlik va insonni qurbonlikka keltirish mavjud bo'lgan, inson qadr-qimmatini va haq-huquqi toptalgan jamiyatlar sivilizatsiya darajasiga yetgan hisoblanmaydi. Albatta, zamonaviy sivilizatsiyalashgan jamiyatning ayrim vaziyatlarida uchraydigan insondan keltiriladigan qurbonliklar, qonli ma-

¹ Qarang: E. Axmedova, P. Gabidulin. Культурология. Мировая культура. – Т.: Акад. Худ. Узб., 2001.

rosimlar (inson nazarda tutilmoqda) o‘tkazish jinoyat va ruhiy kasalliklar belgisi hisoblanib, bunday varvarlik holatlari sivilizatsiya yo‘qligi belgisi hisoblanmaydi.

Demak, sivilizatsiya kishiga bog‘liq bo‘lmagan, uning tashqarisida sodir bo‘layotgan tashqi hayot, olam, tashqi jarayondir. Madaniyat esa buning aksi bo‘lib, u aynan kishi ichki dunyosida vujudga keladigan jarayondir. Madaniyatning unday yoki bunday bo‘lishi kishi ichki dunyosining qay darajada boy yoki kambag‘al ekanligidan dalolat beradi.

Sivilizatsiya – bu, avvalo, madaniy yutuqlar majmuasidir. Bir madaniyatning o‘zi bir nechta dinastiya va davlatlardan uzoq yashashi mumkin. O‘z navbatida, bir sivilizatsiya o‘z umri davomida bir-birini bosib olgan bir nechta turli davlatlarni ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Sivilizatsiya turli hududlarga tarqalishi, ularni “bosib olishi” (faqatgina, kuch ishlatish yo‘li bilan emas), turli mintaqa xalqlari ongiga singishi, yangi-yangi xalq va davlatlarni egallashi mumkin. Shuningdek, sivilizatsiya o‘zi erishgan madaniy qadriyat va yutuqlarini boshqa bir sivilizatsiyaga hadya etib, o‘zi esa hayot “sahnasidan” butunlay yo‘qolib ketishi ham mumkin.

Tarixning guvohlik berishicha, ayrim vaziyatlarda bir nechta sivilizatsiyalar birlashib ketib, yagona sivilizatsiyani tashkil qilgan (maslan, grek-rim sivilizatsiyasi). Sivilizatsiyalar bir-biri bilan parallel ravishda yashashi ham mumkin yoki bo‘lmasa asta-sekinlik bilan ketma-ketlikda vujudga kelishi ham mumkin. Nima bo‘lganda ham sivilizatsiya tarixi – bu madaniyat tarixidir. Sivilizatsiyani o‘rganish – bu undagi madaniyat rivojini o‘rganishdir¹.

Sivilizatsiya – madaniyatning konkret namoyon bo‘lishi, uning real mavjud hayotini aks ettirishi. Sivilizatsiya madaniyatsiz, madaniyat sivilizatsiyasiz, undan tashqarida mavjud

¹Qarang: Ионин Л. Г. Социология культуры. Учебное пособие. – М.: Логос. 1998.

bo'lishi mumkin emas. Chunki inson ma'lum bir sivilizatsiya bag'rida o'tmish ajdodlari tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni o'zlashtirgan holda shakllanadi va kamol topadi.

I. 5. Sivilizatsiya va madaniyatga bo'lgan ijtimoiy yondashuv

Madaniyat kelib chiqishi jihatidan yaxlit hodisadir. Lekin u hamisha izlanishda, rivojlanishda bo'ladi. Demak, madaniyat o'z xususiyatiga ko'ra o'zgaruvchandir. Ming yil ichida madaniyat shu darajada o'zgaradiki, bimalol avval vujudga kelgan madaniyat bilan keyingi vujudga kelgan madaniyat o'rtasidagi farqni ko'rish mumkin. Shu bilan birga, bir vaqtning o'zida, parallel ravishda yashagan turli madaniyat turlari va shakllari ham mavjud bo'lgan. Eramizdan avvalgi V asrda mavjud bo'lgan qadimgi Gretsiya madaniyati bilan shu davrda sayyoramizning boshqa nuqtasida, umuman boshqa yo'sinda rivojlanayotgan o'zgacha madaniyatning o'rtasida farq bo'lishi tabiiy.

Xo'sh, madaniyatning asosiy shakllari qanday bo'ladi? Ular nechta? Qaysi belgilari orqali bir shakl ikkinchi shakldan farqlanadi?

Birinchiidan, madaniyat "motorli g'ildirak" kabi to'xtovsiz ravishda harakatda, rivojlanishda bo'ladigan hodisadir. Bunday «g'ildirakli» madaniyatning vaqt-davr jihatidan aniq chegarasini topish oson ish emas. Sababi bir tarixiy-madaniy davr boshqa bir tarixiy-madaniy davrga mos tushmasligi, biri ikkinchisidan ko'proq yoki kamroq vaqtni rivojlanish uchun o'z ichiga olgan bo'lishi mumkin. Masalan, tarixiy manbalarda eramizning IV asrigacha bo'lgan davr Qadimgi dunyo, eramizning IV asridan keyingi bo'lgan davr esa O'rta asr deb yuritiladi. Tarixni, madaniy rivojlanishni, boringki, sivilizatsiyani bunday xronologik

chegaralash Janubiy va G'arbiy Yevropa hududi tarixi, madaniyatiga balkim mos tushar, lekin bu xronologiya boshqa ko'pgina hududlar madaniy rivojlanish davrini qoniqtirmasligi mumkin.

Ikkinchidan, turli xalqlar, turli hududlar, turli davrlar madaniyati bir-biridan farqlanishi ham, bir-biri bilan umumiy jihatga ega bo'lishi ham mumkin. Masalan, til o'xshashligi, din umumiyliigi, moddiy yoki ma'naviy-badiiy hayotning yaqinligi va hokazo. Savol tug'iladi: xo'sh, ikki alohida bo'lgan madaniyat turlari olimlar tomonidan alohida o'rganilishi uchun ular bir-biridan qanchalik farqlanishi yoki qanchalik darajada umumiylikka ega bo'lishi lozim. Boshqacha izohlaganda, ikkita turli xil madaniyatning umumiy jihati nechtaga yetganda, ular alohida olingan madaniyat turlari hisoblanmay, yagona bitta madaniyat turi sifatida o'rganiladi? Xullas, bu yo'l bilan ham turli madaniyatlarning o'zaro chegarasini aniqlash aniq xulosa bermaydi. Masalan, ayrim ilmiy adabiyotlarda qadimgi grek madaniyati bir madaniyat turi, qadimgi Rim madaniyati ikkinchi madaniyat turi deb o'rganilsa-da, boshqa adabiyotlarda bu ikki madaniyat turi bitta qilib grek-rim madaniyati deb yuritiladi.

Chuqur mulohaza qilib ko'rilsa, alohida ravishda grek madaniyat turi deb ham, Rim madaniyati deb ham, har ikkisini qo'shib grek-rim madaniyati deb ham yuritish to'g'ridek tuyuladi. Lekin bunda aniq chegara yana yo'qoladi. Xo'sh, bu holatda madaniyat shakllarini bir-biridan ajratish o'zi kerakmi yoki yo'qmi?

Uchinchidan, jahon madaniyatini, jahon madaniyati boyligi va merosini, insoniyatning madaniyat olamida erishgan yutuqlarini biz yagona, bitta umuminsoniy madaniyat va boyluk deb tushunamiz. Shunday ekan, yagona jahon madaniyati mavjud ekan, nima uchun madaniyat turlarini aniqlash, uni bir nechtaga ajratish lozim¹?

¹Qarang: E. Axmedova, P. Gabidullin. Культуралогия. Мировая культура. – Т.: Акад. Худ. Узб., 2001.

²Qarang: E. Axmedova, P. Gabidullin. Культуралогия. Мировая культура. – Т.: Акад. Худ. Узб., 2001.

Ko'p hollarda madaniyatshunos mutaxassislar bir necha sivilizatsiyalarni ajratib olib, shundan so'ng ushbu sivilizatsiyalar ichida rivojlangan madaniyatlarning ko'rinishini, ularning o'ziga xosligini o'rganishadi. Lekin O. Shpengler nazariyasi bundan mustasno. Birinchi mavzuda ta'kidlab o'tilganidek, O. Shpengler madaniyat va sivilizatsiyani bir vaqtda yuz bermaydigan jaryonlardan bo'lib, ular bir-birining ichida uchramaydi, deb hisoblaydi.

U: "Sivilizatsiya vujudga kelganda madaniyat o'ladi", deb fikrlaydi (O. Shpengler o'zining "Закат Европы" (1918-yil) asarida sivilizatsiyani texnik-mexanik elementlar yig'indisi davri, madaniyatni esa "organik hayotning shohlik davri" deb tushuntiradi). Shunday qilib, boshqa mutaxassislar singari madaniyat va sivilizatsiyani bir-biriga bog'liq deb hisoblamaydigan Shpengler ulardagi rivojlanish bosqichlari ham boshqa-boshqa, bir-biriga bog'liq emas, deb ta'kidlaydi². Shpengler o'z asarida 8 ta sivilizatsiyani ko'rsatib o'tadi. Rus madaniyatshunosi N. Ya. Danilevskiy (XIX asr) 10 ta sivilizatsiyani, XX asr ingliz olimi A. Toynbi 20 ga yaqin sivilizatsiyalarni turli xil madaniyat tiplari bilan ajratib ko'rsatgan.

Umuminsoniy madaniyatning birligini ta'kidlash bilan bir qatorda, turli xil madaniyat turlari ham mavjudligini tan olish mumkin. Jahon madaniyati ham, turli madaniyat turlari ham bir-birini inkor etmaydi, aksincha, ular bir vaqtning o'zida parallel ravishda yashab kelgan. Insoniyat rivojining qaysidir davrlarida madaniyatning bir necha turga bo'linishi tabiiy bo'lgan: bir madaniyat ikkinchi madaniyatdan diniy, axloqiy qarashlar sistemasi, moddiy va ma'naviy madaniyat shakllari orqali farqlangan. O'tmish orqali davr, jahon madaniyati haqida gap ketganda, uni turli xil madaniyatlar yigindisi, majmuasi sifatida tasavvur qilish haqiqatga yaqinroq bo'ladi.

Vaqt o'tishi bilan insoniyat umuminsoniy qadriyatlarga va umumiy madaniyatga ehtiyoj seza boshladi. Umuminsoniy qa-

driyatlar ilk kurtaklari qadimga, jahon dinlarining axloqiy qarashlari shakllana boshlagan davrlarga borib taqalsa-da, XX asrga kelibgina ular umuminsoniy qadriyatlar deb tan olina boshlandi. XX asr nemis mutafakkiri K. Yaspers fikri bo'yicha, eramizdan avvalgi VIII – II asrlarda vujudga kela boshlagan ilk umumdinoy va axloqiy qadriyatlar umuminsoniy qadriyat va madaniyatning yaratilishiga asos bo'lib xizmat qildi. Bu tarixiy davrni Yaspers umuminsoniyat tarixining asosi, boshlang'ich nuqtasi, deb ta'riflaydi. Din esa har qanday jamiyatda qadrlanganligi sababli, undan boshlangan umuminsoniy madaniyat ham elatlar va millatlar madaniyati ildiziga mustahkam singdirilgan¹.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarga qaramasdan, umuminsoniy madaniyatning oyoqqa turishi qiyin kechgan. U iqtisodiy, siyosiy, milliy, irqiy kabi ko'pgina muammolarga duch kelgan.

Shuni unutmazlik kerakki, milliy madaniyatlar umuminsoniy madaniyatga qo'shilishida ehtiyotkor bo'lib qolishlari tabiiy. Bu "ehtiyotkorlik tuyg'usi" milliy madaniyat, undagi milliy til, an'ana, urf-odatlar taqdiri haqida qayg'uradi, degan fikrni bildiradi. Umuminsoniy madaniyatga qo'shilish ayrim hollarda milliy madaniy qadriyatlarning yo'qolishiga olib keladi, degan tushuncha mavjud. Bir qarashda bunday hadikni tushunish mumkindek tuyulsa-da, ammo doimo yodda tutish lozimki, umuminsoniy madaniyat har bir madaniy qadriyatlarga hurmat bilan yondashib, ularni asrab-avaylaydi. Har bir madaniyat hodisasi – bu butun jahon madaniyatining bir elementidir. Demak, jahon madaniyati turli madaniyat ko'rinishlarining har bir bo'lagini qadrlaydi².

Ayrim vaziyatlarda milliy madaniyatning o'zi bir necha ko'rinishlarga bo'linadi, deb qaraladi. Masalan, marksizm qarashlari tarafdorlari uchun har bir milliy madaniyatning o'zi qa-

¹ Qarang: E. Axmedova, P. Gabidulin. Культурология. Мировая культура. – Т.: Акад. Худ. Узб., 2001.

² Qarang: E. Axmedova, P. Gabidulin. Культурология. Мировая культура. – Т.: Акад. Худ. Узб., 2001.

tlamlarga qarab bir necha madaniyat turlariga bo‘linadi, deb tushunish xosdir. Marksizm davomchilari ham milliy madaniyatni ikkiga: proletar madaniyatiga (ishchi-dehqon madaniyati) va burjua madaniyatiga (oqsuyaklar madaniyatiga) bo‘ladi. Jamiyat a‘zolari orasida madaniyatni bu tarzda qabul qilish kishilar ongiga shu darajada chuqur singib ketgan ediki, bunday vaziyatni na faqat madaniyatning san‘at sohasida, balki jamiyatning boshqa sohalarida ham uchratish mumkin edi. Masalan, XVIII – XIX asr madaniyatiga berilgan bahoni Karl Marks shu davr jamiyatidagi huquq sohasida ham mavjudligini ta‘kidlab o‘tadi. Marks qarashiga binoan, xususiy mulkchilikning rivojlanishi huquq sohasining ham sinfiy ravishda bo‘linishini, ya‘ni kishi tabaqasiga qarab bo‘linishini taqozo etadi, deb hisoblaydi. Ammo til, din, axloq – bular milliy madaniyatning birligini, yagonaligini ta‘minlovchi asosiy omillardir. XX asrga kelib ilm-fan, texnika shu qadar jadal rivojlanib ketdiki, bu hol ta‘lim olish imkoniyatlari, hayot tarzi, badiiy madaniyatni tanlash o‘rtasidagi ijtimoiy qatlamlararo chegarani o‘chirib tashladi. XX asr madaniyat turlarining yangicha ko‘rinishini – ommaviy va elitar madaniyatni vujudga keltirdi. Xo‘sh, bu boy va dehqon yoki ommaviy va elitar madaniyatlar bir madaniyat turi ichidagi har xil yo‘nalishlarmi yoki boshqa-boshqa madaniyat turlarimi? Yuzaki qarashda, har ikki madaniyat ko‘rinishlari bir jamiyat ichida vujudga kelgan bo‘lib, bir madaniyat turining ikki xil yo‘nalishlaridek tuyulsada, aslida, ularning bir-biriga o‘xshamasligi doimo o‘zaro qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi.

Kitobxon uchun mavzu yanada tushunarli bo‘lishi uchun sivilizatsiya va madaniyat hodisasiga yana qaytib, unga XIX – XX asr mutafakkirlarining qarashlari qanday bo‘lganligini eslab o‘tishimiz darkor. Masalan, o‘z davrining mashhur olimlari bo‘lgan N. Ya. Danilevskiy (XIX asr, rus olimi) va O. Shpengler (nemis olimi, XX asr) qarashlarini bir-biri bilan solishtirsak, juda qiziq ma‘lumotlarga ega bo‘lamiz. Danilevskiy va

Shpengler nazariyalari o'zining originalligi, haqiqatga yaqinligi, mashhurligi va taniqliligi bilan boshqa nazariya va qarashlardan ajralib turadi. Kitobxon diqqat qilgan bo'lsa, ushbu mavzu boshida madaniyatshunos olimlar (Shpenglerdan tashqari) bir necha sivilizatsiyalarni sanab o'tib, shundan so'ng ushbu sivilizatsiyalardagi madaniyatlarning o'ziga xosligini o'rganishadi, deb ta'kidlagan edik (yodingizda bo'lsa, Shpengler 8 ta sivilizatsiyani, Danilevskiy 10 ta sivilizatsiyani, Toynbi 20 ga yaqin sivilizatsiyani bir nechta madaniyat turlari bilan ko'rsatib o'tganligini bayon etgan edik).

Danilevskiy nazariyasining boshlang'ich prinsipi bu mustaqil madaniy-tarixiy shakllarni o'rganish davomida ularni biologik organizmga o'xshatish va bu o'xshatish orqali madaniy-tarixiy shakllarning rivojlanganlik darajasini kuzatish bo'lgan. Ya'ni madaniy-tarixiy shakllar tirik organizm kabi hamisha bir-biri va atrof-muhit bilan o'zaro kurashda bo'ladi; biologik turlar kabi ular ham oldindan belgilangan kuchga to'lish, qarish va o'lish kabi bosqichlarni bosib o'tadi. Danilevskiy fikricha, tarixning hayot yo'li – bu madaniy-tarixiy shakllarning o'zaro kurashib, bir-birini siqib chiqarishdan iborat bo'lgan yo'ldir. Danilevskiy quyidagi madaniy-tarixiy shakllarni yoki, boshqacha aytganda, ilk sivilizatsiyalarni ajratib ko'rsatadi: 1) Misr; 2) Xitoy; 3) Vavilon (Bobil); 4) Hind; 5) Eron; 6) Yevropa; 7) Grek; 8) Rim; 9) Arab; 10) German-roman yoki Yevropa deyish ham mumkin. Bu asosiy madaniy-tarixiy yoki ilk sivilizatsiya shakllariga Danilevskiy yana ikkita amerikacha shakllarni ham qo'shadi. Bular: Meksika va Peru tarixiy-madaniy shakllari yoki ilk sivilizatsiyalari. Oxirgi ikki madaniyatning tugatilishi XVI asrga kelib ro'y bergan va buning asosiy sababi Amerikaga ispan bosqinchilari kirib kelishi bo'lgan.

Danilevskiy o'ziga xos bo'lgan madaniyat shakllarining tarixiy rivojlanish qonuniyatlarini ishlab chiqqan:

1. Alohida tili yoki qardosh tillari guruhiga ega bo'lgan har qanday xalq yoki xalqlar guruhi o'zlari mustaqil madaniy-tarixiy shaklni vujudga keltirishi va uni rivojlantirib, tarixda qoldirishi mumkin.

2. Madaniy-tarixiy ko'rinishga ega bo'lgan har qanday sivilizatsiya o'zining tug'ilishi va rivojlana olishi uchun ushbu sivilizatsiyaga tegishli bo'lgan xalq siyosiy jihatdan mustaqil bo'lmog'i lozim.

3. Har qanday madaniy-tarixiy shakl o'zi mustaqil holatda vujudga keladi va bunda boshqa madaniy-tarixiy shaklga butunlay bog'liq bo'lmaydi. Ya'ni har bir madaniy-tarixiy shakl o'zi uchun alohida sivilizatsiyani ishlab chiqadi, ammo bu jarayonga boshqa madaniy-tarixiy sivilizatsiyalarning umuman ta'siri bo'lmaydi, deb hisoblash ham xato hisoblanadi.

4. Madaniy-tarixiy shakl gullab-yashnagandagina va to'liq yetuklikka erishgandagina, unda sivilizatsiya jarayoni yuz bergan hisoblanadi.

5. Madaniy-tarixiy shaklning rivojlanish yo'li uzoq yashab, hayotida bir marotaba hosil beradigan o'simlikka o'xshaydi: o'sish jarayoni uzoq bo'lib, gullashi va meva berish davri qisqa va bor kuchni sug'irib oluvchi bo'ladi. Natijada sivilizatsiya so'na boshlaydi.

Danilevskiy insoniyat, umuminsoniy qadriyatlar kabi tushunchalarni mavhum bo'lgan bo'shliq, deb tushunadi. U madaniy-tarixiy shaklda oliy, nihoyasiga yetgan ijtimoiy birlikni ko'radi. "Biron-bir madaniy-tarixiy shaklga kiruvchi xalqlarning manfaatlari mazkur shaklning manfaatlariga bo'ysunishi lozim, quyi manfaatlar yuqori manfaatlarga xizmat qilishi lozim bo'lganidek..." deb qaraydi Danilevskiy o'z nazariyasida¹.

Madaniyat hodisasiga shu tariqa ilmiy yondashish va unga madaniy-tarixiy jarayon sifatida baho berish aynan Danilevskiy

¹ Qarang: Ионин Л. Г. Социология культуры. Учебное пособие. – М.: Логос. 1998.

tomonidan amalga oshirildi. Danilevskiydan so‘ng bu toifadagi nazariyani O. Shpengler, A. Toynbi kabi olimlar davom ettirishdi.

Shpengler nazariyasi Danilevskiy g‘oyalari bilan ko‘p jihatdan bir-birlariga mos tushsa-da, lekin Shpengler o‘z nazariyasida madaniy-tarixiy shakl tushunchasini ishlatmaydi, aksincha, u sivilizatsiyani rivojlanish natijasida vujudga keladigan bosqich deb, ya‘ni uni madaniyat ketidan keladigan hodisa, jarayon deb biladi. Shpengler yoshini yashab bo‘lgan yoki rivojlanishdan to‘xtab, qotib qolgan 8 ta sivilizatsiyalarni ko‘rsatib o‘tadi. Shpenglarning fikricha, aynan bugungi kunda G‘arbiy Yevropa o‘zining ma‘naviy-madaniy rivoji yo‘lidagi ijodiy bosqichini yakunlab, tugallab bormoqda, shuning uchun u XX asrni Yevropa nihoyasining boshlanishi, deb izohlaydi¹.

I. 6. Kontrmadaniyat va submadaniyat ko‘rinishlari

XX asrning 60-yillari oxirida sotsiologlar jamiyatda va madaniyatda yuz berayotgan jarayonlarni izohlash uchun yangi kontrmadaniyat va submadaniyat tushunchasini fanda qo‘llay boshlashdi. “Kontrmadaniyat – hozirgi zamon sotsiologiyasi va publitsistika sohalarida keng ishlatiladigan, ijtimoiy-madaniy ko‘rsatmalar, qadriyatlarining ma‘lum bir yo‘nalish majmuyini, jamiyat taraqqiyotida amal qilib kelayotgan umuminsoniy madaniyatga qarshi bo‘lgan qadriyatlar majmuyini anglatuvchi tushunchadir. XX asrning 60 – 70-yillarida kontrmadaniyat tushunchasi “isyonchi” (g‘alayonchi) ijtimoiy guruhlar va talabalar qatlamlarining, turli-tuman “kommuna”larning o‘ziga xos ideologiyasi talqini sifatida shakllandi. Kontrmadaniyat ma‘dani-

¹ Qarang: E. Ахмедова, Р. Габидулин. Культуралогия. Мировая культура. – Т.: Акад. Худ. Узб. 2001.

yatni qopol ravishda, injiqlik bilan rad etsa-da, u bu davrda meshchanlik, xudbinliklarning stixiyali isyoni, “ommaviy jamiyat”, “ommaviy madaniyat” qadriyat va yo‘nalishlarining texnokratik varianti sifatida aks ettiradi”¹ (kontrmadaniyat madaniyat niqobi ostida jamiyatdagi mavjud siyosatga qarshi yoki undan qoniqmaslik natijasida manfaatdor bo‘lgan shaxslar, “qora kuchlar” tomonidan sun’iy ravishda vujudga keltirilishi ham mumkin).

Submadaniyat – bu turli ijtimoiy guruhlar madaniyati, deb qaraladi. Submadaniyatga ijtimoiy qatlamlar: shaharliklar, qishloq aholisi, yoshlar, ishchilar, dehqonlar, o‘rta qatlam, quyi qatlam va hatto yuqori qatlam kiradi. Gap shundaki, shu qatlamga kiruvchi kishilar faqatgina o‘zlarining qatlamiga tegishli madaniyatni yoqtiradilar, qolgan qatlamlardagi madaniyat turi ularga begonadek, tushunarsiz ko‘rinadi. Sababi esa submadaniyat har bir o‘ziga tegishli guruhni boshqa guruh madaniyatlaridan “izolatsiya”da saqlaydi. Masalan, eng rivojlangan va faol bo‘lgan yoshlar submadaniyati. Yoshlar submadaniyatining markazini musiqa tashkil qiladi (asosan, pop va rok musiqalari).

I. 7. Ommaviy madaniyat turi

Ommaviy madaniyat – madaniyat mavjudligining murakkab, hamma vaqt bir xilda talqin qilinmaydigan o‘ziga xos shakli. “Ommaviy madaniyat G‘arb madaniyati bilan bog‘liq hodisa deb tushuniladi, shuningdek, u g‘oyasizlik, sifatsizlik va didsizlik namunasi sifatida talqin qilinadi. Ommaviy madaniyat chuqur ijtimoiy va madaniy ildizlarga ega. Ommaviy madaniyat paydo bo‘lishining ijtimoiy-iqtisodiy ildizlari yirik sanoat ishlab chiqarishning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. XX asrda radio, kino, televideniye, video, komputerlar tizimining paydo bo‘lishi nati-

¹ Falsafa qomusiy lug‘at. (Tuzuvchi va mas‘ul muharrir Q. Nazarov). – T.: Sharq, 2004. 199-bet.

jasida ommaviy madaniyat o'z rivojlanishining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Bu bosqichda ko'pchilik uchun maqbul bo'lgan qarashlar va qadriyatlarni shakllantirish imkoniyatlari keskin darajada o'sgani bilan xarakterlanadi. Ommaviy madaniyat xalq madaniyatidan farqli o'laroq nafaqat kosmopolitik va, ayni paytda, umuman milliylikdan uzoq bo'lishi ham mumkin. Ko'pgina hollarda ommaviy madaniyatning u yoki bu namunasining milliy mansubligini faqat uning tili yoki ijrochisiga qarab ajratish mumkin. Elitar madaniyat ko'pchilikka mo'ljallanmagani, tushunish qiyin bo'lgani bilan ajralib turadi. Ommaviy madaniyat insonga xos bo'lgan hissiyotlar: muhabbat, qo'rquv, muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan intilish, g'aroyibotga ishonch va shu kabilarga asoslanishi bilan ustuvorlik qiladi. Shu yo'l bilan ommaviy madaniyat real hayotga qaysidir jihatlari bilan o'xshash bo'lgan, ammo undan, ayni paytda, birmuncha uzoq bo'lgan hayot manzarasini yaratadi¹.

Barcha san'atkorlar, madaniyat namoyandalari aynan shunday «ommaviy» darajada xalqqa tushunarli bo'lishga intilishsalar-da, lekin ommaviy madaniyatga salbiy munosabatda bo'luvchilar bu madaniyat turini rivojlanmagan badiiy didga, sodda, diniy va axloqiy qadriyatlarni yuzaki tushunishga asoslangan, haqiqiy ma'naviy madaniyatni buzib talqin qiladigan hamda yuksak klassik madaniyatni ommaga yaqinlashtirmaydigan, saviyasi past, "egoist" madaniyat, deb izohlaydilar. Odatda, ommaviy axborot vositalari orqali ma'naviy saviyasi past bo'lgan, arzon, qiymati kam madaniyat ko'rinishini omma ongiga singdirib, so'ngra uni sotish yo'li bilan daromad topish maqsadida ommaviy madaniyatdan foydalaniladi.

Ommaviy madaniyatni mahsulot yoki iqtisodiy madaniyat turi deb ham yuritishadi.

¹ Falsafa qomusiy lug'at. (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q. Nazarov). – T.: Sharq, 2004. 313-bet.

Amerikalik sotsiolog D. Bell o'zining "Массовая культура и современное общество" nomli asarida bayon qilishicha, ommaviy madaniyatning qanday bo'lishi kerakligi omma soni yoki xarakteri bilan belgilanmay, balki shu omma a'zolarining aqliy qobiliyatiga, dunyoqarashiga, uning ongi nimani «hazm» (qabul) qila olishiga bog'liq.

Ommaviy madaniyatning asosiy usuli bu tomoshabinlarning sodda ravishda beriluvchanlik his-tuyg'ularidan foydalanishdan iborat, ya'ni chuqur mulohazalantirmaydigan asarlar orqali ularning his-tuyg'ularini "qarmoqqa ilintirish".

Ommaviy madaniyat turi ilk bor XX asrda AQSH industrial va postindustrial sivilizatsiyasining mahsuloti sifatida vujudga keldi.

Ommaviy madaniyatning asosiy shakllariga: vestern, fantastika, erotika, pornografiya, ujas, mistika, melodrama va detektivni kiritish mumkin.

Yuqorida biz XX asr o'rtalarida ommaviy madaniyat kuchli tanqidga uchraganini, uni salbiy madaniyat turi deb baholashganini bayon qilgan edik. Tanqidchilardan, asosan, ingliz yozuvchisi O. Xakslı, nemis faylasufi T. Adorno, ispan madaniyatshunos olimi Xose Ortega-i-Gasset, nemis sotsiologi G. Markuze qarashlari diqqatga sazovordir.

Ommaviy madaniyatni o'rganishdan avval, shu madaniyat iste'molchilari bo'lmish "omma"ning o'zini o'rganib chiqmoq lozim.

XIX asr fransuz psixologi Gustav Le Bon omma haqida keng ma'lumot berib o'tadi. "Le Bon (1841 – 1931) – fransuz psixologi, antropologi, arxeologi. Sotsiologiyada psixologik yo'nalish asoschilaridan biri. Asosiy asarlari: "Materiya evolutsiyasi", "Omna psixologiyasi", "Kuch evolutsiyasi" va boshqalar. Ijtimoiy tarixiy jarayonga qonuniyatli aniq bir maqsadga qaratilgan jarayon va hodisalar sifatida qaradi. Bu qonuniyatli jarayon u yoki bu xalq vakillarida umumiy, o'xshash belgilarni shakllantiradi.

Ana shunday belgilardan biri “xalq ruhi”, uning his-tuyg‘usi, e’tiqodi, tafakkuri, muassasalari, san’ati vujudga keladi. Le Bon sivilizatsiya tarixini elitarizm pozitsiyasidan baholadi va uning istiqbollari oldindan aytishga harakat qildi. Uning fikricha, madaniyat yutuqlari kiborlarning faoliyatiga bog‘liq. Kiborlar ommaga g‘oyalarni singdirish, ta’kidlash, takrorlash va yuqtirish orqali madaniyat yaratadilar. Le Bon demokratiya va tenglik g‘oyalari qarshi chiqdi. Le Bonning fikricha, sanoat, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi va shaharlarning o‘shishi ijtimoiy hayotning tobora ko‘proq ommaga bog‘liq bo‘lishiga olib keldi. Jamiyat omma asriga qadam qo‘yadi, unda “ommaning ongsiz faoliyati” yetakchilik qiladi”¹.

U o‘zining “Психология толпы” nomli asarida bayon qilishi-cha, yirik ommalar jamiyat rivojini, ertangi kunini belgilaydi. Sababi bugungi kunga kelib madaniyat, siyosat yirik ommalar didiga, talabiga moslashib bormoqda, bu esa jamiyatning majruhlanishiga olib keladi.

Parlament tizimi, saylovlar, referendumlar ommani siyosiy kuchga aylantirib qo‘ydi. Bir tomondan, bu demokratiyaga erishish yo‘li bo‘lsa, ikkinchi tomondan, yirik to‘dalar ulkan xavf ham tug‘diradi. Omma esa beriluvchanlikka moyil. Kishi ommaga kirganda o‘z aslini yo‘qotib, shu ommaga moslashadi. Uning ongli ravishdagi MENligi – SHAXSligi yo‘qolib, ongsiz ravishdagi to‘daning bir bo‘lagiga aylanib qoladi. U maxsus yo‘naltirilgan g‘oya va his-tuyg‘ularga, targ‘ibot va tashviqotga tez beriluvchan bo‘lib qoladi. Individ yakka o‘zi bo‘lganda bajarmaydigan noto‘g‘ri xatti-harakatlarni to‘da ichida amalga oshiradi. U o‘zi qilayotgan xatti-harakatiga hamisha ham to‘g‘ri baho bera olmay qoladi. Le Bon so‘zi bilan aytganda, “insonlar to‘da ichida o‘zlarini yakka holatlaridagiga nisbatan yomon

¹ Falsafa qomusiy lug‘at. (Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q. Nazarov). – T.: Sharq, 2004. 217-bet.

tutish xususiyatiga egalar”. “Психология толпы” asarida Le Bon insoniyatning agressiv holatlari bo‘lmish urushlar, inqiloblar, terrorchilik harakatlari haqida fikr yuritib: “Kishi qaysidir muddatga madaniyat ta’siridan chetga chiqar ekan, u bemaol agressiv harakatlarni amalga oshira oladi”, – deb ta’kidlaydi¹.

Diniy nizolar va urushlar motivi haqida so‘z ketganda, Le Bon: “Qirollar Varfolomey kechasini yaratishmagan, diniy urushlarni ham ular keltirishmagan, Fransiyadagi terrorizmni ham Robesper, Danton yoki Sen-Just keltirib chiqarmagan, yuz bergan mudhishliklarning barchasida “to‘da yuragi, to‘da istagi” bor bo‘lgan”, – deb hisoblaydi².

Haqiqatan ham, qirollar, liderlar, yetakchilar yuz berishi kerak bo‘lgan jarayonni faqatgina tezlatishlari yoki sekinlatishlari mumkin, xolos. Individ to‘da ichida o‘zligini yo‘qotib, irodasiz, tafakkursiz bo‘lgan avtomatga aylanadi. Shu yo‘l bilan u o‘zi bilmagan ravishda sivilizatsiyadan bir necha pog‘ona pastga tushgan to‘daning bir qismi bo‘lib qoladi. Oddiy, yakka o‘zi bo‘lgan holatda bu individ madaniyatli inson bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Lekin to‘da – bu varvar. Unda bosh ko‘tarish, agressivlik, shuningdek, g‘ayrat, kuch-qudrat, qahramonlikka moyillik tuyg‘ulari uyg‘onadi.

Ommaviy madaniyatga tanqidiy munosabatda bo‘lgan yana bir madaniyatshunos – bu X. Ortega-i-Gasset. Olim fikricha, XX asr jahonga umuman yangicha sharoitni olib keldi: endilikda kishilar ommasi qat’iyatlilik bilan siyosatga aralashadigan, tarixning yo‘nalishini, madaniyatning taraqqiyot yo‘lini boshqaradigan bo‘lishdi. Omma nafaqat kishilar soni bilan, balki sifat darajasi bilan ham belgilana boshlandi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, omma sifati qay darajada ekanligini aniqlab bo‘lmaydi. U tushunarsiz, noaniq bo‘lib, ko‘p holatda sifat darajasi past,

¹ Qarang: E. Ахмедова, Р. Габидулин. Культуралогия. Мировая культура. – Т.: Акад. Худ. Узб., 2001.

² Qarang: E. Ахмедова, Р. Габидулин. Культуралогия. Мировая культура. – Т.: Акад. Худ. Узб., 2001.

quyi pog‘onaga yaqin bo‘ladi. Omma o‘zlari uchun tushunarsiz bo‘lgan, o‘zlarining ongi qabul qilmaydigan chuqur mazmundagi madaniyat turlariga yoqtirmay qaraydi. Shuning uchun hamisha, elitar madaniyat bilan ommaviy madaniyat o‘rtasida nizo kelib chiqish xavfi mavjud.

G. Markuze ham ommaviy madaniyatni tanqid qilar ekan, jamiyat ommaviy axborot vositalari orqali individga bitta shaklli mahsulotni ustalik bilan zo‘rlab «tiqishtiradi», deb hisoblaydi.

Biroq XX asrning oxiriga kelib ommaviy madaniyatga bo‘lgan munosabat o‘zgardi, unga ijobiy yondashadiganlar soni ko‘paydi. Bu jarayon, avvalo, AQSH va G‘arbiy Yevropada sezildi. Endlikda ommaviy madaniyatga ko‘p sonli kishilarning didi va talabini qoniqtiradigan, ularning madaniyati darajasiga mos tushadigan, ularni qoniqtirib, rohat baxsh etadigan madaniyat vositasi sifatida qaraydigan bo‘lishdi. Amerikalik sotsiolog D. Bell so‘zi bilan aytadigan bo‘lsak, ommaviy madaniyat Amerika jamiyati a‘zolarini birlashtirib, mamlakatda ijtimoiy garmoniyani (xotirjamlikni) o‘rnatdi.

Amerikalik sotsiolog E. Shillz ham ommaviy madaniyatni himoya qiladi. Bugungi kunda G‘arb madaniyatshunosligi va sotsiologiya fanlarida ommaviy madaniyat – bu oddiy ommaviy kishining talablarini qoniqtiruvchi normal holat, degan tushuncha paydo bo‘ldi. Aksincha, yuqori madaniyat namoyandalari o‘z aralashuvlari orqali ommaviy madaniyatning sifat darajasini ko‘tarishga, yaxshilashga urinmoqdalar. Ular, oliy madaniyat ommaviy madaniyatga singish jarayonida uni yuqori darajaga olib chiqadi, deb hisoblashadi.¹

Prezidentimiz I. A. Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida O‘zbekistonda ommaviy madaniyatning xalqimiz ma’naviyatiga zarari xususida batafsil bayon etilgan.

¹ Qarang: E. Ахмедова, Р. Габидулин. Культуралогия. Мировая культура. – Т.: Акад. Худ. Узб., 2001.

I. 8. Kiborlar (elitar) madaniyati turi

Oliy – elitar madaniyat. Elita (fransuzcha *elita* – eng sara, eng yaxshi, saralangan) – har qanday ijtimoiy tuzilmaning boshqaruv jihatlarini muvofiqlashtirish hamda rivojlantirish funksiyalarini amalga oshiruvchi oliy, imtiyozli qatlamdir. Elita haqidagi nazariyalar dastavval Platon, Aristotel, Nitshe va boshqa olimlarning qarashlarida bayon qilingan. Hozirgi G‘arb sotsiologiyasida elita turli xil talqin etiladi. Bunda elita hokimiyatga yo‘nalgan, siyosiy jihatdan eng faol odamlar (Moska), jamiyatda eng ko‘p obro‘, maqom, boylikka ega bo‘lgan, ommaga nisbatan aqliy va axloqiy ustunlikka ega odamlar (X. Ortega-i-Gasset), jamiyatning noijodiy ko‘pchiligidan farq qiluvchi qismi (Toynbi), eng malakali mutaxassislar, menejerlar va boshqaruv tizimidagi oliy xizmatchilardir, deb izohlanadi”¹.

Elitar madaniyati ostida, odatda, an‘anaviy ijtimoiy-gumanitar va ilmiy-texnik (intellektual) madaniyat tushuniladi. Elitar madaniyat – bu kam sonli kishilar madaniyatidir. Bu madaniyat turi oliy ta‘lim-tarbiya ko‘rgan, maxsus tayyorlangan, ijtimoiy va intellektual kelib chiqishi eng sara, yuqori bo‘lgan kishilarga tegishlidir. Boshqacha aytganda, kiborlar – elitar madaniyat jamiyatning imtiyozli tabaqalariga mo‘ljallangan. “San‘at SAN‘AT uchun” qoidasi madaniyatda nafis san‘at, mumtoz musiqa, faqat kiborlargina mutolaa qiladigan badiiy adabiyot namunalari nazarda tutadi. Bunday madaniyat namunalari murakkab bo‘lib, ular maxsus intellektual – estetik maqomga ega bo‘lgan, yuksak did vakillari uchun yaratiladi”².

¹ Sotsiologiya: O‘quv qo‘llanma. Mualliflar jamoasi. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi. 2002. 88-bet.

² Qarang: Al-Buxoriy. Hadis: Al-jome‘ as-sahih (Ishonarli to‘plam). – T., 1997. 410 – 414-bet.

Ziyolilarning elitar madaniyatga bo'lgan munosabatlari turli xildir. Elitar madaniyatda tarbiya topgan mutafakkirlarning bir qismi bu madaniyat turini davrning eng sof madaniyati deb hisoblashsa, boshqa olimlar guruhi bu madaniyat turini umumiy madaniyatning bir yo'nalishi, xolos, deb hisoblaydilar. Ayrim ziyolilar esa bu madaniyat turiga hattoki tanqidiy yondashdilar. Ularning fikricha, ko'p sonli kishilar uchun tushunarsiz bo'lgan har qanday madaniyat jamiyatga nizo, munozara olib kelishi mumkin. Konflikt esa oxir-oqibat madaniy qadriyatlarni yo'q qilish xususiyatiga ega. Lekin shuni unutmaslik kerakki, madaniyat turlari ichida nizo shunday vaziyatda vujudga keladi: bunda kam sonli kishilar madaniyati bilan ko'p sonli kishilar madaniyati uzoq vaqt bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lmaydi.

Kiborlar – elitar madaniyati boshqa madaniyat turlaridan o'zining chuqur mazmunliligi, muammolar mohiyatini ochib bera olishligi, nozik-nafisligi, mulohaza qildiruvchanligi, butunligi, his-tuyg'ularga boyligi bilan farqlanadi. Kiborlar madaniyatiga eng sara adabiyotlar, turli san'at asarlari, falsafa, tabiiy, texnik va ijtimoiy sohadagi ilmiy-nazariy tadqiqotlar kiradi. Bu madaniyat turi o'z ijodkorining jamiyatdagi obro'si yoki ijtimoiy kelib chiqishiga qarab emas, yaratilgan asarning saviyasiga, yetukligiga qarab belgilanadi.

Zamonaviy texnika va texnologiyalar, ommaviy axborot vositalari jamiki madaniyat turlarini, madaniy qadriyatlarni jamiyat a'zolari orasida keng yoyilishi va mustahkamlanishi imkonini beradi. Elitar madaniyat bilan jamiyat a'zolari, ijtimoiy qatlamlarning barchasi o'qish jarayonida, ya'ni bolalik davrida tanishtirilsa, kishilarning qalbida qadriyatlarining barcha turlari shakllanib, umrbod muhrlanib qoladi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, qaysi davrda, qaysi jamiyatda bo'lishdan qat'i nazar, kishilarning o'zlari istagan madaniyat turini tanlash imkoniyatlari erkin bo'lmog'i lozim.

I. 9. San'at va din uyg'unligi

San'at ham madaniyat singari madaniy universal xususiyatga egami? Barcha madaniyatlarda xalq o'z estetik tajribalari bo'lmish go'zallik tuyg'ularini ma'lum bir buyum yoki hodisalar bilan bog'laydi. San'at o'z ichiga vizual, ya'ni ko'z bilan ko'rib anglanadigan san'atni, adabiyot, musiqa va teatr san'atini qamrab olgani sababli, uni ba'zi vaqtlarda "ekspressiv madaniyat" deb ham atashgan. San'at inson tuyg'ulariga nechog'li kuchli ta'sir qilsa, u shunchalik qadr-qimmatli bo'ladi. Qabilalarda o'tkazilgan tomosha-bayramlarda ko'pincha san'at va din uyg'unlashib ketganligi kuzatiladi. Qanday jamiyatda bo'lmasin, san'atning yuksak estetik qadr-qimmatga ega ekanligi unga din bilan tenglashish imkonini beradi.

G'arbga xos bo'lmagan san'atni o'rganuvchilar mahalliy xalqlarga xos bo'lgan individual ijrochilik, hayotni aynan ifodalash uslublarini tanqid qiladilar. Ammo ba'zi tadqiqotchilar mazkur san'at ijrochilari mahoratidagi o'ziga xos nafosatga tan berishadi.

Ko'pgina nog'arbiy jamiyatlar individual artistlarning yutuqlari va muvaffaqiyatlarini tan olishadi. San'at – bu faoliyatdir. To'g'rirog'i, ijodiy faoliyatdir. San'atga qo'yiluvchi umumiy talablar san'atga xos faoliyatning nechog'li qadr-qimmatliligini, mukammaligini baholaydi. Standartlar norasmiy ravishda jamiyat va san'at tanqidchilari, mutaxassislar tomonidan nazorat qilinishi mumkin. Oddiy xalq san'ati va ijodkorligi professional ijodkorlikdan tabiiyroqdir.

San'at jamiyatdagi mavjud madaniyatning bir qismidir. Estetik xulosalar madaniy makonga bog'liq holda vujudga keladi. Madaniyatning sotsiologik nuqtayi nazardan o'rganilishi

natijasida elitar, ommabop xalq san'ati va madaniyatining mavqeyi kuchayishiga olib keldi. Mif, afsona, rivoyat va hikoyalardan bo'lmish madaniy merosning saqlanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Ba'zi manbalarda din ham san'at bilan uyg'unlashgan, degan fikrlar mavjud. Diniy ulamolar diniy va dunyoviy tushunchalarni farqlashsa, san'atda artistik va oddiy ijro tushunchalari farqlanadi.

Agar biz dinga taalluqli bo'lgan biron voqelikka qarasaq, uning san'atga daxldor jihatlarini ko'ra olamizmi? Ko'pgina san'at namunalari din bilan qo'shma ravishda yaratilgan. G'arb san'ati erishgan yutuqlarning eng kattasi ham diniy ilhom bilan yoki din yo'lida yaratilgandir. Fikrimizga dalil sifatida xristianlik cherkovlarida yaratilgan yuksak badiiylik namunalari keltirishimiz mumkin.

Islom dinida ham san'atga bo'lgan va uning natijasida madaniyatga nisbatan bo'lgan munosabatning ijobiyligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Sharq Uyg'onish davri ma'naviy madaniyatida musiqa san'ati o'z o'rniga ega. Garchi islom dini bu san'at turini rag'batlantirmagan bo'lsa-da, ammo uni umuman taqiqlagan ham emas. Imom Buxoriyning "Al-jome as-sahih" (ishonarli to'plam) kitobining 3-jildida bu borada ikkita hadis keltirilib, ularda musiqa tinglash man qilinadi emas, balki uni yengil o'yin-kulgi tarzida targ'ib etmaslik zaruratini anglatish ma'nosi bordir¹.

Ba'zi holatlarda diniy tadbirlar va san'at faoliyati parallel ravishda o'tadi. Demakki, san'at va din ko'phollarda uyg'unlashadi. Mislol uchun, sahnada niqob (maska) va har xil liboslar kiygan ijrochi ruhlarni ifoda etishi mumkin. Ijrochilar maxsus musiqaga

¹ E. Gulmetov va bosh. Madaniyatshunoslik: Ma'ruzalar matni. – T., 2000. 86-bet.

o‘ynashlari, kuylashlari, badanlarini bo‘yashlari va ekspressiv madaniyatning boshqa turlarini ijro etishlari mumkin.

Estetik qadr-qimmat san‘atning xususiyatlaridan biridir. Ikkinchi sifat esa joyning to‘g‘ri tanlanishidir. Biz san‘atni his qiladigan ba‘zi maxsus muassasalar borki, ular jumlasiga muzey, konsert zali, opera uylari va teatrlar kiradi. Agar biror-bir narsa, buyumni muzeyda yoki ma‘lum bir badiiy muassasada ko‘rsak, uni, shubhasiz, san‘at namunasi deb o‘ylaymiz. Lekin shu bilan birgalikda, biror-bir ijod mahsulining san‘at namunasi sifatida qabul qilinishi ham anchayin munozarali bo‘ladi. Bizning jamiyatda muzeylar odamlarni ijodkorlikka va yangilikka intiluvchanlikka undashda, ijtimoiy me‘yorlarni tartibga solishda bevosita ishtirok etadi. Qabila va urug‘larda muzeylar bo‘lmagan, ammo ularda badiiy namoyishlar o‘tkaziladigan joylar bo‘lgan.

Xullas, din hayotni muqaddas shaklda tasvirlovchi g‘oyalarni yaratdi: falsafa-teologiya, adabiyotda ilohiy, didaktik janrlar; Yevropa musiqasida cherkov gimnlari – liturgiya va messa; tasviriy san‘atda xristianlik sujetlari asosiy o‘rinni tutdi.

Ilohiyot olam va inson haqidagi o‘z “ilmiy” manzarasini yaratdi. Masalan, o‘rta asrlarda asosiy mavzu Xudoni kuylash, Injil asotirlari, avliyolar hayoti, ruhiy-axloqiy poklanish, gunohdan mag‘firat bo‘lish aqidalaridan iborat edi. Musiqaviy madaniyat negizini cherkov qo‘shig‘i (liturgiya), musiqa, she‘riyat va drammaturgiyani o‘zida uyg‘unlashtirgan cherkov tantanalari tashkil etdi.

Islomda olamning mohiyati, asl hayot haqiqatini naqshlarda muhrlangan belgilarida ifodalashga e‘tibor qaratilgan. Mahobatli me‘morchilik yodgorliklarini betakror go‘zallik timsollariga aylantirgan, ixlosmandlarning nafaqat ko‘zini, balki qalbini ham quvontiradigan murakkab geometrik shakllar, o‘simliklar shakli ifodasi, qo‘lyozma, amaliy bezak, naqshlar san‘ati asosida islomiy ramz tasvirlari yotadi. Jumladan, uchburchak – Ollohning

nazari; to‘rtburchak – musulmonlarning muqaddas manzilgohi – Ka‘ba; beshburchak – dinning 5 asosiy arkoni; jimjimador o‘simliksimon shakl va gullar – jannat bog‘i; havorang – poklik, tozalik, osmon; to‘lqinli chiziq – suvni, sariq rang quyosh ramzini bildiradi»¹.

Savol va topshiriqlar:

1. Madaniyat sotsiologiyasi fanining mazmun va mohiyati nimadan iborat?
2. Madaniyat sotsiologiyasining ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bog‘liqligi nimada ko‘rinadi?
3. “Madaniyat” hodisasiga ta‘rif bering. “Madaniyat” hodisasining ko‘p qirrali ekanligini izohlang.
4. Madaniyat strukturasi nimalar kiradi?
5. Moddiy madaniyatning asosiy kategoriyalarini sanab bering. Ma‘naviy madaniyat turlarini ko‘rsating.
6. “Madaniyat” va “sivilizatsiya” tushunchalarining o‘zaro munosabati.
7. Madaniyatshunos olim Shpenglarning sivilizatsiyaga bo‘lgan munosabatini bayon eting.
8. Sivilizatsiyaning asosiy belgilari qanday?
9. Yevropa mutafakkir, olimlarining sivilizatsiyaga va madaniyatga bergan baholari? Ular qarashlaridagi farq nimada ko‘rinadi?
10. Qadriyatlar shakllanishidagi jahon dinlarining o‘rni haqida Yaspers qarashlari?
11. Madaniyat yo‘nalishlariga nimalar kiradi?
12. Submadaniyat va kontrmadaniyat nima?
13. “Ommaviy madaniyat” deganda nimani tushunasiz? Lebon va Ortega-i-Gasset qarashlarini bayon eting.

¹ Qarang: Конт О. Курс позитивный философии // Родоначальники позитивизма. Вып. 4. – СПб, 1912. 19 стр.

14. Kiborlar (elitar) madaniyati nima? Qanday holatda kiborlar va ommaviy madaniyat o'rtasida konflikt (nizo) chiqishi mumkin?
15. Ommaviy madaniyatning yutuq va kamchiliklari nimada?
16. Madaniyat antropologiyasi va etnografiyasida jamiyatning evolyutsion bosqichlari.
17. Madaniyat va jamiyat hayotida madaniy universalialarning evolyutsion bosqichlari.
18. Inson ijtimoiylashgan mavjudot ekanligi nimalarda ko'rinadi?

Adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Istiqlol va ma'naviyat. – T.: O'zbekiston, 1994.
2. Abdullayev N. San'at tarixi. T 1. – T.: O'qituvchi, 1987.
3. E. Ахмедова, Р. Габидулин. Культурология. Мировая культура. – Т.: Акад. Худ. Узб. 2001.
4. Gulmetov E., Qobiljonova T., Ernaharov Sh., Mavrulov A. Madaniyatshunoslik: Ma'ruzalar matni. – T., 2000.
5. G'arb falsafasi. (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q. Nazarov). – T.: Sharq, 2004.
6. Данилевский Н. Я. Россия и Европа. – М., 1995.
7. Ионин Л. Г. Социология культуры. Учебное пособие. – М.: Логос, 1998.
8. Искусство стран и народов мира. Архитектура. Живопись. Скульптура. Графика. Декоративное искусство. Краткая Художест. Энцикл. – М., 1962.
9. Sotsiologiya: o'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.
10. Ортега-и-Гассет Х. Восстание масс. – М., 1991.
11. Шпенглер О. Закат Европы. М., 1993.

II BO‘LIM. SOTSILOGIYA NEGIZIDA MADANIYAT

II. 1. Ogyust Kont talqini – bu... madaniyatmi yoki sotsiologiya?

Sotsiologiya fani shu fanning otasi hisoblanmish Ogyust Kont nomi bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Kont sotsiologiyani jamiyat haqidagi pozitiv fan bo‘lib, sotsiologiya jamiyatning ijtimoiy holatini tabiiy qonuniyatlar asosida o‘rganadi, deb hisoblaydi. Ammo shu bilan birgalikda, olim jamiyat rivojida madaniy qonuniyatlar ham katta ahamiyatga ega bo‘lganligini inkor etmaydi. Sotsiolog olim insoniyat jamiyati haqida gapirar ekan, uni hamisha tirik organizmga, jamoa ruhiga tenglashtirishdan charchamaydi. Kont sotsiologiyani “jonli jismlar” haqidagi fanlar qatoriga kiritadi. U o‘zining sotsiologik qarashlarida jamiyatni tafakkur shakllari vositasida rivojlanib boruvchi bir organizm, deb hisoblagan. Har qanday tafakkur rivoji esa o‘zi shakllanayotgan muhit madaniyatidan sug‘oriladi va o‘sib-unadi. U ijtimoiy hayotda oila, tabiiy muhit, urushlar, madaniyat, san’at, iqtisodiy ishlab chiqarish rivoji va boshqa jarayonlarni tahlil qiladi.

Kontning fikricha, jamiyatni rivojlantirish jarayoni sari yetakluvchi asosiy kuch – bu “taraqqiyot ruhiyati”dir. Aslida, bu kuch insoniyat tafakkuri taraqqiyotidir. Inson bilimi, tafakkuri oldinga qarab harakat qiladi. Shuning uchun u o‘z tarixiga ega. Insoniyat tafakkuri o‘z taraqqiyoti jarayonida uch bosqichni bosib o‘tgan va quyidagi qonuniyatning ochilishiga olib kelgan: ilohiyot (teologik) yoki yolg‘on (fiktiv) bosqich, metafizik yoki mavhumlashgan bosqich va pozitivizm yoki ilmiy bosqichlar. Bu uch bosqich haqida O. Kont o‘zining mashhur “Uch stadiya qonuni” asarida batafsil to‘xtalib o‘tgan. Kont ta’riflab bergan bu

qonuniyatlar oddiylikdan murakkablikka o'tib borgani singari, ijtimoiy rivojlanishning barcha jabhalarini ham o'zlari singari o'zgartirib, rivojlantirib bormoqda.

Birinchi teologik davrda inson aqli hodisalarining g'ayritabiiy kuchlarini Xudoning ta'siri bilan izohlashga uringan. Bu bosqichni Kont uch davrga bo'ladi: fetishizm davri, politeizm davri va monoteizm davri. Bu uch davr ichida monoteizm davri ahamiyatliroq. Sababi aynan shu davrga kelib xristianlik davri, ya'ni yakkaxudolik davri boshlanadi. Yakkaxudolik insonlarning olamga, hayotga, an'ana va urf-odatlariga, marosimlarga, axloq va odobga, turmushga, siyosatga bo'lgan munosabatlarini butunlay o'zgartirib yubordi.

Kontning fikricha, metafizik dunyoqarash teologik dunyoqarashning o'zgargan shaklidir. Metafizik dunyoqarashga ko'ra, barcha hodisalarning asosini abstrakt (mavhum) metafizik mohiyatlar tashkil etadi. Bu bosqichda odamlar hamma hodisalarni turli mohiyat va sabablarining ta'siri bilan izohlaydilar.

"Pozitiv bosqichda hamma narsalar fan nuqtayi nazaridan izohlanadi. Kont insoniyat jamiyati rivojining bu bosqichlarini har tomonlama tahlil qiladi. Birinchi bosqichda tasavvurlar hukmron bo'lib, bilim juda cheklangan. Odamlar hodisa va narsalarning mavjudligini xudolar va ruhlarning mavjudligi bilan bog'laydi. Bunda nufuz va monarxiya hukmron. Metafizik bosqich mohiyatlarining namoyon bo'lishi sifatidagi turli kuchlarning faoliyati bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda nufuzlar obro'siga putur yeta boshlaydi. Insonda xudbinlik (egoizm) kuchayib, jamiyat bilan aloqasi susaydi. Sezgining ahamiyati susayib, uning o'rniga aqlning ahamiyati ortib boradi. Bu bosqichda monarxiya o'rniga xalq hokimiyatini o'rnatishga intilish yuzaga keladi. Uchinchi bosqichda jamiyat sotsiologiya (sotsial fizika) fanlari beradigan ijobiy bilimlar asosida qayta quriladi. Pozitiv (ijobiy) fanlar tabiat va jamiyat qonunlari tartibini aniqlash bilan shug'ullanadi. Bu bosqichda oldingi bosqichlarda

mavjud bo‘lgan nazariya va amaliyot o‘rtasidagi ajralish tugatiladi. Jamiyat taraqqiyotini belgilaydigan asos – bu bilim taraqqiyotidir.

Shuningdek, Kont “insoniylik dini” deb ataluvchi din yaratish tarafdori bo‘lgan”¹.

Agarda biz madaniyat hodisasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki uni sotsiologik nuqtayi nazardan yondashib o‘rgansak, unda madaniyat hodisa, jamiyat hayotini “chetdan kuzatuvchi” kamtarininga ijtimoiy holat bo‘libgina qolmasdan, balki undan ham ko‘proq kuchga ega bo‘lgan jaryon ekanini bilishimiz mumkin. Ya’ni u turli g‘oyalar va qadriyatlar paydo bo‘lishiga, ularning jamoatchilik tomonidan faol yoki nofaol tarzda tan olinishiga sabab bo‘luvchi, jamiyatda va kishi dunyoqarashida yetakchi o‘rin egallagan hodisa ekanligini ko‘ramiz. Demak, madaniyat sotsiologik nuqtayi nazardan qaralganda, jamiyat a’zolari tafakkurida paydo bo‘lgan va shu insonlar tomonidan inobatga olinadigan har qanday fikr holatini bildiradi. Jamiyat esa aynan ushbu *fikr holati* vujudga keltirgan madaniyat, ya’ni “*oldinga yetaklovchi (representativ) madaniyat*” ichida yashaydi.

Kontning rivojlanishning uch stadiya qonuniyatiga, ya’ni bosqichiga qaytadigan bo‘lsak, bu qonuniyat biz yuqorida aytib o‘tgan jamiyat a’zolari ongida paydo bo‘lgan va insonlar tomonidan inobatga olingan fikr holatidan o‘zga narsa emasligini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni Kontning jamiyat rivojidagi uch bosqich haqidagi qarashi kishilar ongiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan “oldinga yetaklovchi (*representativ*) madaniyat”ning natijasi yoki, boshqacha aytganda, ushbu “yetaklovchi (*representativ*) madaniyat”ning davomiyligidan kelib chiqqan rivojlanish bosqichlaridir, xolos. Kitobxon uchun yanada tushunarliroq bo‘lishi uchun yuqoridagi fikrni tahlil qilib ko‘ramiz. Ilohiyot (teologik) bosqichida *olamni diniy tarzda talqin qilish g‘oyasi* ushbu jami-

¹ Falsafa qomusiy lug‘at. (Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q. Nazarov). – T.: Sharq, 2004. 203-bet.

yat a'zolari tomonidan qabul qilinganligi uchun ham bu g'oya yashadi, bu g'oya asosida olamni ilohiy qabul qilishning yangicha ko'rinishlari vujudga keldi hamda turli ijtimoiy xatti-harakatlar va ijtimoiy institutlarning asosi sifatida qabul qilindi. Chuqurroq e'tibor bersak, ushbu g'oya kishilar ongida, yuqorida aytilgandek, fikr holati sifatida vujudga kelgan edi. Lekin bu *fikr holatini* vujudga keltirgan kuch esa aynan "oldinga yetaklovchi (reprezentativ) madaniyat"ning natijasi bo'lganligini ko'rish mumkin. Metafizik bosqichda esa insonlar olamni hodisalarning turli mohiyati va sabablari orqali tushunishni istaganliklari uchun ham tanqidiy va skeptik nuqtayi nazarda fikr yuritishgan. Bu istak ham teologik bosqichda bo'lgani kabi kishilar ongida "oldinga yetaklovchi (reprezentativ) madaniyat"ning turtkisi bilan vujudga kelgan fikr holati natijasidir, deyish to'g'ri bo'ladi. Uchinchi – ilmiy yoki pozitiv bosqichda jamiyatning ijtimoiy holatini tartibga soluvchi kuch, g'oya (bu kuch ham "oldinga yetaklovchi (reprezentativ) madaniyat"ning natijasi o'laroq vujudga kelgan kuchdir) bu ilm bo'ladi.

Agarda madaniyatga sotsiologik nuqtayi nazardan yondashil-sa, ilohiy yoki metafizik bosqichdagi dunyoqarash va g'oyalar noto'g'ri bo'lmaganligini, ular bor-yo'g'i shu davrdagi vaqt va zamon talablariga javob bergan va o'z javoblari bilan ularni (teologik davrni) qoniqtira olgan fikr holati ekanligini ko'rishimiz mumkin. Fikr holati esa, ta'kidlab o'tganimizdek, "oldinga yetaklovchi (reprezentativ) madaniyat" natijasidan o'zga narsa emas. Demak, bunday ko'rinishdagi g'oyalar va yetakchilik xususiyati bilan sug'orilgan madaniyat ("oldinga yetaklovchi madaniyat") jamiyatga, uning a'zolari ongiga, dunyoqarashiga ta'sir ko'rsata olar ekan, tabiiyki, u o'z-o'zidan ijtimoiy xatti-harakatlarning asosi bo'lib qoladi va, o'z navbatida, ushbu jamiyat kishilari ongiga qanday ta'sir ko'rsatsa, xuddi shunday javob oladi. "Noto'g'ri" madaniyat bo'lmaganidek, madaniyatdan kelib

chiqqan dunyoqarashning va undan kelib chiqqan ijtimoiy xatti-harakatlarning ham noto'g'risi bo'lmaydi. "Oldinga yetaklovchi (reprezentativ) madaniyat" bilan sug'orilgan dunyoqarash va bu dunyoqarashdan kelib chiqqan g'oyalari kishilarning ijtimoiy xulqiga ta'sir ko'rsatadi. Tabiiyki, jamiyatda qat'iy qaror topgan qonun-qoidalar asosida tuzilgan ijtimoiy tuzum, ijtimoiy institut va ijtimoiy faktlar aynan ana shu madaniyatning hosilasi bo'ladi. Madaniyat hodisasiga va jamiyat tuzulishiga shu nuqtayi nazardan qaralsagina, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yib o'rganish bema'nilik ekanligini ko'rishimiz mumkin. Madaniy yondashuv ham, ijtimoiy yondashuv ham, aslida, bir jarayonga bo'lgan ikki xil yondashuvdir, xolos. Ijtimoiy hayotni empirik tahlil qilib ko'rsak, ijtimoiy qismni madaniy qismdan umuman ajratib bo'lmaydi. Ular bir-biri bilan "ipsiz" bog'langan.

Ogyus Kont o'zining "Pozitiv falsafa kursi" asarida jamiyatni "tirik sotsial organizm"ga¹ tenglashtiradi. Har qanday sotsial organizm esa ijtimoiy hayotning barcha sohalarini o'zgartira oladigan turli qarashlarga, fikrlarga asoslanadi. Lekin duch kelgan qarashlarga va fikrlarga emas, balki, aksincha, aynan ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga ta'sir ko'rsata oladigan kuchli qarashlarga ahamiyat beradi. Ana shunday kuchli qarashlar va fikrlarni nemis faylasufi F. Tenbruk intellektuallar yoki madaniy ekspertlar², deb ataydi. Tarixiy davrlardan buyon har qaysi jamiyat o'zining madaniy ekspertlariga ega bo'lgan va ular ketidan ergashgan. Masalan, ilk ibtidoiy jamiyatlarda ijtimoiy-madaniy ekspertlar sifatida sehrarlik, sehrarlarining o'zlari, shamanlar, jodugarlar; teologik (ilohiy-diniy) bosqichda ruhoniylar, qohinlar, din namoyandalari; metafizik bosqichda tanqidchi va skeptik bo'lgan ilk faylasuflar; ilmiy bosqichda esa olimlar,

¹ Qarang: Конт О. курс позитивный философии // Родоначальники позитивизма. Вып. 4-СПб, 1912.

² Qarang: Tenbruck F. H. Repräsentative Kultur // Sozialstruktur und Kultur / Hrsg. Von H. Haferkamp. – Frankfurt am Main: Suhrkamp, 1990.

ma'rifatparvarlar hisoblanib kelishgan. Ammo shunga e'tibor berish lozimki, ularning barchasi hamisha kuchli mafkurachilar, yetakchilar bo'lishgan. Ular doimo o'z davrlarida hukmronlik qilayotgan har qanday fikrga va mafkuraga qarshi tura olishgan va taraqqiyot sari yetaklaydigan yangi g'oya, qarashlarini jamoatchilikka yetkaza olishgan. Tabiiyki, ularning "so'z"lari butun bir jamiyatning (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va hokazo sohalarni) ham o'zgarishiga olib kelgan. F. Tenbruk tili bilan aytganda, aynan ana shu intellektuallar yoki madaniy ekspertlar "oldinga yetaklovchi madaniyat"ni yaratishgan va o'zlari ham ana shu madaniyat hosilasi va mevasi bo'lishgan. Biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, madaniyat "noto'g'ri" bo'lmaydi, chunki madaniyat qanday ko'rinishda namoyon bo'lsa, jamiyat ham shunday ko'rinishga ega bo'ladi, jamiyat ni-mani talab qilsa, madaniyat ham aynan shuni beradi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan shuni xulosa qilsa bo'ladiki, jamiyatdagi ijtimoiy taraqqiyot va shu jamiyatdagi madaniyat bir-birini to'ldirib boradi. Biri ikkinchisini yetaklamaydi, boshqarmay-di, aksincha, ular birgalikda faoliyat yuritadi, birgalikda yashaydi va birgalikda ijod qiladi. Ular bir-birini yaratadi, ular o'rtasida o'zaro moslik, "ipsiz" bog'langanlik xususiyati mavjud. O. Kont esa insoniyatning taraqqiyot yo'lini biroz boshqacha baholagan, u insoniyatning boshlang'ich rivojlanish yo'lini (teologik va metafizik bosqichni) "yolg'on", "noto'g'ri" va "fiktiv"¹ deb atagan (2-bo'lim 1-§ ga qarang). Olim madaniyat va jamiyatning bir-biri bilan "ipsiz" bog'langanligini, insoniyatning boshlang'ich rivojlanish bosqichi bekorga shu yo'sinda ro'y bermaganligini, shu davrning o'zi, shu davr kishilarining o'zlari aynan ana shunday fikrlashni va rivojlanish yo'lidan borishni istagan bo'lishlari mumkinligini inobatga olmaydi. "Oldin-

¹ Qarang: G'arb falsafasi. (Tuzuvchi va mas'ul muharir Q. Nazarov). – T.: Sharq, 2004. 520-bet.

ga yetaklovchi madaniyat” qanday bo‘lsa, jamiyat ham shunday ko‘rinishga ega bo‘ladi. “Oldinga yetaklovchi (reprezentativ) madaniyat” esa jamiyatning, jamiyat a‘zolarining xohish va istagidan bunyod bo‘ladi. Kont esa ijtimoiy hayotni “haqiqiy”, “chin” tanish yo‘lini ilmda, ya’ni pozitiv yo‘lda, deb biladi¹.

II. 2. An’anaviy sotsiologiya ko‘rinishi bo‘lmish obyektivizm sotsiologiyasi

Kont olib borgan munozaralarga chuqurroq nazar tashlansa, unda ikki xil tendensiya mavjudligini ko‘rish mumkin. Ulardan biri bu obyektivizm sotsiologiyasi (taraqqiyotni ijtimoiy anglash g‘oyasi asosida o‘rganadigan) bo‘lsa, ikkinchisi esa yuqorida biz “oldinga yetaklovchi madaniyat” yordamida ko‘rib chiqqanimiz – sotsiologiyaning madaniy-tahliliy analiz tendensiyasidir. Sotsiologiya rivojini tahlil qilish jarayonida bundan buyon ushbu ikki xil tendensiyaga ko‘p bor murojaat qilamiz. Bugungi kunga kelib, sotsiologiya sohasida amaliy jihatdan kuchga ega bo‘lgan obyektivizm yanada qat’iylashib bordi. Obyektivizm sotsiologiya va boshqa ijtimoiy fanlarning mafkurasiga aylanib qoldi. Unga ko‘ra, jamiyat qat’iy bo‘lgan obyektiv faktlar asosiga qurilgan. Bu mafkuraga ko‘ra, jamiyat ham, uning tizim va tuzilmalari ham hamisha mavjud bo‘lgan. Ular o‘zlarini tashkil qilgan kishilarga ham, g‘oyalarga ham, dunyoqarash va turli yondashuvlarga ham bog‘liq bo‘lmasdan, mustaqil taraqqiy etgan va rivojlangan.

Lekin shu bilan birgalikda, sotsiologiyada madaniy-tahliliy analiz jarayoniga ham katta e’tibor berilgan. Bu jarayonni o‘rganishga klassik sotsiolog olimlardan, asosan, Maks Veber,

¹ Kont nuqtayi nazari bo‘yicha, “pozitiv” bilim yolg‘onchilikka qarshi haqqoniylik, keraksizlikka qarshi foydalilik, shubhalilikka qarshi ishonchlilik, noaniqlikka va mavhumlikka qarshi aniqlik, salbiylikka qarshi ijobiylik.

Georg Zimmel kabilar qiziqishgan. Maks Veber sotsiologiyaga, uning rivojlanish va yashash sirlarini o'rganishga bag'ishlangan o'z konsepsiyasini yaratishda madaniyatga katta e'tibor bergan va unga asoslangan. U, sotsiologiyani individlarning *ijtimoiy* xulqini o'rganuvchi fan, deb taniydi. Va shu asosida individlarining o'zini, ularning xususiyatlarini o'rganadi. O'z izlanishlarida Maks Veber insonni madaniy mavjudot, deb hisoblaydi. Insonni hayvondan ajratib turuvchi ijtimoiy xulqning o'ziga xosligi shundaki, unda harakatlarni ongli holda anglash va o'z harakatlariga javob bera olish holati mavjud.

II. 3. Veber sotsiologiyasida madaniyat yoki olamni bilishda “tushunarli sotsiologiya”ning o'rni

Kont davridan buyon sotsiologiyaning obykti va predmetini o'rganish uchun, jamiyat qanday tuzilganligini tushunish uchun bo'lgan urinishlar bu fan negizida bir necha maktab va oqimlar vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Lekin ularning aksariyati sotsiologiyani tabiiy fanlar qonuniyati asosida o'rganishni va uni mu-rakkab tizim asosida rivojlanayotgan jarayonlarni o'rganadigan fan deb topishni taklif qilishsa, qolganlarida esa “jamiyat – bu tabiiy biologik asosga tenglashtirilmaydigan alohida turdagi ijti-moiy-madaniy borliqdir, deb ko'rsatiladi. Inson shunday mavju-dotki, uning yashash tarzi, ijtimoiy sharoitlari jamiyatdagi mavjud axloq va madaniyat me'yori bilan chambarchas bog'langan. Jamiyatga nisbatan berilgan bu tarzdagi ta'rifga nemis olimi Maks Veberning ham qarashlari mos tushadi. Shuning uchun ham uning tadqiqotlaridan biz Yevropa madaniyatining jamiyatda tutgan o'rni haqida, shuningdek, ratsional madaniyatni yuzaga kelishi uchun kerak bo'ladigan omillar haqida ko'pgina ma'lumotlar olishimiz mumkin. Veber nuqtayi nazariga ko'ra,

madaniyat va jamiyat haqidagi barcha bilimlar qadriyatlar tushunchalariga asoslangan.

“Veberga ko‘ra, faktlar bilan qadriyatlar orasida, ya’ni ularning borligi bilan qanday bo‘lishi lozimligi orasida fundamental farqlar mavjud. Olim sifatida biz qadriyatlar xususida emas, faktlar (ya’ni qadriyatlar amalda insonlar tomonidan qanchalik qadrlanib, rioya etib kelinayotganligi) haqida gapirishimiz mumkin. Albatta, biz odamlar qanday qadriyatlarni tan olishini tadqiq etishimiz mumkin. Bu – empirik savol. Veber biz qadriyatlarga nisbatan muayyan siyosiy yoki axloqiy pozitsiyani egallamasligimiz kerak, demaydi. Agar biz shunday pozitsiyani egallasak, bu bizning olimlar sifatida emas, balki fuqaro sifatidagi nuqtayi nazarimiz bo‘ladi. Demak, bu ikki sohani aralashtirmasligimiz lozim, ya’ni ilmiy nuqtayi nazarni bayon qilish bahonasida ma’ruza paytida siyosiy tashviqot olib bormasligimiz kerak. Fan muayyan maqsadga erishishimiz uchun qanday vositalar qo‘l kelishi haqida bizga ma’lumot berishi mumkin, albatta. Biroq ana shu axborotga ega bo‘lishi bilanoq, tanlovni shaxsning o‘zi amalga oshirishi kerak. Veberning ilm-fan qadriyatlari erkinligi to‘g‘risidagi tezisining ma’nosi – shunda. Haqiqiy ilm faqat mavjud narsalar haqida fikr yuritadi, taxminiy narsalarni rad etadi. Har birimiz ilmda o‘zimiz uchun ahamiyatli bo‘lgan haqiqatni izlaymiz, deb hisoblaydi olim”¹.

Shuningdek, Veber sotsiologiyaning asosida xatti-harakatlar yotadi, deb hisoblaydi. Veber xatti-harakatlar bilan ijtimoiy xatti-harakatlarning o‘rtasidagi farqlarni ochib berishga intiladi. Olimning nazdida, harakat – bu kishilarning o‘z harakatlariga ma’no va mazmun bag‘ishlash jarayonlaridagi faoliyatlari. Ijtimoiy harakat esa kishilarning o‘z harakatlarini boshqalarning harakatlariga asoslangan holda, ular harakatiga tayangan holda

¹ Skirbek, G., Gile N. Falsafa tarixi: oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘ll. – T.: Sharq, 2002. 607-bet.

qurishlari. Masalan, yo‘lda ketayotgan velosipedchi biron narsaga urilib ketsa va yo‘lida davom etsa, bu oddiy harakat bo‘ladi. Lekin ketayotgan velosipedchilar ikkita bo‘lib, ular bir-birlariga to‘qnashib ketishsa va bu vaziyatdan birgalikda chiqishga harakat qilib, uning yechimini topishga harakat qilishsa, unda bu harakat ijtimoiy harakat bo‘ladi¹. Biron-bir hodisa va vaziyat kelib chiqishining asl sababini, uning maqsadini aniqlash hamda uni bartaraf etish yoki uni tushunishga intilish – bu sotsiologiyaning asosiy vazifasidir. Veber bu ta‘limotni sotsiologiya fanida keng qo‘llashga harakat qiladi. Sotsiologiyaning asosi bo‘lmish jamiyatni, uning tuzilishini, rivojlanish va amal qilish mexanizmini o‘rganar ekan, olim jamiyat ichki tuzilmalarida yuz berayotgan har bir o‘zgarishlarni tushunish lozimligini, bu o‘zgarishlar nima uchun ro‘y berganligini, ularga nima sabab bo‘lganligini va ular qaysi yo‘l bilan o‘zgarib borayotganligini izohlab berishga harakat qiladi. Natijada Veber o‘z ilmiy izlanishlarida “tushunarli” sotsiologiyani yaratadi. “Tushunarli” sotsiologiya juda keng qamrovli bo‘lib, u sotsiologiya fanida uchraydigan barcha savollarga izoh talab qiladi. “Tushunarli” sotsiologiya bo‘yicha, hech narsa shunday yuz bermaydi va jamiyat ham, uning rivojlanishida amal qiladigan qonuniyatlar ham, tabiiy fanlarda bo‘lgani kabi faqat obyektiv yo‘nalishda rivojlanmaydi. Aksincha, jamiyat tirik, u boshqaradi va boshqariladi, unda hech qanday jarayon o‘z-o‘zidan yuz bermaydi. Barcha yuz bergan hodisalarga javob mavjud bo‘lib, bu javobni ko‘rish va tushunish lozim. “Tushunarli” sotsiologiya orqali jamiyatda yuz beradigan barcha jarayonlar tahlil qilinib, uning natijasida madaniyatning ham roli borligi o‘rganilib chiqiladi.

Veber talqiniga ko‘ra, jamiyat – insonlar harakatining natijasi, mahsuloti, kishilar tomonidan yaratilgan sun‘iy jarayon,

¹ Qarang: Вебер М. Избранные произведения. – М.: Прогресс, 1990. 602 – 603 стр.

* Fenomenal sotsiologiya ko‘rinishlaridan bo‘lib, jamiyatni individlarning doimiy ma‘naviy hamkorligi natijasida paydo bo‘luvchi hodisa sifatida ko‘radi.

odamlar ijtimoiy xatti-harakatining mevasi, xosilasidir. Yanada yorqinroq tilda aytadigan bo'lsak, jamiyat – madaniyat mevasi va mahsulidir. Veber, Kont singari jamiyatni tabiatning davomi, tabiiy fanlar o'rganadigan tabiatning bir qismi sifatida olib qaramaydi. Shuning uchun ham biz jamiyatni ilmiy o'rganishda ehtiyotkorlik bilan yondashib, uni madaniyat mevasi, hosilasi va mahsuli sifatida o'rganishimiz lozim.

Inson har qanday madaniyat mahsulini o'rganishi uchun tabiiy fanlarning empirik metodlaridan foydalanishi mumkin, deb hisoblaydi fransuz sotsiologi Emil Dyurkgeym. Lekin shuni unutmashlik kerakki, biz qanchalik madaniyat mahsulotlarini, san'at asarlarini analiz qilib o'rganmaylik, ularning asl mazmunini va mohiyatini aynan MADANIYAT mevasi sifatida ochib bera olmaymiz. Konsert zalida yangrayotgan simfonik musiqiy asarning tinglovchilar kayfiyati bilan qanchalik uyg'unlikka erisha olganligini yoki bo'lmasa, "Mona Liza" asarining nozik chizgilarini qanchalik chuqur va empirik tadqiq qilmaylik, baribir, biz musiqaning va tasviriy san'atning o'ziga xoslik jihatini, estetik va ma'naviy-madaniy mazmunini, qiymatini ochib ham berolmaymiz, tahlil ham qila olmaymiz. Xuddi shu xulosani biz texnik qurilmalarga, inshootlarga, mehnat qurollari va uskunalariga ham qo'llashimiz mumkin. Masalan, o'q otuvchi tank bilan yo'lovchi tashuvchi transport turlarining texnik qurilmasi bir-biriga yaqin bo'lsa-da, lekin ular bajaradigan ma'naviy-madaniy vazifalarning mazmuni butunlay o'zgachadir. Demak, Dyurkgeym tabiiy fanlarning empirik metodlariga juda yuqori baho berib yuborganligi ko'rinib turibdi. Empirik analiz va tadqiqotlar nafaqat ma'naviy madaniyat, balki sun'iylikka yaqin bo'lgan moddiy madaniyatning ham asl qiymatini, uning tub mohiyatini ochib bera olmas ekan. Bugungi kunga kelib hattoki kelib chiqishi jihatidan tabiiy bo'lgan hodisalar ham ijtimoiy hayotga, ya'ni madaniy muhitga tushishlari bilan, o'z tabiatida shunday nozik o'zgarish va xususiyatlarga ega bo'lib bormoqda-

ki, ularni hech qanday tabiiy-ilmiy metodlar analizi bilan aniqlab bo'lmaydi. Shuning uchun ham na botanika, na geografiya, na geodeziya va na boshqa ilm sohasi nima uchun o'rmonzor bir vaqtning o'zida ham ruhiy dam olish maskani, ham xo'jalik uchun foydali obyekt bo'la olishini tushuntira olmaydi.

Agarda sotsiologiyaga ham tabiiy-ilmiy metodlarga va empirik ma'lumotlarga asoslangan fan sifatida bir yoqlama yondashilsa, unda kishilik jamiyatining madaniy mohiyati va mazmuni yo'qoladi. Sotsiologiya tabiiy-ilmiy metodlarga va empirik ma'lumotlarga asoslangan fan sifatida o'rganilsa, uning obyektini biologik va tabiiy fanlarning obyektini bilan bir xil bo'lib qoladi. Ya'ni tabiat qo'ynida yashash tarzi mukammal darajada rivojlangan va birodarlikda yashashga moslashgan hayvonlarni nazarda tutsa bo'ladi. Masalan, chumolilar uyasi va birodarligi, asalarilar to'dasi, hasharotlarning o'zaro jipslikdagi harakatlari va hokazo. Hayvonot olamining bu yo'sindagi rivojlanish jarayonlarini o'rganish uchun funksional analizlardan, ularning birodarlik darajasi qanday qoida bilan boshqarilishini o'rganish uchun tadqiqot usuli va uslublaridan, empirik metodlardan foydalansa bo'ladi (bunday yondashuv – jamiyatni, tabiiy fanlarning rivojlanish qonuniyati asosida o'rganishni taklif qilgan olimlar yondashuvidir). Lekin sotsiologiyaga bu yo'sindagi munosabat keskin darajada juda tor munosabatdir. Bu yo'nalishda fikrlovchi sotsiolog olimlar o'z qarashlarini isbotlash uchun duallistik (ikkita yo'l) yo'ldan borishadi. Ya'ni tirik barcha jonzotlarning yashash uchun intilishlari – bu tabiiy jarayon va bu tabiat qonuniyati, ularning birgalikdagi faoliyati, birodarligi esa bu madaniyatning ilk kurtaklaridan namunadir, deb hisoblashadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, sotsiologiyani tabiiy yo'nalishda o'rganuvchi olimlar jamiyat taraqqiyotini dualistik: tabiiy va madaniy, obyektiv va subyektiv yondashuv bilan tushuntiradilar. Shuning uchun sotsiologiyani tabiiy yo'nalishda o'rganishni

targʻib qilgan Kont ham jamiyatni, bir tarafdin, obyektiv reallik, buyum, narsa, tizim, oʻz qonuniyatlari boʻyicha evolutsiyalashadigan tabiiy jarayon sifatida, ikkinchi tarafdin esa, his-tuygʻular mahsuli, gʻoya va fikr natijasi sifatida talqin qiladi.

Maks Veber esa sotsiologiyaning boshlangʻich nizomi sifatida odamni madaniy mavjudot, deb ataydi va aynan ana shu nizomga asoslangan holatda obyektiv sotsiologiyani qurishga harakat qiladi¹.

II. 4. Protestantlik etikasi va kapitalizm ruhi – jamiyatni “oldinga yetaklovchi (reprezentativ) madaniyat” sifatida

Veber oʻz sotsiologik tadqiqotlarida Yevropa mamlakatlari taraqqiyotga undaydigan yetuk, ratsional madaniyat zarur ekanligiga va shu madaniyatni yaratish uchun qanday vazifalar bajarilishi lozimligi masalasiga toʻxtalib oʻtgan tadqiqotchidir. Ushbu masalani olim “Protestanlik etikasi va kapitalizm ruhi” asarida tahlil qilar ekan, u kapitalizmning vujudga kelishi va rivojlanishida dinning roliga alohida ahamiyat bergan. U yashagan davrda Germaniyada kapital egalari va tadbirkorlar orasida protestantlar sezilarli darajada koʻpchilikni tashkil qilar, katoliklar esa savdo-sotiq, sanoat va moliya sohalarida unchalik muhim rol oʻynashmasdi. Veber uchun aynan ana shu fakt masalani tadqiq etishiga turtki boʻlib xizmat qildi. U ushbu fakt ustidan mulohaza yuritib, oʻzi “kapitalizm ruhi” deb atagan narsaning shakllanishi uchun aynan protestanlik dini dastlabki turtki bergan, degan xulosaga kelgan. **Kapitalizm ruhi** deganda u negizida mehnat etikasi yotgan oʻziga xos dunyoni his qilishni va shunga asoslanish natijasida inson hayotining asosiy mazmuni boʻlgan

¹ Qarang: Вебер М. Избранные произведения. – М.: Прогресс, 1990. стр. 626.

badavlat bo‘lish jarayonini nazarda tutadi. Ayrim vaziyatlarda esa Veber “kapitalizm ruhi” tushunchasining o‘rniga “kapitalizm madaniyati” tushunchasini ham ishlatadi.¹

Dinning hamda G‘arbiy Yevropa kapitalizmi qaror topishida protestantlarning “xo‘jalik etikasi” rolini oshirib, maqtab ko‘rsatganligi uchun uni tanqid qilishgan. Biroq Veber G‘arb kapitalistik jamiyatining qaror topishi hamda shakllanishi jarayonida din mafkuraviy omil sifatida rol o‘ynaganini yoritib bera olganligini tan olmay ilojimiz yo‘q.

Veber o‘zining asarida Bendjamen Franklinning fikrlaridan sitata keltiradi: “G‘ayratli yoshlar daromad topishga intilishlari lozim, ular daromadni qadrlab, oshirish va ko‘paytirish yo‘llarini izlashlari kerak. Amerika pul bilan muomala qilishni biladigan, halol, boyligi va kapitalini ko‘paytirishni o‘z burchi deb o‘ylaydigan kishilarga tayanadi”. Veber, aynan shu tamoyil asosida Amerika mafkurasi tuzilgan, deb hisoblaydi. Bu tamoyil Amerika xalqining qon-qoniga singib ketgan va etika darajasiga ko‘tarilgan². Bu etikadan chetga og‘ish esa nafaqat bema‘nilik, hattoki burchning buzulishi deb qabul qilinadi. Franklin fikrini tahlil qilar ekan, Veber Amerika Prezidenti individual tadbirkorlik g‘ayratini yoki, boshqacha aytganda, ruhiy jihatdan boylikka moyillikni emas, balki etika darajasiga ko‘tarilgan va axloqiy me‘yor bilan sug‘orilgan, amerikaliklarning hayot tarzini me‘yorga keltira oladigan, yo‘lga sola oladigan burchni nazarda tutganini aytadi³. “Men ko‘p pul topaman va uni qaysi yo‘l bilan bo‘lsa ham ko‘paytiraman. Men haqimda kim nima

¹ Veber “kapitalizm ruhi” yoki “kapitalizm madaniyati” deganda boyishga asoslangan va jamiyatni farovonlik sari yetaklaydigan yangicha madaniyatni, boshqacha aytganda, yangicha fikrlaydigan kishilar hayoti tarzini yaratishni nazarda tutgan edi.

² Etika darajasiga ko‘tarilgan bu tamoyil bajarilishi shart bo‘lgan qat‘iy qonun, me‘yor, an‘ana va qadriyatga aylangan.

³ Qarang: Вебер М. Избранные произведения. – М.: Прогресс, Стр. 1990. 73.

deb o‘ylasa, o‘ylayversin, bu meni qiziqtirmaydi” toifasidagi aqida ham g‘ayratli tadbirkorlar uchun me‘yor hisoblansa-da, lekin etika darajasiga ko‘tarilgan va ma‘naviy qiymati bilan tubdan farqlanadigan quyidagi me‘yordan ajralib turadi: “Pul topish – bu mening burchim, vazifam. Mening yaxshiligim va mehribon ekanligim shu harakatlarimda ko‘rinadi. Men o‘z xatti-harakatlarimdan faxrlanadigan yo‘ldan borishim lozim, shunda vatandoshlarimning ham menga bo‘lgan ishonchi va hurmati oshadi”.

An‘anaviylik nuqtayi nazariga binoan, inson o‘z xususiyatiga ko‘ra ko‘p va undan ham ko‘p pul topishga emas, balki yashashga, o‘zi ko‘nikib qolganidek yashashga hamda jismoniy va ma‘naviy talablarini qoniqtirishga yetadigan pul topishga intilishi lozim, xolos. An‘anaviy fikrlash nuqtayi nazarida kapitalni va ishlab chiqarishni oshirish istagi yetishmaydi, unda “keragidan oshig‘ini olma” aqidasiidagi madaniyat yashaydi. An‘anaviylikda “ko‘p pulga ega bo‘lish yomon holat emas, lekin unga ko‘p e‘tibor berish, uni hayotning asosiy maqsadiga aylantirish yomondir”, qabilidagi (eskicha) etikaga roiya qilinadi.¹ “Kapitalizm ruhi”dagi me‘yorlar (yangicha) etikasi va shu ruh bilan sug‘orilgan kapitalizm shakli qayerga borsa, allaqachon madaniyatga va qadriyatga aylanib bo‘lgan eskilikka, an‘anaviylikka, ularning yashirin va to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarshiligiga duch kelavergan.

Maks Veber “Protestantlik etikasi va kapitalizm ruhi” asarida o‘rgangan asosiy muammosi yuqorida o‘rtaga tashlangan vaziyatlarga javob topishda edi. U yangicha fikrlash, mehnat qilish orqali boyishga intilish istagini uyg‘otish, uni ko‘paytirish yo‘llarini topish haqidagi qarashlarga to‘xtaladi. Bu harakatlar

¹ Albatta, etikaning eskicha yoki yangichasi bo‘lmaydi, u insoniyat tomonidan qabul qilingan va tan olingan me‘yorlar, qonun-qoidalar, an‘analar va qadriyatlar yig‘indisi hisoblanadi. Lekin Veber o‘z ilmiy ijodida etikaga “kapitalizm ruhi” nomli yangicha qadriyat shaklini kiritishni tatbiq etar ekan uning madaniyat darajasiga ko‘tarilishini va unga barcha rioya qilishini istaydi.

bilan kishi o'zining hamda atrofidagilarning hayotini yaxshilashi mumkinligi imkonini qidiradi. Veber esa: "Bu g'oyani kishilar ongiga singdirish, shu bilan birgalikda, uni jamiyat etikasi va madaniyatiga aylantirish lozim", – deydi¹. Albatta, bunday fikrlash tarzi, mehnatga shu tariqa yangicha yondashuvda bo'lish inson tabiatiga xos xususiyat emas. Mehnatga nisbatan bunday ijodiy yondashuvni faqat va faqat oilada hamda jamoada tarbiyalab vujudga keltirish mumkin. Jamiyat a'zolarining fikrlash tarzini, dunyoqarashini va mehnatga bo'ladigan munosabatni o'zgartirish va shu asosida "kapitalizm ruhi"ni yaratish harakatlari Veber diniy islohotlarga, ya'ni dinni isloh qilish va undan kelib chiqadigan natijaga bog'laydi.

II. 5. Kalvinizm – Veber talqinida

Ko'pgina faylasuf olimlar ijodini o'rganar ekanmiz, ularning ayrimlari olib borgan tadqiqotlarda XVI asrda yashab ijod etgan faylasuf Kalvinning qarashlarini uchratishimiz mumkin. Kalvin qarashlarida Veber ta'limotiga mos tushadigan va kelajakda "kapitalizm ruhi"ga aylanishi mumkin bo'lgan ayrim g'oyalar mavjud edi. O'z davrining kuchli siyosatdoni va buyuk sotsiologi bo'lgan Maks Veber bu elementlarni payqamasligi mumkin emas, albatta.

"Jan Kalvin (1509 – 1564) – kalvinizm asoschisi, ilohiyotchi, huquqshunos. Luter g'oyalari ta'sirida katolitsizmdan yuz o'girib, protestantlik harakatiga qo'shilgan. "Xristianlik dinidagi ko'rsatmalar" nomli asosiy asarida Luter, Svingli va boshqa islohotchilarning g'oyalarini o'ziga xos tarzda tizimga solgan. U "ko'rsatmalar"ni butun hayoti davomida kengaytirib va takomillashtirib borgan, ayniqsa, butun protestant teologiyasi asosi bo'lgan "Mutlaq azaliy taqdir" ta'limotini izchil tarzda rivoj-

¹ Qarang: Вебер М. Избранные произведения. – М.: Прогресс, стр. 1990. 82

lantirgan. Kalvinning fikricha, Xudo olamni yaratgunga qadar barchaning taqdirini oldindan belgilab qo‘ygan, insonning hech bir harakati buni o‘zgartira olmaydi. Kasbiy faoliyatdagi yutuqlar esa Xudo tomonidan tanlanganlikning oqibatidir”¹.

Shuni unutmazlik lozimki, Veber Kalvin qarashlarida qanchalik “kapitalizm ruhi”ga mos keladigan g‘oyalarni uchratgan bo‘lmasin, u baribir kapitalizmning kelib chiqishida kalvinizm yoki shu davrda o‘tkazilgan islohotlar sababchi bo‘lgan, deb hisoblamaydi. Agar chuqurroq tahlil qilib ko‘rilsa, kapitalizmning ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi ayrim element va jihatlari islohotlar boshlanishidan ham avval shakllana boshlagan edi. Gap shundaki, islohotlar ta’siri ostida normativ tomoni kapitalistik xarakterga o‘xshash bo‘lgan kapitalizm madaniyati paydo bo‘la boshladi. Bu normativ jihatning kelib chiqishini Veber asketik² protestantizm bilan bog‘laydi.

Protestantlik oqimining asosiy dogmatik³ xususiyati shundan iboratki, unda inson taqdiri oldindan belgilab beriladi, deb hisoblaniladi. Uning mohiyatida: inson olamga Xudo tomonidan o‘zi uchun avvaldan ajratilgan va o‘ziga mos deb topilgan hayotga tushuriladi. Bu hayotda avvaldan ko‘rsatilgan yo‘ldan og‘masdan to‘ppa-to‘g‘ri yashash inson uchun Xudoni olqishlash bilan teng bo‘ladi, degan g‘oya yotadi. Bu – insonning Xudoga bo‘lgan shukuronasi va tirikligining yagona maqsadidir. Hech qanday harakatlar, xizmatlar, toat-ibodatlar inson hayotini o‘zgartira olmaydi. Inson o‘ziga bitilgan hayotdan og‘ishmay yashashi bu uning Xudoga nisbatan bo‘lgan mehr-muhabbatini bildiradi.

¹ Qarang: Вебер М. Избранные произведения. – М.: Прогресс, 1990. 82 стр.

² Falsafa qomusiy lug‘at. (Tuzuvchi va mas‘ul muharrir Q. Nazarov). – T.: Sharq, 2004. 187-bet.

³ Asketizm (biron narsa bilan mashg‘ul bo‘lish) – zohidlik, qanoat qilib yashash, moddiy boyliklardan imkoni boricha kamroq foydalanish tuyg‘usiga asoslangan g‘oya.

Bu tamoyil an'anaviy katolitsizimdan tubdan farq qiladi. Katolitsizmda, boshqa ko'pgina din va oqimlarda bo'lgani kabi, inson hayoti ikkiga bo'linadi. Chin olam bu diniy, dinga va cherkovga bag'ishlangan, abadiy olam uchun tayyorgarlik ko'rishga bag'ishlangan hayot bo'lsa, ikkinchisi – chin bo'lmagan, vaqtinchalik, dunyoviy hayot va olamdur. Chin hayotga kirish uchun diniy olam shartlarini cherkovda ko'rsatilgandek to'liq bajargan, o'z vaqtida toat-ibodatini qilgan, qurbonliklar qilib, Xudoni olqishlagan kishilar ruhlarigagina panoh beriladi. Dunyoviy olam esa ikkinchi darajalidir. Unga ko'p e'tibor berganlar, uni e'zozlaganlar Xudoni unutadilar va, tabiiyki, ularning ruhlari panoh topish imkoniyatini yo'qotadi.

Kalvin asos solgan kalvinizmda esa umuman buning aksini ko'rish mumkin: dunyoviy olam va diniy olam yagona, bir butundir. Unga ko'ra, aynan dunyoviy olam muqaddas hisoblani-ladi. Agar katolitsizm inson o'z umri davomida biron narsaga erishishi mumkinligiga bo'lgan ishonchni olib qo'yib, uning o'rniga barcha umid va maqsadlarni cherkov uchun, diniy olam uchun bag'ishlashi lozimligi aytilsa, kalvinizmda esa ikkala hayot (olam) birlashtiriladi. Olamning o'zi – bu cherkovdir (ya'ni muqaddas dargoh), dunyoviy olamdan voz kechmasdan, uning barcha qiyinchiliklariga chidab yashash – bu Xudo yo'lidagi toat-ibodat va xizmatlardir, ruhiy panoh izlash esa dunyoviy olamning barcha talab va qoidalariga rioya qilgan holda (to'g'ri va halol) yashashga intilishdir.

Masalaga bunday yondashuv ikki xil natija berdi. Birinchisi: cherkovlar, toat-ibodatlar, ruhoniylar, turli rasm-rusumlarning barchasi ortiqchadir. Ularning birontasi ham inson ruhini qutqara olmaydi. Demak, cherkov va diniy tashkilotlarga joy yo'q! Ikkinchi natija mafkuraviydir. Veberning tili bilan aytganda, olamning “jodudan” ozod qilinishi magiyaga ishonib ish ko'rishdan, irm-sirimlarga rioya qilishdan qutulishidir. Masalan, “maxsus formulalar”ning (bu yerda qofiyaga solingan duolarning o'qilishi nazarda tutil-yapti) takrorlanishi natijasida olamni yaxshilay olish mumkin-

ligi fikridan butunlay voz kechish lozim. Shunda olam soddaroq, tushunarliroq, to'g'riroq va donoroq bo'ladi.

Bir qarashda, yuqoridagi fikrlarda bir-biriga zid bo'lgan holatlar mavjuddek tuyuladi: inson Xudoni hamisha olqishlaydi, Xudo esa unga hamisha e'tibor bermaydi. Ammo kalvinizm tamoyilida bunday ziddiyat ko'rinmaydi. To'g'ri, kalvinizmda ham inson Xudoni olqishlaydi, faqatgina toat-ibodat yo'li bilan emas, balki Xudoning bergan taqdiriga binoan inson tirik yurganligi, unda ko'rsatilganidek barcha qoidaga rioya qilib yashayotganligi va hayotlilikligi bilandir. Agarda bu jumlaning sotsiologiya tili bilan aytsak, kishi o'ziga berilgan ijtimoiy rolini¹ to'g'ri bajarayotganligi bilan Xudoni olqishlaydi. Ruh uchun panoh izlash – bu maxsus faoliyat yuritish, degani emas. Inson o'z ruhini o'z ish joyida qutqaradi. O'ziga berilgan vazifa va majburiyatlarni bajarar ekan, u ilohiy ko'rsatmalarga rioya qilgan bo'ladi.

Shuning uchun pulni qadrsizlab, unga faqatgina ehtiyojlarni qondiradigan bir vosita sifatida emas, balki unga hurmat yuzasidan yondashish, uni qadrlash va uni ko'paytirishga harakat qilishi lozim. Sababi bu Xudoga ma'qul bo'lgan harakatdir. Xalq orasida “Badavlat bo'lsang, Xudoga ham yoqasan”, degan naql yuradi. Xudoga badavlat inson yoqishining, ma'qul kelishining asosiy sababi bu insonning boy bo'lganligi yoki eng yaxshi, shirin hayot kechirayotganligi uchun emas, balki u o'ziga shunday rohatni loyiq ko'rmasligidadir. Chunki uning shirin hayotga vaqti yo'q. U hayotning barcha lazzatlaridan voz kechgan holatda, o'ziga berilgan muqaddas vazifa – davlatini ko'paytirish burchini bajarish bilan band. Mehnatdan dam olishga bo'lgan har qanday intilish, “qilgan mehnatimning evaziga”, deb o'yin-kulgiga berilish – muqaddas burchni bajarishdan chetga og'ishdan, uni tan olmaslikdan o'zga narsa emas. Mehnatga va boylikka bunday yuzaki yondashuv yuqorida ko'rsatib o'tilgan an'anaviy yon-

¹ Dogmatizm – aqidaparastlik, biror-bir fikrga, ta'limotga ko'r-ko'rona ishonish. Unga yopishib olish va undan hech qachon voz kechmaslik.

dashuvning o'zginasidir. Hayotdagi barcha rohat-farog'atdan voz kechish evaziga o'z burchini vaqtida bajarish va dam olish imkoniyatlaridan voz kechish – protestantizm etikasiga xos bo'lgan xususiyatdir. Aynan shu xususiyatni Veber dunyoviy asketizm, deb ataydi. Balki shuning uchun ham Veber o'z asarini "Protestantizm etikasi va kapitalizm ruhi" deb nomlagandir. U protestantizm ta'limotidagi insonga berilgan yagona hayot g'oyasini ma'qullaydi. Lekin u protestantizmdan farqli o'laroq hayotni faqat toat-ibodat bilan o'tkazish emas, aksincha, dunyoni gullatish, mehnat qilish va shuning evaziga boyish, qashshoqlik va ishsizlikdan qutilish, jamiyatni taraqqiyotga yetaklash lozim, deb hisoblaydi.

Veber o'z izlanishlarini olib borishda faqatgina protestantizm bilan cheklanib qolmagan. Olim boshqa ko'pgina dinlarni ham o'rgangan va tahlil qilib chiqqan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, sotsiologiyani madaniy-tahliliy jihatdan ko'rib chiqib, unga tabiiy fan sifatida emas, balki madaniy fan sifatida yondashilsa, u madaniy-tahliliy jihatdan o'rganib chiqilsa, bizga qorong'i bo'lgan ko'pgina savollarga javob olish mumkin ekan. Ya'ni bunday yondashuvda sotsiologiya nafaqat kishilik jamiyatining kelib chiqish va rivojlanish qonuniyatini (tabiiy fanlar asosida, II. 2-§ ga qarang) o'rganadi, u madaniyat haqidagi, madaniyatning jamiyatdagi o'rni va jarayonlari haqidagi, ularning kelib chiqish vaziyatlari haqidagi fan sifatida namoyon bo'ladi. Madaniyatga bag'ishlangan boshqa fanlardan farqli ravishda sotsiologiya faqatgina madaniyat sohasiga tegishli bo'lgan badiiy ijod, dunyoqarash, turli mafkuralarning o'zaro aloqasi va hokazo bilan cheklanib qolmasdan, balki madaniyatshunoslik fani o'rganmaydigan aspektlarni ham, ya'ni global ijtimoiy-iqtisodiy tizimning shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarini ham chuqur tahlil qilib o'rgana oladi. Bunday jarayonlarni ilmiy tahlil qilib, sotsiologik jihatdan o'rganish esa madaniyatni o'rganuvchi hech qaysi fanning qo'lidan kelmaydi.

II. 6. Sotsiologiyani o'rganishdagi ikki tendensiya

Maks Veberning “tushunarli” sotsiologiyasi sotsiologik tafakkurga umuman yangi g'oya va qarashlarni olib keldi. Umuman olganda, sotsiologiya tarixidan buyon shakllanib, rivojlanib kelayotgan barcha sotsiologik oqim va maktablarning qarashlari umumlashtirilsa va ularni o'z xususiyatlariga ko'ra ikki toifaga bo'lib o'rganilsa, shu bo'limning boshida ko'rsatib o'tganimiz – obyektivizm sotsiologiyasi (tabiiy-ilmiy asosga tayanadigan) va madaniy-tahliliy analiz sotsiologiyasi kelib chiqadi. Ularning asosiy farqi shundaki, obyektivizm sotsiologiyasining ijtimoiy hodisalari bo'lmish tizimlar va ijtimoiy institutlar jamiyat a'zolarining fikr va qarashlariga bog'liq bo'lmagan obyektiv “buyum” va “narsa” sifatida (E. Dyurkgeym asos solgan) o'rganilsa, madaniy-tahliliy analiz sotsiologiyasida esa aynan shu hodisalar jamiyat a'zolarining fikr va qarashlariga bog'liq holda “yashaydilar”, deb talqin qilinadi. Qizig'i shundaki, bu ikki tendensiya tarafdorlari ham bitta hodisani (masalan, odatiy ijtimoiy hayot va faoliyat yurituvchi insonning ijtimoiy jarayonlarini) o'rganib tahlil qiladilar.

Boshqacha aytganda, obyektiv sotsiologiya tarafdorlari ijtimoiy olamni qanday bo'lsa – shundayligicha, qat'iy qonun va qoidalar asosida o'rganib tahlil qiladi. Madaniy-tahliliy sotsiologiya tarafdorlari esa ijtimoiy olamni “parda ostidan” ko'rishga va bu olamning asl xususiyatini tushunishga intiladilar. Birinchi tendensiya tarafdorlari ijtimoiy olamning “obyektiv”ligiga ishonadilar, ikkinchi tendensiya tarafdorlari esa ishonishdan avval, shu “obyektiv”likning o'zini tadqiq etib, tekshirib chiqadilar. “Obyektiv”likning asl mohiyatini, tabiatini aniqlab, uning tabiiy fanlarda keltirilgan obyektivlik bilan hech qanday aloqasi yo'qligini tushunib yetganidan so'nggina, madaniy-tahliliy jarayon sotsiologi ijtimoiy olamni tahlil qilishga o'tadi.

Demak, sotsiologiyada mavjud bo'lgan ko'pgina maktab va oqimlarga qaramasdan, bu fanni ikki xil ko'rinishda o'rgansa bo'ladi: birinchisi, pozitivistik naturalizm bo'lgan obyektivistik sotsiologik yondashuv; ikkinchisi, Veber asos solgan "tushunarli" yoki madaniy-tahliliy yondashuvdir.

II. 7. Tushunarli sotsiologiyaning yana bir ko'rinishi: anglash – bu yaratish

Hozirgi zamonaviy sotsiolog olimlari T. Lukman va P. Berger sotsiologiya faniga bag'ishlangan muammolarni o'rganishar ekan, o'zlari sezmaganda sotsiologiyaga, Veber ko'rsatib o'tgani kabi, madaniy-tahliliy jihatdan yondashishadi. Bu ikki olim ko'rsatishlari bo'yicha, ijtimoiy individlar o'zlari yashab mehnat qilayotgan olamning, aslida, o'zlari tomonidan anglanmagan holda bunyod etilganini sezishmaydi. Ular bu jarayonni ijtimoiy faoliyatlari davrida amalga oshiradilar¹. Bu dialektikadir²: olamni tanish va o'rganish orqali insonlar uni egallashadi, uni egallash orqali esa yana tanishadi. Demak, Lukman va Bergerga ko'ra, inson mukammal qonun va qoidalar bilan to'lgan ijtimoiy olamda tirik qolishga va yashashga harakat qilar ekan, uni bilishga, tanishga intiladi. Olamni bilish va tanish jarayonida esa u olamni yaratib, bunyod etib boradi. O'z navbatida, u olamni yaratib ekan, uni yanada mukammalroq tarzda anglab, tanib boraveradi. Bu qonuniyat hech qachon to'xtamaydi, aksincha, u hamisha rivojlanib, yanada mukammalashib boradi. Inson ijtimoiylashish xususiyatiga ega ekan, u olamni ham o'zi ang-

¹ Ijtimoiy rol – bu biron-bir ijtimoiy mavqe egasi o'zi egallab turgan mavqeyidan kelib chiqqan holda bajarishi kerak bo'ladigan majburiyatlar hamda undan kutiladigan xulq va xatti-harakatdir.

² Qarang: Berger P., Luckman T. The social construction of reality. – New York: Doubleday, 1966.

lamagan holda ijtimoiylashtirib, ya'ni madaniylashtirib boradi. Madaniylashayotgan olam ham, tabiiyki, insonlarning ijtimoiylashuvidan manfaatdor bo'ladi va ular o'zaro bog'liq holda bir-birini to'ldirib, ta'sir va aks ta'sir qonuniyatida taraqqiy etadi. Lukman va Berger "anglash" va "tanish" jarayonlarini "faoliyat yuritish" jarayoni bilan aynan bitta narsa, deb aytadilar. Ya'ni ular kishi olamni tanishi jarayonini va bu orqali unga aks ta'sir qilib, uni yaratib borishi jarayonini "faoliyat"ga, yanada yorqinroq aytadigan bo'lsak, amaliy faoliyatga bog'lab ko'rsatishadi. Bir qarashda, bu fikr umuman manitqsizdek tuyulsa-da (chunki nazariy jarayon hisoblangan "tanish" va "bilish" holatlari amaliy hisoblangan "faoliyat" jarayonidan butunlay farqlanadi), lekin sotsiologiya fanida mavjud bo'lgan "tushunarli sotsiologiya" (M. Veber asos solgan) bilan "an'anaviy obyektiv sotsiologiya"ning farqi aynan shu vaziyatda hal bo'ladi.

An'anaviy hisoblanib kelayotgan obyektivizm sotsiologiyasi tarafdorlarining nuqtayi nazarlari, aslida, sog'lom nuqtayi nazar hisoblanadi. Uni quyidagicha izohlasa bo'ladi: obyektiv ijtimoiy jarayonlar, faktlar, tizimlar – insonga bo'g'liq bo'lmagan holda mustaqil mavjud bo'ladigan jarayonlardir. Sotsiologlar bu jarayonlarni, faktlarni, tizim va tuzilmalarni bir qarashda tanib, ularning xususiyatlarini anglab yetadilar. Albatta, chalg'ish yoki xato qilish mumkin, lekin yuqorida ko'rsatilgan faktlar bundan o'zgarib qolmaydi – ular obyektivligicha qoladi. Bunday "anglash" nuqtayi nazari tabiiy fanlar tadqiqotchisi nuqtayi nazariga mos tushadi. Chunki tabiiy fanlar obyekt o'zgarimas bo'lib, ular insonga bog'liq bo'lmagan holda yashaydi. Ularni anglash va o'rganish jarayonida ular o'zgarimasdan bir maromda turadi.

Tushunarli sotsiologiyaning ilmiy taxmini, aksincha, xulosani beradi. Unga ko'ra, anglash – bu bir vaqtning o'zida yangitdan yaratishdir. Sotsiologiyaning obyekt bo'lmish jamiyat tabiiy fanlardan ana shunisi bilan farqlanadi.

Fikrimiz isboti sifatida 1863 – 1947-yillarda yashab, ijod etgan Uilyam Tomasning “vaziyatni aniqlash” konsepsiyasini eslash o‘rinlidir. “Tomas nazariyasi” nomini olgan Tomasning mashhur teoremasiga ko‘ra, agar vaziyat haqiqiy, chin deb topilsa (aniqlansa), unda uning natijalari ham haqiqiy, chin bo‘lib chiqadi¹. Demak, biron-bir faoliyat natijasini oldindan aniqlash uchun ushbu faoliyat ustidan hukmronlik qiladigan *vaziyat* o‘z ijrochilari tomonidan qanday aniqlanayotganini, qanday baholanayotganini bilish lozim. Ko‘rinib turibdiki, “anglash, bilish, tushunish, baholay olish” jarayonlari amaliy hisoblangan “faoliyat yuritish” jarayoni bilan teng jarayondir. Inson anglar ekan, u faoliyat yuritadi. Insonning narsa va obyektini qanday anglashi (Tomas aytganidek) kelajakda faoliyatni qanday yuritishini belgilab beradi. Chuqurroq qaralsa, “anglash” jarayoni hattoki “faoliyat yuritish” jarayonidan ham ko‘proq kuchga va ahamiyatga ega. Chunki aynan to‘g‘ri “anglash” to‘g‘ri faoliyat yuritishni, noto‘g‘ri “anglash” esa noto‘g‘ri faoliyat yuritishni beradi. Fikrimiz tasdig‘i uchun U. Tomas o‘z asarlaridan birida keltirgan misolga murojaat qilamiz. Unga ko‘ra, ruhiy xasta odam ko‘chada daydib yurar ekan, bir nechta o‘zaro gaplashib ketayotgan begona insonlarni uchratishi mumkin. Agar ruhiy xasta odam vaziyatni to‘g‘ri baholay olsa, nur ustiga a’lo nur. Agarda aksi bo‘lib chiqsa-chi? Ruhiy xasta odam o‘zaro gaplashayotgan begona kishilar harakatini aynan o‘ziga nisbatan bildirilgan haqorat va o‘ziga nisbatan bildirilayotgan salbiy munosabat deb anglasa, bemalol ulardan o‘ch olishi va hattoki ularni o‘ldirishi ham mumkin². Bu misoldan ko‘rinib turibdiki, ruhiy xasta odamning “anglash” darajasi uning kelajakdagi faoliyatini

¹ Dialektika – borliqdagi barcha narsalar, hodisalar, jarayonlar o‘zaro bog‘lanishda bo‘ladi va olamdagi barcha narsalar doimiy aloqadorlikda bir-birini to‘ldirib, rivojlanadi, deb takidlaydi.

² Qarang: Social behavior and personality. W. Tomas’ contribution in social theory. – New York, 1951. 10-bet.

belgilab berdi. *Kishi harakatini va faoliyatini aynan "anglash" jarayoni belgilab beradi va bu jarayon amaliy bo'lgan "faoliyat yuritish" jarayonidan hech ham kam emas.*

Maks Veber ham protestant etikasining va kapitalizm ruhi-ning kelib chiqish tarixini tahlil qilar ekan, protestantlar tomoni-dan insonning Xudo bilan bo'lgan munosabatiga yangicha baho berishlari va bu vaziyatga yangicha nuqtayi nazar bilan yon-dashishlari insoniyat sivilizatsiyasini umuman yangi bosqichga ko'tarilishiga olib keldi. Mantiqiy jihatdan yondashilganda, aniq bir faoliyatga, harakatga uni anglash darajasi ham bir bo'lishi kerak, lekin bu qoida hamisha ham ish beravermaydi. Fikrimiz-ga protestantlarning Xudo bilan inson o'rtasida bo'lgan aloqa-siga nisbatan bo'lgan yangicha yondashuv misol bo'la oladi. Kapitalizm davri vujudga kelgunga qadar, Xudo bilan inson o'rtasidagi aloqa umuman boshqa yo'sinda baholangan va ang-langan. XVIII – XIX asrga kelib Xudo bilan inson o'rtasidagi aloqaga berilgan yangicha baho vaziyatga yangicha yondashuv-ni va uning natijasini berdi¹. Bir vaziyatga nisbatan berilgan ikki xil anglash jarayoni ikki xil natijani, undan kelib chiqadigan ikki xil faoliyatni berdi.

Bu misol ham yuqoridagi fikrimizning to'g'riligini yana bir bor ko'rsatib berdi. Vaziyatga nisbatan berilgan har bir uni "yan-gitdan anglash" jarayoni bundan-da yangi, eskisiga nisbatan haqqoniy-roq ko'rinadigan vaziyatlarni keltirib chiqazadi. Yan-gitdan kelib chiqqan vaziyatlarning "haqqoniyroq" ekanligini esa shu vaziyatda faoliyat yuritayotgan insonlar belgilab beradi. Soddaroq tilda aytadigan bo'lsak, har gal biron-bir vaziyatga baho berilganda, uning qanchalik to'g'ri ekanligini shu vazi-yatga baho bergan insonlar ko'rsatib beradi. Vaqt o'tishi bilan vaziyat o'zgar olmaydi, lekin unga bo'lgan munosabat o'zgaradi va natijada unga berilgan baho ham o'zgaradi. Avvalgi berilgan

¹ Qarang: Social behavior and personality. W. Tomas' contribution in social theory. – New York, 1951. 10-bet.

baho noto‘g‘ridek, yangi berilgan baho to‘g‘ridek, haqiqatga yaqinroqdek tuyuladi. Aslida esa, unday emas. Avvalgi berilgan baho ham to‘g‘ri bo‘lgan bo‘ladi, u o‘z davrida unga nisbatan berilgan munosabatga yarasha baholangan bo‘ladi. Vaqt o‘tishi bilan insonlarning unga nisbatan bo‘lgan munosabatlarining o‘zgarishi natijasida, insonlarning dunyoqarashi o‘zgarishi natijasida, jamiyatda hukmron bo‘layotgan madaniyatning o‘zgargarishi natijasida unga nisbatan berilgan baho ham o‘zgaradi. Bu esa jamiyatda hukmron bo‘lib borayotgan va har safar kishilar ongiga yangitdan o‘z hukmini o‘tkazayotgan “oldinga yetaklovchi madaniyat”ning ta’siri ekanligidan dalolat beradi. Demak, vaziyatni anglash bu uni o‘zgartirish bilan tengdir.

II. 8. Madaniyatning sotsiologik tasnifi

Albatta, yuqorida ko‘rib chiqilgan vaziyatni “anglash” faoliyatiga va Tomas teoremasiga yanada to‘g‘riroq xulosa berish uchun uni qaytadan ko‘rib chiqish va lozim bo‘lsa, qo‘shimchalar kiritish kerak bo‘ladi. Inson tomonidan avvaldan angalangan har qanday vaziyat shu vaziyatning asl ko‘rinishini butunlay o‘zgartirishga qodir emas (biz yuqorida nazariy faoliyat hisoblangan “anglash” jarayonini amaliy hisoblangan “faoliyat” jarayoniga tenglashtirgan edik. Lekin shuni unutmash kerakki, hech qanday “anglash” jarayoni vaziyatning asl mohiyatini va ko‘rinishini o‘zgartirishga qodir emas). Ya’ni unga ko‘ra, inson bir vaziyatni anglashga urinar ekan, shu vaziyatning asl mohiyatidan kelib chiqib, unga har safar o‘zgacharoq baho beradi va uni anglaydi, lekin aslo bu vaziyatning o‘zini tag-tubi bilan butunlay o‘zgartirib yubora olmaydi. Inson hech qachon vaziyatning asl holatini o‘zgartirgan holda unga umuman yangicha maqom berib, uni boshqacha tarzda anglamaydi. To‘g‘ri, inson anglash jara-

yonida vaziyatning ayrim jihatlarini o'zgartirib anglashi mumkin, lekin bu uning vaziyatning o'zini tubdan o'zgartirib baholaydi, oqni qora rangda angelaydi, degani emas. Inson anglash jarayonida vaziyatga "haqiqat" bosqichidan kelib chiqib baho beradi. U haqiqatdan butunlay uzoqlashib keta olmaydi va bu bilan vaziyatning o'zining asl holatini o'zgartirib yubora olmaydi.

E. Gusserl g'oyalarining davomchisi bo'lgan zamonamiz olimlaridan biri Shuts o'zining sotsiologik qarashlarini bayon etar ekan, uni quyidagicha ta'riflaydi: "Dunyoviylik, ya'ni "tiriklik, hayotlilik" olamiga murojaat qilish – bu ijtimoiy olamga murojaat qilish, uning ichiga YASHASH uchun kirib borishdan o'zga narsa emas"¹. Ilmiy tilda aytadigan bo'lsak, barcha empirik fanlarning predmeti sifatida olam va odam, ularning o'zaro aloqasi va hodisalari keladi, lekin ushbu fanlarning o'zi ham aynan shu olamning bir bo'lagi hisoblanadi. Biz ongli mavjudot sifatida jamiyat va madaniyat ichida o'zimiz kabilar bilan birgalikda yashar ekanmiz, istasak-istamasak, shu jamiyat va madaniyatning bizga ko'rsatadigan ta'siriga bog'liqmiz. O'z navatida, biz o'zimiz ham istasak-istamamsak, shu jamiyat va madaniyatga ta'sir ko'rsatamiz. Jamiyat a'zolari mavjud ekan, ular ijtimoiy harakatda bo'lishadi. Ularning ijtimoiy harakatlari esa boshqa insonlarning ijtimoiy harakatlariga va faoliyatlariga asoslanadi. Aynan shu qoida asosida kishilar o'rtasida o'zaro aloqalar mavjud bo'ladi, aynan shu qoida asosida jamiyatda ijtimoiy xatti-harakatlar mavjud bo'ladi va aynan shu qoida asosida insonlar o'rtasida yangi munosabatlar qurilib, ular ijtimoiylash-

¹ Yodingizda bo'lsa, shu bobning 3- va 4-§ larida protestantlik g'oyasiga asoslangan Calvin qarashlari kapitalizmning kelib chiqishiga qisman turtki bo'lganini aytgan edik. Shuni yodda tutish loziki, aynan Veber va Calvin nazarda tutgan protestantizm etikasi kapitalizmga turtki bo'lgan, buning aksi emas. Kapitalizm protestantizmga yangicha yondashuvni shakllantirmagan, balki protestantizm asosida kalvinizm g'oyalari ijtimoiy olamga yangicha yondashuvni taklif qilgan.

ganlik xususiyatini oladi. Jamiyatning ijtimoiylik xususiyati shundan kelib chiqadi.

Shutsning Gusserl g'oyalariga¹ asoslanib sotsiologiya faniga kiritgan "tiriklik va hayotlilik olami" haqidagi qarashlari ko'pgina olimlarning e'tiborini o'ziga tortdi. Natijada vaqt o'tishi bilan sotsiologiya fanida yaratilgan yangi konsepsiyalarda Shuts qarashlari, ya'ni "tiriklik olami" inson hayotiy faoliyatining olami sifatida qat'iy bo'lgan va kishilar ijtimoiy xulqiga o'z tasirini ko'rsatayotgan ijtimoiy qonun-qoidalar "tizim"ga qarshi qo'yila boshlandi. Ilm-fan taraqqiy etib, kishilik jamiyati murakkablashib borayotgan davrda sotsiologiya faniga hali ham obyektivizm sotsiologiyasi asosida, ya'ni qat'iy ijtimoiy-tizimiy yondashuv (asosan, tabiiy fanlarga tegishli bo'lgan) asosida ish ko'rish jamiyatning asl mohiyatini to'liq ochib bera olmaydi. Sotsiologiyani faqat tabiiy fanlar qonuniyati asosida o'rganish natijasida bugungi kunga kelib bu fan "hayotiylikni, tirik bo'lishlik"ni sog'inishni boshladi.

Bu bo'limda biz, 2- va 3-§ da rejalashtirganimizdek, "oldinga yetaklovchi (reprezentativ) madaniyat"ni va u bilan jamiyatning o'zaro bog'liqligini, sotsiologiyaning asosiy rivojlanish bosqichlarini madaniy-tahliliy jihatdan analiz qilib ko'rib chiqdik. "Oldinga yetaklovchi madaniyat"ning asosiy xususiyatlari bo'lmish tasavvur, g'oya, dunyoqarash, yondashuv kabilar kishilar tomonidan faol yoki nofaol qabul qilinganligiga qarab faoliyatli hisoblanadi. Boshqacha aytganda, "oldinga yetaklovchi (reprezentativ) madaniyat"ning bu xususiyatlari birgalikda hayotimizning vaziyatini aniqlab beradi. Agar keltirilgan fikrlar va dalillar haqqoniy bo'lsa, unda sotsiologiya fanining madaniy-tahliliy analiz jihati an'anaviy hisoblangan obyektivizm sotsiologiyasiga nisbatan ancha kenroq va chuqurroq ekanligi ma'lum bo'ladi. Chunki u ijtimoiy jarayon va hodisalarning kelib chi-

¹ Schütz A. Collected Papers. — Hague: Nijhof. 1962. Vol. 1. 79-bet.

qishini nafaqat obyektivlik asosida, balki ularning kelib chiqish holatlarini, vaziyatlarini va ularning kelib chiqishiga turtki bo'lgan sabablarini ularning ichidan, ildizidan turib o'rganishni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Savol va topshiriqlar:

1. Ogyust Kontning “Uch stadiya qonuni” asarining o'ziga xosligi nimalarda ko'rinadi? Ushbu asarda ko'rsatib o'tilgan teologik, metafizik va pozitiv bosqichlarda madaniyatga berilgan baho.

2. An'anaviy sotsiologiya va obyektivizmda jamiyat va madaniyat hodisasining bog'liqlik jihatlarini ko'rsatib o'ting.

3. Veber va tushunarli sotsiologiya haqida to'xtalib o'ting.

4. “Protestantlik etikaksi va kapitalizm ruhi” asarida ko'rsatilishi bo'yicha G'arbiy Yevropadagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar. Bu asarning o'ziga xos jihatlarini yoritib bering.

5. Klassik sotsiologlarning ko'rsatishi bo'yicha jamiyat rivojida tabiiy fanlar qonuniyatining tutgan o'rni?

6. Madaniy-tahliliy sotsiologiya tarafdorlari qarashlarida jamiyatning vujudga kelishiga sabab bo'lgan asosiy omil?

7. Veber ijodida kalvinizm g'oyalarining ko'rinishlari.

8. Kalvin: protestantizm va katolizm haqida.

9. Veber o'z asarida Bendjamen Franklinning fikrlarini nima uchun tadqiq qiladi? Bendjamen Franklinning sitatasining asl mohiyatini tahlil qilib bering.

10. Shuts va Gusserlning “tiriklik va hayotiylik” g'oyalarining mohiyatini bayon eting.

11. “Oldinga yetaklovchi (reprezentativ) madaniyat” haqida ma'lumot bering. Nima uchun zamonaviy sotsiolog va faylasuflar jamiyatning asosi sifatida “oldinga yetaklovchi (reprezentativ) madaniyat”ni ko'rsatishmoqda?

12. Sotsiologiya madaniyat haqidagi fan ekanligini asoslab bering.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: O'zbekiston, 1998.
2. Berger P., Luckman T. The social construction of reality. – New York: Doubleday, 1966.
3. Вебер М. Избранные произведения. – М.: Прогресс, 1990.
4. Webster's new collegiate dictionary. – Merriam: Springfield, Mass., 1977.
5. Дж. Локк. Избранные философские произведения в двух томах: Т. 1. – М.: Соц. Эк. Гиз., 1960.
6. G'arb falsafasi. (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q. Nazarov). – T.: Sharq, 2004.
7. Zapf W. Sozialstruktur // Grundbegriffe der Sozialologie / Hrsg. Von B. Scharfert. – Opladen: Leske & Budrich, 1986.
8. Schäfers B. Sozialstruktur und Wandel in der Bundesrepublik Deutschland. Shtuttgart, 1966.
9. Schütz A. Collected Papers. – Hague: Nijhof. 1962. Vol. 1.
10. Ионин Л. Г. Социология культуры: Учебное пособие. 2-е издание. – М.: Логос. 1998.
11. Ионин Л. Г. Георг Зиммел – Социолог. – М.: Наука, 1981. стр. 59.
12. Конт О. Курс позитивный философии// Родоначалники позитивизма. Вып. 4. – СПб, 1912. стр. 19
13. Merton R. K. Social theory and structure. – Glencoe: Free Press, 1936.
14. Tenbruck F. H. Repräsentative Kultur // Sozialstruktur und Kultur / Hrsg. Von H. Haferkamp. – Frankfurt am Main: Suhrkamp, 1990.
15. Falsafa qomusiy lug'at. (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q. Nazarov). – T.: Sharq, 2004.
16. Berking H. Kultur-Soziologie. Mode und Methode // Kultursoziologie – Symptom des Zeitgeistes / Hrsg. H. Berking, R. Faber. – Würzburg: Königshausen & Neumann, 1989.
17. Entoni Giddens. Sotsiologiya. – T.: Sharq, 2002.

III BO‘LIM. MAROSIM – TIMSOL – AFSONA

III. 1. Madaniyat va jamiyat hayotining muhim omili bo‘lgan marosim va marosimchilik

Marosim, an‘ana va turli odatlar tariximizning, madaniyat-imizning va, o‘z navbatida, ijtimoiy hayotimizning ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Ular jamiyat hayotida muhim o‘rin tutar ekan, mamlakat boshqaruvidan tortib to oddiy, insoniy turmush tarzi tartibotlarigacha belgilab bergan. Marosimlarni o‘rganish, ularning amaliy ahamiyatini, jamiyatda tutgan o‘rmini, bugungi kundagi shakl-shamoyillarini tadqiq etish, ijtimoiy hayotga keltirayotgan foyda yoki ziyonlarini aniqlash va, o‘z navbatida, ularga bo‘lgan jamiyat a‘zolarining munosabatlarini ilmiy tadqiq etish madaniyat sotsiologiyasi fanining oldida turgan muhim vazifalardan biri.

Marosim ijtimoiy va maishiy hayotdagi muhim hodisalarni nishonlash shaklidir. Tarixan marosim diniy tizimlarda vujudga kelgan. Ularda individning ijtimoiy tizim bilan aloqalari ifodalangan. Hozirgi jamiyatda marosim, asosan, maishiy turmush, siyosiy, ijtimoiy tizimlar hayotida namoyon bo‘ladi. Marosim tarkibi, odatda, timsoliy harakatlarning qat‘iy belgilangan paydarpayligidan iborat bo‘lib, raqslar, qo‘shiqlar, rasmlar, predmetlar, matnlardan tashkil topadi. Marosimning quyidagi asosiy turlari mavjud: diniy marosim, fuqarolik marosimlari, etnik marosimlar, siyosiy marosimlar va hokazo. Marosim turlari ko‘pincha bir-biri bilan qo‘shilib, ara-lashib ketadi. Marosim o‘zining dastlabki funksiyalaridan tashqari, qo‘shimcha funksiyalarni ham bajara boshlagan. Lekin marosim hamisha rasmiy

jarayon hisoblangan. Uni o'tkazayotgan individ uchun u hech qachon tom ma'noda qadrli bo'lmaydi, u faqat "kishi ko'ziga" o'tkaziladi. Ya'ni kundalik hayotda "marosim" atamasi chin ma'noda qadrli kuchga ega emas. Marosimlar kundalik hayotimizning katta qismini egallagan bo'lsa-da, ularning kamdan-kami bizning his-hayajon va tashvishlarimiz bilan bog'liq bo'ladi.

Kishilarning kundalik va maishiy hayotidagi o'zaro aloqalari marosimlashganlik ko'rinishiga ega. Inson ziyolilashgan va madaniylashgan sari marosim uning hayotida shuncha ko'p ahamiyatga ega bo'ladi. Axloqiylik chegarasidagi mulozamatlilik hodisasi – bu maishiy hayotning marosimlashganlik holatidir, desak ham bo'ladi. Axloqli odam suhbat chog'ida hech qachon o'zining shaxsiy muammolari haqida so'z ochmaydi, hattoki uning muammolari suhbat olib borilayotgan mavzudan ming chandon muhimroq va u uchun ahamiyatliroq bo'lsa ham. Axloqli odam parik kiygan kishilar oldida kallar haqida gapirmaydi. Axloq himoya murvatining bir turi bo'lib, undan odamning kamchiliklari hammaga beayov namoyish qilinmasligi umidida foydalaniladi. Demak, kundalik xulq-atvor tasodifiy holat emas, u, biz yuqorida aytganimiz, kishi turmush tarzining marosimlashganligi natijasidir. Xo'sh, unda savol tug'iladi: kishi kundalik hayotidagi muloqot marosimlashganlik xususiyatiga ega bo'lsa, u ijobiy xarakterga egami yoki salbiy? Marosimni ijobiy yoki salbiy xususiyatga ega, deb uni ikkiga ajratish – judda qiyin masala. Qachonki axloqiylik chegarasidan chiqmagan mulozamatni hamda soxtalik va ikkiyuzlamachilikni bir-biridan ajratib bo'lmas ekan, unda marosimning ijobiy yoki salbiy xususiyati haqida fikr yuritishning o'zi noo'rindir.

Marosimchilik va urfchilikni uch xil ma'noda tushunsa bo'ladi: birinchidan, marosimchilik kundalik hayotda shaxslararo amalga oshiriladigan muloqotning asosiy prinsipi, qoidasi sifatida baholanadi; ikkinchidan, marosimchilikka moslasha oluvchanlik (adaptatsiyalashuvchanlik) shakli sifatida

qaraladi; uchinchidan, marosimchilik (urfchilik) kishilarning yoki jamoalarning “rasm-rusumlar – bajarilishi kerak bo‘ladigan jarayon”, deb unga qadriyatchilik nuqtayi nazaridan yondashishlarini bildiradi. Birinchi ma’no haqida to‘xtalamiz. Buning uchun, avvalo, Garfinkel o‘tkazgan tajribalardan birini misol sifatida keltiramiz: eksperimentatorga (eksperiment o‘tkazilishi kerak bo‘lgan kishiga) qarama-qarshi kelayotgan tanishi agar undan hol-ahvol so‘rasa, eksperimentator unga javoban hol-ahvol so‘ramasdan, balki hol-ahvol so‘rashning o‘rniga, tanishiga bir necha savollar berish kerakligi tayinlangan.

Tanish: Ishlar qalay?

Eksperimentator: Qaysi ma’noda so‘rayapsan? Sog‘lig‘im-nimi, moliyaviy ishlarim, o‘qishimnimi, xotirjamliknimi?

Tanish: (qizarib ketgan va o‘zini yo‘qotayozgan tarzda) Shunaqami?! Men o‘zimni faqat xushmuomalali qilib ko‘rsatmoqchi edim. Rostini aytsam, sen o‘zingni qanday his qilishingga tumpurdim!

Bu misoldan ko‘rinyaptiki, marosimgarchilikdan aholining asosiy qismi faqat namoyishkoronalik uchun foydalanishar ekan.

Marosimgarchilikning ikkinchi ma’nosini ochishda R. Merton bergan ta’rifidan foydalanamiz. Unga ko‘ra, marosimgarchilik bu individual moslashuvchanlikning bir turidir. Ya’ni individ biron-bir o‘zi istagan maqsadga erisha olmasligi tufayli yoki bunga uning qobiliyati va iqtidori yetishmasligi sababli bu maqsadlarni rad etadi, lekin shu maqsadga erishish uchun bajarilishi kerak bo‘ladigan barcha qonun va qoidalarni so‘zsiz bajarib yuraveradi. Chunki bunda individ o‘zini himoyalangandek, talab qilingan marosimlarni to‘liq bajarsa, o‘z maqsadiga erishishi mumkin bo‘ladigandek his qiladi¹. Masalan, ishida muammolarga duch kelgan odam omadi kelishi uchun barcha kerak bo‘ladigan marosim va irm-sirimlarni bajaradi. U hattoki bu

¹ Shuts davom ettirgan “tiriklik, hayotlilik olami” haqidagi g‘oyani birinchi bo‘lib Gusserl aytgan.

marosimlarning unga yordam berishiga shubhalansa ham, ularga to'liq amal qiladi. Bu vaziyatda marosimlar individga yordam bersa-bermasa, sun'iy tarzda bajarilib yurilaveradi. Yoki ishga yangi qabul qilingan individ ushbu korxonaning "o'ziniki" bo'lib ketishi uchun u yerda qabul qilingan barcha marosimlarni (bu marosimlar unga yoqish yoki yoqmasligidan qat'i nazar) to'liq bajaradi, boshqacha aytganda, u individual moslashuvchanlikni ishga soladi.

Uchinchi ma'noda, marosimgarchilik (urfchilik) atamasi kundalik hayotda hech qanday amaliy ahamiyati va qadrlil xususiyati qolmagan, lekin kelib chiqishi va xususiyatiga ko'ra an'anaga aylanib qolgan qonun-qoida hamda me'yorlarga rioya qilish va ularning doimiy bajarilishiga aytiladi.

Bu tarzdagi marosimgarchilikdan ko'p holatlarda, eski tizimni yangisiga o'zgartirishni istamaydigan turli lavozimdagi hokimiyat egalari foydalanadilar. Turli ko'rinisdagi marosimgarchilik va rasmiyatchiliklar hokimiyat egalarining shaxsiy manfaatlariga mos kelgani uchun ham ular bu marosimlarni, zamon talablariga javob bermay qolganligiga ham qaramasdan, nishoshlab kelishadi. Hokimiyat egalari o'z xatti-harakatlarini oqlash uchun bu marosimlarning an'anaga va urfga aylanib qolganligini, ular qachonlardir ish berganligini ro'kach qilishadi va shuning uchun ham nishonlab kelinayotgan marosimlarni, an'anaviy boshqaruv tizimini (ko'p holatda davr talabiga javob bermay qolgan) qo'llab-quvvatlab kelishadi.

Taraqquiyot bor ekan, vaqt oldinga qarab yurar ekan, hamisha rivojlanish sari intilish va eski rasm-rusmchilikdan voz kechish kerak. Chunki eskirib qolgan an'analarning doimiy bajarilib kelinishi jamiyat a'zolarini ortiqcha qiynab qo'yishi mumkin. Shuni unutmaslik kerakki, har qanday rasm-rusumlar va marosimlar ijtimoiy hayotni yengillashtirish uchun yaratiladi. Ular bir necha yillar davomida vaqt sinovidan o'tib, insonlar hayotini yengillashtirish uchun xizmat qilishi isbotlangandan so'nggina,

barcha talablarga javob bera olgandan so‘nggina jamiyat hayotiga va a‘zolariga singdiriladi. Kishilik jamiyatiga foyda keltirmaydigan, uni taraqqiyotga yetaklamaydigan marosim va odatlarni tarixiy an‘anamiz, deb saqlab yurish yaramaydi. Shuning uchun ham respublikamiz hukumati tomonidan bir necha yillardan beri nishonlab kelinayotgan, lekin bugungi kunda amaliy ahamiyati va foydasi qolmagan ba‘zi bir marosimlarning, jumladan, charlar, qiz oshi va hokazolarni qisqartirib, meyyorga keltirishga bo‘lgan faoliyatlar bejiz emas.

III. 2. Marosimlar va ijtimoiy institutlar

Ma‘lum bir faoliyat tizimini, uning hayotiy “mavjudlik” xususiyatidan ajratib olib marosimlashtirilishi – bu uning ijtimoiy institut shakllaridan biriga aylanganligidan dalolat beradi. Marosimlarning ijtimoiy institutlashtirilishi turli xil individual qizi-qishlarning tartibga solinishini va ijtimoiy hayotning tartibini bildiradi.

Marosimlar va ijtimoiy institutlar haqida to‘xtalishdan avval, ijtimoiylikni keltirib chiqargan mazmun o‘zi nima ekanligini aniqlab olsak. Mazmun bu individlarning qiziqishlari, maqsadlari, intilishlari, ruhiy holatlari va his-hayajonlari yig‘indisini bildiradi. Mazmun hamisha aniq ko‘rinishga ega bo‘lib, ko‘pincha ijtimoiy bo‘lmaydi. U individual, ya‘ni faqat bir kishiga tegishli bo‘lgan holatda keladi. Ochlik, sevgi, mehnat, diniy e‘tiqod, texnik qurilmalar va boshqa narsalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri umumiylikka tegishli bo‘lgan narsalar emas. Bu narsalar jamoa ichida yashab turib, o‘zini va o‘z his-tuyg‘ularini hamma narsadan chegaralab olgan individlarga ta‘sir ko‘rsata olsa va ularni birgalikda yashab ijod qilishga unday olsa, umumiya tegishli tuyg‘u va jarayonlar hisoblanishi mumkin. Sotsiolog olim G. Zimmelning ta‘kidlashiga ko‘ra, ijtimoiy mohiyat – bu materiya

yoki, boshqacha aytganda, ijtimoiylik energiyasi tartiblangan jamoaviy ifodaning *shakl* tarzida kelishi va jamiyat tomonidan qabul qilinishidir¹.

Zimmel nazarda tutgan shaklni yoritib berish oson kechmaydi. O'z izlanishlarida o'nlab (fan, moda, munozara, qonun, odat, ma'naviyat va hokazolar kabi) turli ijtimoiy shakllarni o'rgangan Zimmel barcha shakllar uchun na bitta umumiy ta'rif berdi va na barcha ijtimoiylashgan shakllarni tasniflab, ularni bir tizimga soldi. Buning o'rniga u ijtimoiy shakllarni jamoalashtirilgan shakllar, deb nomlab, uning ostida shakl yordamida mazmun jamoalashtiriladi, deb hisobladi. Ya'ni his-hayajonlar, tashvishlar, sabablar, maqsadlar, intilishlar, individual insonga tegishli bo'lgan tuyg'ular shakl sifatida qabul qilina boshlanganda, butunlay jamoaviy faktlarga aylanadi va, tabiiyki, natijada jamoalararo aloqalarga ta'sir ko'rsatadi².

Shakllar haqida Zimmel uch xil baho bergan. Birinchidan, vaqt sinovidan o'tib "suyagi qotgan" va natijada marosimga aylangan shakl, aslida, hayotning o'zidan kelib chiqqan bo'ladi va qochonlardir xalq orasida amaliy ahamiyatga ega bo'lgan bo'ladi; ikkinchidan, marosimga aylangan shakllar marosimonalik xususiyatini olgandan so'ng, o'z xususiyatlarini va maqsadlarini yo'qotib, "puch", amaliy foydasi bo'lmagan shakllarga aylanadi; uchinchidan, ular o'z tuzilishini va "materiyalari"ni boshqalarga singdirish orqali hayotga ta'sir ko'rsata boshlaydi³.

Zimmel o'zi o'rganib chiqqan o'nga yaqin shakllarga, ya'ni fan, san'at, huquqqa bergan ta'rifini boshqa ijtimoiy institutlarga ham bersa bo'ladi, bularga oila, ta'lim, sog'liqni saqlash institutlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Albatta, bu institutlar o'z-o'zidan vujudga kelmagan, ular zamonaviy ko'rinish va

¹ Qarang: Merton R. K. *Social theory and structure*. – Glencoe: Free Press, 1936. 131.

² Qarang: Зиммель Г. Общение пример или Формальной социологии // Социологические исследования. 1984. № 2. 171 s.

³ Qarang: Ионин Л. Г. Георг Зиммель – социолог. – М.: Наука, 1981. 59 стр.

mazmunga ega bo'lgunga qadar uzoq va og'ir masofani bosib o'tgan. Ularning shaxsiy, mustaqil rivoji hayotiy mavjudligidan hayotiy mazmunlarini ajratib olgandan so'ng yo'lga qo'yildi.

Ijtimoiy institutlar marosimlashgan shakllar asosida vujudga keladi va shakllanadi. Ijtimoiy institutlar va institutsionallashish tizimi past darajada rivojlangan jamiyatlarda marosimlar ijtimoiy institutlar vazifasini bajaradi.

III. 3. Dyurkgeym: marosim va dinlar

Marosimlar bajaradigan vazifalarning turli-tumanligini tahlil qilib o'rgangan yagona sotsiolog olim Dyurkgeym hisoblanadi. O'z izlanishlarida Dyurkgeym ijtimoiylik jarayonining tabiatiga va diniy olamning tabiatiga e'tibor beradi. U o'zining e'tiborini kichik an'anaviy jamiyatlar dinlarini o'rganishga qaratgan. Masalan, Avstraliya mahalliy aholisi diniy marosilarini diniy hayotning eng elementar ko'rinishi sifatida o'rganar ekan, Dyurkgeym ularning olamni ikkiga, ya'ni muqaddas olamga va zohiriy olamga ajaratishi natijasida jamiyatni muqaddas, zohiriy hayotni esa yolg'on, sarob olam deb tanishini ko'rsatib bergan. Ya'ni avstraliyalik aboregenlar olamni, hayotni ikkiga bo'ladilar, bu – dualizm. Lekin ushbu dualizm o'z ifodasini, asosan, marosim va rasm-rusmlarda topadi.

Dyurkgeym dinni ijtimoiy tengsizlik yoki hokimiyat bilan bevosita bog'lamaydi. U dinni bir butun ijtimoiy institutlarning tabiati bilan bog'liq, deb biladi. O'z ishida, asosan, Avstraliya aborogenlarining totemistik e'tiqodlarini tahlil qilar ekan, totemizmga nisbatan oddiy din shakli, deb baho beradi.

Totemning dastlabki ma'nosi bu bir guruh kishilar uchun hayvon yoki o'simliklar ramziy ma'noga ega ekanligidir. Totem, odatda, o'zini o'rab olgan diniy rasm-rusmlar bilan diniy ehtiromlarini muqaddas diniy obyekt sifatida namoyon qiladi.

Dyurkgeym dinni ta'riflashda uni muqaddaslikka va dunyoviylikka qarama-qarshi qo'yadi. "Muqaddas narsalar va ramzlar, – deb ta'kidlaydi u, – odatdan tashqari dunyoviy sohani tashkil qilgan ruhiy obyektlardir". Totemlarni (hayvonlar va o'simliklarni) ovqat sifatida iste'mol qilish diniy marosimlardan tashqari vaqtda man qilinadi. Totemga, boshqa ovlash mumkin bo'lgan hayvonlarda va yig'ish mumkin bo'lgan o'simliklarda bo'lmagan xususiyatlar mavjud bo'ladi, deb hisoblanadi. Nega totem muqaddas hisoblanadi? Dyurkgeymga ko'ra, buning sababi shuki, u guruhning o'z ramzi yoki jamoaning muhim qadriyatlarini sifatida namoyon bo'ladi.

Kishilarning totemga bo'lgan izzat-hurmati haqida ularning ma'lum ijtimoiy qadriyatlarga bo'lgan ehtiromi, izzati tufaylidir. Dindagi sog'inish obyekti – bu haqiqatda jamiyatning o'zidir. Dyurkgeym shuni qat'iy takidlaydiki, dinni faqat e'tiqodlar to'plamidan iborat, deb tushunmaslik kerak.

Har qanday din uchun shu narsa xarakterliki, ularga ishonuvchi kishilar guruhi ishtirok etadigan doimiy takrorlanuvchi diniy marosimlar va urf-odatlar mavjud bo'lib, o'tkaziladigan bu rasm-rusmlar tufayli ularda guruhiy hamkorlik yuzaga keladi va u mustahkamlanib boradi. Rasm-rusmlar kishilarni dunyoviy hayot tashvishlaridan biroz bo'lsa ham holi qilib, ular o'zlarida yuksak oliy hissiyotlar dunyosini hosil qilib, oliy kuchlar bilan qo'shib ketish tuyg'usini his qiladilar. Bu oliy kuchlar, ya'ni totemlar, ilohiy mavjudotlar yoki xudo haqiqatda esa jamoaning shaxsga nisbatan ko'rsatgan ta'sirining in'ikosidir. Marosimlar va rasm-rusmlar, Dyurkgeym nuqtayi nazaricha, ijtimoiy guruh a'zolarining o'zaro hamkorligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Bu narsa shunday hodisalarga sabab bo'lishi mumkin, bundagi rasm-rusmlar faqat standart vaziyatlarda doimiy toat-ibodat qilishlarga emas, balki inson hayotida kechadigan boshqa muhim vaziyatlarda, insonning ijtimoiy ahvolidan yuz beradigan, masalan, tug'ilgan kuni, turmush qurishi yoki o'limi

kabi hodisalarda muhim o‘rin tutadi. Bunday marosimlar va rasm-rusmlar, amaliy jihatdan olganda, hamma jamiyatlarda mavjud. Dyurkgeym bundan shunday xulosa qiladi: kishilarning o‘z hayotlarini ma’lum darajada ro‘y beradigan o‘zgarishlarga moslash davrida foydalanadigan rasm-rusmlari va marosimlari, aslida, ularning guruhlar bilan bo‘lgan hamkorligini mustahkamlaydi. Dafn paytidagi diniy marosim shuni aniq ko‘rsatib beradiki, alohida kishi hayotining qadr-qimmati guruh yoki jamoa hayotiga oid qadr-qimmatlarga nisbatan vaqtincha ahamiyatga ega bo‘lib, shu bilan kishilarning yaqin kishisini yo‘qotganligiga rozi bo‘lishiga olib keladi. Kingadir taalluqli bo‘lgan, kimningdir o‘limi, motami bu o‘z-o‘zidan yuzaga kelgan qayg‘u yoki oddiy motam bo‘lmay, balki ma’lum guruhning a‘zosi boshiga tushgan majburiyat, ya’ni burch hamdir.

An’anaviy turga oid kichik madaniyatlarda, deb qayd qiladi Dyurkgeym, hayotning deyarli hamma tomonlariga din singib ketgan. Diniy marosimlar, bir tomondan, yangi g‘oyalar va tafakkur kategoriyalarini tug‘dirsa, ikkinchi tomondan, to‘plangan qadriyatlarni mustahkamlaydi. Din faqat his-hayajonlar va ish-harakatlarining davom etishida emas, balki u amalda an’anaviy kichik madaniyatlarda fikrlash usulini ham belgilab beradi. Hatto ba’zi umumiy falsafaiy kategoriyalar, shu jumladan, vaqt va fazo ham dastlab diniy tushunchalarda ifodalanadi. Vaqt tushunchasi, masalan, diniy marosimlarning davom etishini hisoblash zaruriyati tufayli paydo bo‘lgan.

Ijtimoiy progress rivojlangan sari, dinning ta’siri susayib boradi, deb hisoblaydi Dyurkgeym. Ilmiy tafakkur borgan sayin ko‘proq darajada diniy talqin qilishning o‘rnini egallab boradi. Diniy marosimlar va rasm-rusmlar inson hayotining tobora oz qismini egallab bormoqda. Dyurkgeym Marksning an’anaviy dinlar (ya’ni g‘ayritabiiy kuchlar va ilohlarga asoslangan dinlar) yo‘qolish arafasida, degan fikriga qo‘shiladi. “Eski xudolar o‘lishadi, – deb yozadi Dyurkgeym. – Shu bilan birga, ma’lum

ma'noda aytish mumkinki, – deydi u, – o'zgargan shaklda din, ehtimol saqlanib qoladi. Hatto jamiyatning hozirgi zamon turi ham ularning qadriyatlarini tasdiqlanuvchi va mustahkamlanuvchi diniy marosimlarga ehtiyoj sezadi. Demak, ehtimol eski va umri o'tgan marosimlar o'rniga yangi diniy marosimlar paydo bo'lishi mumkin". Dyurkgeym bu marosimlar qanday tus olishi haqidagi savola aniq javob bermaydi. U bunday gumanitar va siyosiy qadriyatlar tantana qilishini, erkinlik va tenglik, o'zaro hamkorlikning amalga oshirishini nazarda tutadi.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan ko'pchilik mamlakatlarda, ehtimol, fuqarolik dinlari, deb nomlangan dinlarni taraqqiy ettirish tezisini ilgari surishni, uni rag'batlantirishni istovchilar ham bor. Buyuk Britaniyada davlat bayrog'i, "ishonch va shon-sharaf yeri" ashulasi va shularga o'xshash urf-odatlar, marosimlar (toj kiydirish va shu kabilar) Britaniya turmush tarzining a'loligini ko'rsatish¹, an'anaviy diniy institutlar (masalan, ingliz cherkovi kabi) bilan ishonch munosabatlarini yaxshilash uchun har xil ramzlardan foydalanishadi.

Dyurkgeymning barcha asralarida din jamiyat tabiiy rivojlanishning mahsulidir, degan g'oyasi ilgari surildi. Uning fikricha, dinning muhim vazifasi – jamiyatni jipslashtirish va ijtimoiy rivojlanishga boradigan g'oyalarni ilgari surish. Dyurkgeym axloqiy qadriyatlarni saqlashda, insonni tarbiyalashda, "pozitiv birdamlik"ni qaror toptirishda dinning katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidladi. Dyurkgeymning "O'z joniga suiqaqd qilish" asarida o'z joniga suiqaqd qilish, asosan, psixologik ildizga ega ekanligi to'g'risidagi konsepsiyalarni keskin rad etib, o'z joniga suiqaqd qilishning sababchisi sotsial hayot, uning qadriyatli – normativ talablari, sotsial aloqaning muayyan darajada tezlashuvi ekanligini ko'rsatib bera olgan.

¹ Qarang: Зиммел Г. Общение пример или Формальной социологии // Социологические исследования. 1984. № 2. 117 стр.

III. 4. Afsonaviy timsollar yoki timsollashtirish nima?

Afsonaviy timsollar, yuqorida aytilgani kabi, kishi e'tiborini biron narsaga qaratish uchun yoki biron narsani aks ettirish uchun ishlatilmaydi. Ular umuman boshqa ma'no va mazmunga ega bo'lib, chin ma'nodagi timsollardan ko'ra boshqacha shaklda namoyon bo'ladi. Agarda timsollarga e'tibor bersak, unda "siymo" (tashqi olam, jism) bilan "g'oya" (ichki olam)ning o'zaro aloqasidan noaniq narsa paydo bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Aynan shu noaniq narsa ikkinchi bobda aytib o'tilgan "oldinga yetaklovchi (representativ) madaniyat"ning bir ko'rinishidir. Biz "oldinga yetaklovchi madaniyat"ni o'ziga xos bo'lgan g'oyalari, dunyoqarashlar, turli fikrlar yig'indisi, ular natijasida kishilarning fikrlash tarzi o'zgaradi va ular omma tomonidan, jamiyat tomonidan ayrim vaziyatlarda faol, ayrim vaziyatlarda esa nofaol tarzda qabul qilib olinadigan hodisa, deb baholagan edik.

Yangilik yaratuvchi, jarayon sari yetaklovchi bunday madaniyat shakli jamiyatni yaratmasa-da, hech bo'lmaganda, jamiyat bilan birikib, yagonalikni tashkil qiladi. Ya'ni jamiyat bilan madaniyatning o'zaro bog'liqligi, yagonaligi, ikki yarimning bir butun holatga kelishini bildiradi.

Zamonaviy jamiyatlarda timsollar hech qachon o'zi tasvir-layotgan buyumlarni yoki sohalarni (masalan, siyosiy soha, sog'liqni saqlash sohasi va hokazo) aynan tasvirlamaydi, balki ularning mazmunini bildirishga harakat qiladi.

Afsonaviy timsollar bilan "oldinga yetaklovchi (representativ) madaniyat" elementlarining o'zaro aloqasi natijasida "egizaklik" holati vujudga keladi. Ya'ni biologiya sohasidan misol keltirsak, har qanday tirik mavjudotning biron-bir organi boshqa tirik mavjudotning biron-bir organi bilan bir xil vazifani baja-

rishini aytishimiz mumkin. Masalan, inson qo‘li bilan maymunning panjasi, itning oldingi oyog‘i yoki qushning qanoti “*egizaklik*” holatini keltirib chiqaradi. Sotsiomadaniy hayotda egizak “organ”lar sifatida afsonaviy timsollar bilan “oldinga yetaklovchi madaniyat”ning elementlari kelishi mumkin.

Afsonaviy timsollashtirish – bu botiniy olam bilan zo-hiriy olamning qo‘shilishi va ikki olamning mazmunini bir tarzda ifodalashdir. Afsonaga asoslangan timsollar marosimlarning o‘zagini tashkil qiladi. Shu tariqa marosimlar mantiqsiz jarayonlar emas, balki biron-bir afsonaga asoslangan jarayonlarga aylanadi. Ayrim vaziyatlarda marosimlar diniy kultlarning¹ bir elementi sifatida ham tushuniladi. Marosimlarni tadqiq qiluvchi etnograf va antropolog olimlar esa, o‘z navbatida, istashsa-istashmasa, an’anaviy jamiyatlarning asosi bo‘lmish diniy kultlarga duch kelishadi. Natijada marosimlar o‘rganilishi jarayonida diniy kultlar ham o‘rganiladi va marosimlar diniy kultlarning bir qismi, elementi sifatida qabul qilinadi. Marosimlarni chuqur tahlil qilib o‘rgangan antropolog va etnograf singari sotsiolog olimlar nisbatan kam uchraydi. Marosimlar haqidagi ma’lumotlar sotsiolog olimlar: G. Zimmel va I. Gofman asarlarida ko‘proq uchraydi. Lekin bu ma’lumot kitobxonda kultlar, marosimlar va rasm-rusmlar zamonaviy jamiyatlarda uchramaydi, degan fikrni uyg‘otmasligi lozim. Marosimlarni amalga oshirish uchun yoki marosim rasm-rusmlariga rioya qilish uchun “narigi dunyoga” ishonish shart emas. Marosimlar timsollar va timsollar tizimi mavjud bo‘lgan hamda shu timsollar tizimi bilan hisoblashiladigan barcha jamiyatlarda mavjud.

Afsonalar fantastik tasavvurlar yig‘indisi emas. Ular real, haqi-qiydir. Chunki ular haqiqiy, real voqelikka ta’sir ko‘rsata oladi va uni ijobiy yoki salbiy tomonga o‘zgartira oladi. Albatta,

¹ Qarang: Giddens Entoni. Sotsiologiya: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma / Tarj. N. Mamatov va J. Begmatov. – T.: Sharq, 2002. 511-bet.

biz har qanday jamiyatni yoki tarixiy davrni shu davr ruhiyati bilan sugʻorilgan afsonaga asoslanmagan, faqatgina ilmiy yondashgan holatda baholashimiz mumkin. Lekin u holda biz shu davr haqida haqiqiy, chin maʼlumotlarga ega boʻla olmaymiz. Masalan, Qadimgi Gretsiyaning ijtimoiy tuzumini faqatgina ilmiy jihatdan yondashib oʻrgansak, biz greklarning haqiqiy hayotini, dunyoqarashini va tarixini toʻliq va toʻgʻri tushuna olmay qolishimiz mumkin boʻladi.

Afsona mavhumlik emas, u faqatgina fikr mahsuli ham emas. Afsona bu oʻylab topilgan narsa ham emas, balki u eng yorqin va chin haqiqatning oʻzginasidir. Masalan, bizning taomga boʻlgan munosabatimiz mavhum, bizning taomga nisbatan boʻlgan istak va xohishimiz ham mavhum. Bizning ovqatlanish va qorinimizni toʻydirish ehtiyojimiz esa mavhum emas, albatta. Demak, taomga boʻlgan munosabat mavhum, lekin unga nisbatan boʻlgan ehtiyoj konkret va realdir.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan xulosa qilib aytish mumkinki, afsona bu aniq va ravshan boʻlgan haqiqiy voqealidir. U his qilinadigan, ashyoviy, jismoniy real boʻlgan, aniq va konkret fikrlar yigʻindisidir. Bu fikrlar yigʻindisi aslo mavhum emas. Ular, aksincha, oʻz haqiqatiga, qonun-qoidasiga va tizimiga egadir.

Savol va topshiriqlar:

1. Madaniyatda afsona va marosimlar.
2. Zamonaviy madaniyatda marosimchilik xususiyatlarining koʻrinishi.
3. Ijtimoiy sohalarning oʻzaro aloqadorligida marosim elementlari koʻrinishlari.
4. Marosimlar va ijtimoiy institutlar: oʻxshashlik va qarama-qarshilik.
5. Turli xil falsafiy oqimlarda afsona tushunchasi.
6. A. F. Losev qarashlarida afsona tushunchasi.
7. Afsonaning ijtimoiy funksiyalari.

8. Zamonaviy jamiyatda afsonalar shakli. Milliy afsonalar.
9. Afsonalar va timsollar, ularning o‘zaro aloqadorliklari.
10. Afsonaviy timsollar haqida ma’lumot bering.
11. Zamonaviy timsollar va timsollashtirish nima?

Adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – T.: O‘zbekiston, 1998.
2. G‘arb falsafasi. (Tuzuvchi va mas‘ul muharrir Q. Nazarov). – T.: Sharq, 2004.
3. Зиммел Г. Общение, пример или формальной социологии // Социологические исследования. 1984. № 2. стр. 171.
4. Ионин Л. Г. Социология культуры: Учебное пособие. 2-е издание. – М.: Логос, 1998.
5. Merton R. K. Social theory and structure. – Glencoe: Free Press, 1936.
6. Радугин А., Радугин Н. Социология. Курс лекция. – М., 1996.
7. Social behavior and personality. W. Tomas’ contribution in social theory. – New York, 1951.
8. Skirbek, G., Gile N. Falsafa tarixi: oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘ll. – T.: Sharq. 2002.
9. Ортега-и-Гассет Х. Восстание масс. – М., 1991.
10. Пугаченко Г., Ремпел Л. История искусств Узбекистана. – М., 1965.
11. Рождественский Ю. В. Введение в культуроведение. – М., 1996.
12. Тайлор Е. Первобытная культура. – М., 1984.
13. Тойнби А. Постижение истории. – М., 1991.
14. Tulenov J. Falsafa tarixi. //Bakalavrlar uchun ma’ruza. – T., 2001.
15. Falsafa: (O‘quv qo‘llanma.) // E. Yusupovning umumiy tahriri ostida. – T.: Sharq, 1999.
16. Falsafa qomusiy lug‘at. (Tuzuvchi va mas‘ul muharrir Q. Nazarov). – T.: Sharq, 2004.
17. Entoni Giddens. Sotsiologiya. – T.: Sharq, 2002.

IV BO‘LIM. MADANIYAT – JAMIYAT – IJTIMOIY FIKR

IV. 1. Jamiyatda ijtimoiy fikr yoxud jamoatchilik fikri tushunchasining o‘rni

Ijtimoiy fikr – ommaviy ongning ijtimoiy ahamiyatli muammolari bo‘yicha fikrning shakllanishi va uning ijtimoiy muhitga ta’siri bilan bog‘liq holatdir.

Ijtimoiy fikrning bunday talqini hozirgi paytda mamlakat sotsiologik adabiyotlarida umume’tirof etilgan. U ijtimoiy fikrning sobiq sovet sotsiologiyasida qabul qilingan, shakllanishida jamoatchilik fikri egalarining sinfiy pozitsiyasi yetakchi rol o‘ynaydigan tushunchasidan jiddiy farq qiladi. Bunda gap ushbu hodisaning odatiy tarixiy-materialistik doktrinaga xos sinfiy tabiati ko‘rsatilishida ham emas. Asosiy farq shundaki, hozirgi yondashuvlar doirasida ijtimoiy fikr, birinchidan, fikr aytish (bu ommaviy fikr bildirish erkinligini anglatadi) bilan bog‘liq bo‘ladi va, ikkinchidan, bunda gap ijtimoiy hayotning dolzarb muammolari to‘g‘risidagi fikr haqida boradi.

Avvalgi – sobiq sovet variantida esa ijtimoiy fikr (jamoatchilik fikri) aholining u yoki boshqa muammoga munosabati sifatida qaralgan. Bu munosabat ommaviy ravishda bayon qilinadimi yoki sotsiologlar tomonidan anonim so‘rov jarayonida qayd etiladigan sukut bilan munosabat bildirishmi, degan masala ko‘pincha noaniq qolib kelgan edi. Ayrim asarlarda esa kishilarning ijtimoiy voqelikdagi voqea-hodisalarga hamda faktlarga ochiq emas, balki yashirin munosabati ijtimoiy fikr deb hisoblanishi

ta'kidlangan. Bunda u haqidagi mulohazalar jamoatchilik fikriga yo'yilgan muhokama predmeti arziyas bo'lib qoladi.

Ijtimoiy fikrni bunday tushunish jamiyatda kishilarning ijtimoiy hayot voqea va hodisalariga nisbatan yuzaga kelgan munosabatini aks ettiruvchi qandaydir xalq fikri mavjudligi to'g'risidagi odatiy tasavvurlarga yaqin. Bunday xalq fikri har qanday jamiyatda mavjud.

Gap shundaki, ijtimoiy fikr alohida ijtimoiy hodisa va ijtimoiy institut sifatida har qanday jamiyatda ham mavjud bo'lavermaydi, chunki u kishilar oila yoki do'stlarning tor, xususiy doirasida almashadigan, shunchaki, shaxsiy fikrlar yig'indisi emas. Ijtimoiy fikr ijtimoiy ongning ommaviy ifodalanadigan va jamiyatga hamda uning siyosiy tizimi amal qilinishiga ta'sir ko'rsatadigan holatidir. Aholining aynan ijtimoiy hayotning o'tkir, dolzarb muammolari bo'yicha oshkora, ommaviy fikr bildirish imkoniyati va aholining eshittirib aytilgan shu pozitsiyasining ijtimoiy-siyosiy munosabatlar rivojlanishiga ta'siri ijtimoiy fikrning alohida hodisa va ijtimoiy institut sifatidagi mohiyatini aks ettiradi.

Sotsiologiyada ijtimoiy institut deganda barqaror, ya'ni tasodiflardan kafolatlangan, o'zini o'zi yangilaydigan xususiyatga ega bo'lgan munosabatlar tizimi tushuniladi. Ijtimoiy fikrga tatbiqan, gap jamiyatda ijtimoiy ahamiyatli muammolarga ular bo'yicha jamiyatning manfaatdor a'zolari tomonidan fikr bildirish yo'li bilan munosabat bildirishning alohida mexanizmi vujudga kelgani haqida boradi. Aholining bunday munosabati tasodifiy, sporadik xususiyatga ega bo'lmay, balki ijtimoiy hayotning doimiy amal qiluvchi omilidir. Bu yerda so'nggi masala izohtalabdir. Ijtimoiy fikr haqida ijtimoiy hayot omili sifatida gapirganimizda, ijtimoiy fikr ijtimoiy hayotning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi to'g'risida gap boradi. Ijtimoiy fikrning ijtimoiy institut sifatida amal qilishi u o'ziga xos "ijtimoiy hokimiyat", ya'ni "iroda ato etilgan va ijtimoiy o'zaro ta'sir subyektlarining xulq-atvorini o'ziga bo'ysundirishga qodir bo'lgan hokimiyat"

sifatida amal qilishini bildiradi. Bu jarayon, birinchidan, siyosiy hokimiyat zo‘ravonligidan xoli bo‘lgan fuqarolik jamiyati mavjud bo‘lgan joyda va, ikkinchidan, hokimiyat jamiyatning pozitsiyasi bilan hisoblashadigan joydagina bo‘lishi mumkin. Shu ma’noda, biz ijtimoiy fikr haqida gapirganimizda, fuqarolik jamiyati instituti to‘g‘risida gapirgan bo‘lamiz.

Ijtimoiy fikr institutining mavjudligini fuqarolik jamiyati (ya’ni tarixan burjua jamiyati) va shunday jamiyat uchun xos bo‘lgan individlar (fuqarolik jamiyati a’zolari) erkinligi mavjudligi bilan bog‘lovchi ilmiy an’ana Gegeldan boshlangan bo‘lib, u “Huquq falsafasi”da, jumladan, bunday deb yozgan: “Zotan, alohida shaxslar umumiy ishlar to‘g‘risida o‘z fikrlariga, mulohazalariga egaligi va ularni ifodalashdan hamda ular borasida maslahat bera olishidan iborat bo‘lgan rasman subyektiv erkinlik ijtimoiy fikr, deb ataladigan birlikda namoyon bo‘ladi”. Bunday erkinlik xususiy (individual va guruhiy) manfaatlarining davlatdan farqli, mustaqil, nosiyosiy sohasi bo‘lgan fuqarolik jamiyati qaror topganicha yuzaga keladi.

XIX asr fransuz jamiyatshunos olimi A. Sovinning fikricha, jamoatchilik fikri o‘z ijtimoiy-siyosiy g‘oyalari va nuqtayi nazarlarini targ‘ib etish imkoniga ega bo‘lgan har qanday guruh tomonidan ham shakllantirilishi mumkindir¹. Angliyalik faylasuf D. Lokk jamoatchilik fikri ta’sir doirasini toraytirib tushuntirishga urinadi. Uning fikriga ko‘ra, jamoatchilik fikri jamoa axloqiy qarashlarining ifodasidan boshqa narsa emas².

Jamoatchilik fikriga adabiyot va san’at, siyosat va diniy muassasalar arboblari ham turlicha izoh va ta’rif berishga harakat qilgan, zero, aksariyat hollarda adabiyot, san’at borasidagi

¹ Kultlar o‘ziga xos muhim xususiyatlarga ega emas. Ular diniy uyushmalarning barcha tiplari orasida eng erkin va o‘zgaruvchani hisoblanadi. Ularga o‘z atrofidagi dunyoning qadriyatlarini inkor qiladigan odamlar mansub bo‘ladi. Ularda asosiy e’tibor individual tajribaga qaratiladi, bu esa fikrlash tarzi bir-biriga yaqin odamlarning birlashishiga olib keladi.

² Sapvy A. L’opinion public. – Paris, 1956. P. 5 – 9.

iste'dodli asarlar, muhim ijtimoiy-siyosiy voqealar, diniy qoida va qarashlar tevarigida ham kuchli jamoatchilik fikri shakllanishi, jamiyatda muayyan ijtimoiy rezonans tug'dirishi tabiiydir.

Nemis olimi Gegel ijtimoiy hayot sohalarining ba'zilarida, xususan, ilm-fan muammolariga yondashishda jamoatchilik fikridan foydalanmaslik nuqtayi nazarini ilgari suradi. U ilm-fan chuqur tekshirilgan, atroflicha tadqiq etilgan ma'lumotlar negizidagina takomil topishini ta'kidlaydi. Aksariyat hollarda jamoatchilik fikri "maxsus tayyorgarlikdan o'tmagan kishilar fikr-mulohazalarining jamuljami sifatida ko'pincha tasodifiy faktlar, tasdiqlanmagan xabarlar, fisq-fasod va g'iybatlar asosida ham shakllanishi mumkin"¹, deb uqtiradi.

Har qanday fikr o'z ko'lami va sifatiga ko'ra xususiy, guruhiy, mahalliy, milliy, tabaqaviy bo'lishi mumkin. Ularning har biri jamoatchilik fikriga aylanishi yoki jamoatchilik fikri yuzaga kelishi uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkinligini nazardan qochirmaslik maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, har qanday xususiy fikr jamoaviy mohiyat kasb etavermasligi, har qanday mahalliy, guruhiy fikrlar esa jamoatchilik fikriga aylanavermasligini ham e'tibordan soqit qilmaslik kerak.

Ingliz olimi G. Tard jamoatchilik fikri tarkibiy tuzilishi jihattidan jamoaviy mohiyatga ega ekanligi sababli to'da – olomon fikriga yaqin turadi², deb hisoblaydi.

Jamoatchilik fikriga berilgan baho haqida birinchi bo'limda ham to'xtalib o'tgan edik. Kitobxon agar yodga olsa, birinchi bo'limda omma va jamoatchilik haqida fransuz psixologi Le Bonning ham fikrlariga to'xtalib o'tganmiz. Le Bon kishilarning har qanday uyushuvini to'da, olomon deb baholaydiki, bunday nuqtayi nazar XIX asr so'ngidagi aristokratik intelligensiya ziyoli kiborlar ijtimoiy qarashlarining tabiiy ifodasidir.

¹ Дж. Локк. Избранные философские произведения в двух томах: Т. 1. – М.: Соц. К. Гиз., 1960. С. 356.

² Гегел. Сочинения, том VII. М.-Л.: Сотсекгиз, 1934. стр. 336.

Taniqli olim A. K. Uledov to‘da – olomon jamoatchilik fikri-ning tom ma‘nodagi subyekti bo‘la olmaydi, deya haqli e‘tiroz bildirib, olomon a‘zolari o‘rtasida umumiy manfaat va maqsadlarning yo‘qligi mazkur olomon nuqtayi nazarining jamoatchilik fikri darajasiga o‘sib o‘ta olmasligini ta‘kidlaydi. Biz bunday fikrga to‘la qo‘shila olmaymiz, negaki aksariyat hollarda kishilarning tasodifiy guruh va uyushmalari ham jamoatchilik fikrini izhor etishi mumkin. Ayni chog‘da, A. Uledovning to‘da va olomonning ijtimoiy xavfli chiqishlarini ularning dabdurustligi va kutilmaganligi sababli jilovlash, talab va fikrlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlash va boshqarish amrimaholdir, degan nuqtayi nazarini e‘tibor uchun qabul qilish lozimdir.

Demak, jamoatchilik hodisasining muhim tarkibiy va jaryoniy belgilaridan biri kishilarning ijtimoiy voqelik xususidagi tasavvurlarining nechog‘li haqqoniyligi, ularning mafkuraviy ta‘sir tazyiqlaridan holiligi hamda jamoaviy qarashlarning mazmunan yakdilligidan iboratdir. Alohida shaxs fikrining jamoa fikriga monand va aynanligi shu jamoaga uyushgan kishilar birligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu boisdan ham jamoatchilik fikri negizlaridan biri uning jamoaviy xususiyatga egaligi, unga har jihatdan mustahkam tayanishdir. Jamoa a‘zolarinng o‘zaro munosabatlari nechog‘li mustahkam, beg‘araz va tabiiy bo‘lsa, jamoaviy fikr ham shunchalik qat‘iy, kuchli va yaxlit mazmun kasb etadi.

Hozirgi vaqtda tashkil topgan jamoaviy fikr o‘z ma‘no va mazmuniga ko‘ra, burjua tuzumi rivojlangach, ijtimoiy fikr sifatida fuqarolik jamiyatida yuzaga keldi. O‘rta asrlarda kishining biron-bir tabaqaga mansubligi bevosita siyosiy ahamiyatga ega edi hamda uning ijtimoiy pozitsiyasini qat‘iy belgilab berar edi. Burjua jamiyati paydo bo‘lgach, tabaqalar o‘rniga rasman erkin va mustaqil individlardan tarkib topgan ochiq sinflar vujudga keldi. Bunday erkin, mustaqil, xususiy shaxslarning, mulkdor

individlarning mavjudligi – fuqarolik jamiyatining alohida instituti bo‘lgan ijtimoiy fikr shakllanishining zaruriy nisbatidir.

Jamoatchilik fikrining shakllanish jarayonlari murakkab va ko‘p qirrali. Agar ijtimoiy hodisa turli guruh, jamoalar taqdiri va manfaatlariga ta‘sir etuvchi mazmunga ega bo‘lsa, bunday jamoatchilik fikri xilma-xil nuqtayi nazar va mulohazalarning murossasiz bahslari jarayonida bamaylixotir shakllana boradi. Bunday bo‘lishiga sabab, avvalo, jamoalarning hayot o‘zgarishlariga iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tayyorgarlik darajalarining nomutanosibliigi hamda aholi qatlamlarida ijtimoiy voqelik hususidagi informatsiya – ma‘lumotlarning yetarli yoki yetarli emasligiga ko‘p jihatdan bog‘liqligi bilan izohlanadi. Ijtimoiy-siyosiy voqea va hodisalar xususida ma‘lumotlar nechog‘li kamchil bo‘lsa, fikrlar nomuvofiqligi va bahsi shu qadar keskinlasha boradi.

Shu boisdan ham muayyan ijtimoiy voqea xususida ma‘lumotlar miqdor va sifat jihatidan qanchalik to‘laqonli hamda ishonchli bo‘lsa, jamoatchilik fikri mantig‘i ham hayotiy haqiqatiga shunchalik muvofiq bo‘ladi hamda ijtimoiy o‘zgarishlar yo‘nalishiga ko‘proq va samaraliroq ta‘sir ko‘rsata oladi. Abu Rayhon Beruniy hazratlari ta‘kidlaganlaridek: “Xabar xabar-chilar sababli rost va yolg‘on tusini oladi”. Bu odat insonga xos, chunonchi, “birov o‘zi sevadigan bir tabaqaga minnatdorlik bildirmoqchi bo‘lib yoki yomon ko‘radigan bir sinfni xafa qilmoqchi bo‘lib ular to‘g‘risida yolg‘on xabar tarqatadi. U bu xabarni do‘stlik yoki dushmanlik natijasida tarqatgan bo‘ladi”¹.

To‘g‘ri, yolg‘on ma‘lumot muayyan ta‘sir kuchiga ega bo‘lib, jamoatchilik rezonansini namoyon etsa-da, bu hol o‘zining o‘tkinchi tabiatiga ko‘ra hamisha ham pirovard natijaga olib kelmaydi. Odatda, yolg‘on ma‘lumotlar shaxslar tomonidan xalqlarga ma‘lum statik tasavvur va tushunchalar turg‘un saqlanib turilishi uchun ular shuuriga atayin maqsadli singdirilib boriladi.

¹ Abu Rayhon Beruniy. 100 hikmat. – T.: Fan, 1993. 15-bet.

Ayrim tadqiqotchilar shaxs xatti-harakatlarining, odatda, ikki yoqlama, ya'ni, bir tomondan, jamoatchilik fikri orqali, ikkinchi tomondan esa, shaxsning o'z-o'zini baholash xususiyati orqali doi-miy e'tibor doirasida tutib turilishini unutmash lozimligini uqtiradilar. Ular fikricha, agar bu ikki baholash shakli o'zaro muvofiq tushsa, shaxsning ijtimoiy xatti-harakatlari umuminsoniy talablari doirasida, deb hisoblanishi, mabodo, baholash o'lchamlari o'zaro nomuvofiq kelib qolsa, shaxs sa'y-harakatlari ijtimoiy jihatdan zararli ekanligi qayd etiladi.

Jamoatchilik fikrining shaxsga ishonch va umidiy munosabati uning kishilar tashvishiga jonkuyar, beva-bechora, yetim-yesirga mehribon, xalq taqdiriga hamdard ijtimoiy kuch sifatida shakllanishiga imkon tug'diradi. Bu jihatdan jamoatchilik fikri jamiyat ma'naviyati va muayyan tuzum mafkurasining real, ta'sirchan omili sifatida kishilar ongida umuminsoniy axloq normalarini qaror toptirishda qudratli kuchdir. Jamoatchilik fikri vositasida umuminsoniy tamoyillar negizidagi axloqiy qarashlarning shakllantirilishi shaxsning jamiyat olididagi vazifalarini chuqurroq anglab olishiga, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar o'rtasidagi muqobil nisbat mavqeyini saqlay bilishiga qulay shart-sharoitlar yaratib beradi.

Jamoatchilik fikri vositasida har bir shaxs jamiyat va o'z jamoasi oldida, har bir jamoa esa o'z tarkibidagi a'zolar oldida bevosita hamda bilvosita omillar orqali bog'liq. Ma'lumki, jamoa fikri hamisha ham umumjamiyat miqyosidagi jamoatchilik fikriga (makrodunyo fikriga) o'sib o'tavermaydi. Makrodunyo jamoatchilik fikri esa jamoalardagi guruh fikr mazmunini o'zgartirishning, bu jarayonlarni zaruriy ijtimoiy yo'nalishlarda rivojlantirishning katta imkoniyatlariga ega.

Jamoatchilik fikrining tadrijiy shakllanish jarayonlari, odatda, quyidagi tartiblarda amalga oshadi: birinchi bosqichda ijtimoiy holat faqat hodisa ta'sirida alohida shaxslar ongida individual fikr taassurotlarining yuzaga kelishi; ikkinchi bosqichda alohida

shaxslar fikrlarining suhbat, bahs, muhokama, yig'in va mi-tin-glar vositasida jamoa fikriga aylanishi; uchinchi bosqichda esa jamoalar fikrining sifat o'zgarishiga yuz tutib, jamoatchilik fikriga aylanishini ifodalovchi nuqtayi nazarlar uyg'unlashuvi va birlashuvi jarayonlaridir.

IV. 2. Ijtimoiy fikr – ijtimoiy nazorat usuli sifatida

Ijtimoiy nazorat – jamiyatning sog'lom ijtimoiy tartibini ta'minlash maqsadida individ xatti-harakati va xulq atvoriga maqsadli ta'siri, individ ijtimoiylashuvining omili.

Ijtimoiy nazorat – kutishlar va jamiyatning o'z a'zolari xulq-atvoriga qo'yadigan talablari tizimi bilan ularning haqiqiy xulq-atvori o'rtasidagi nisbatlarni eng kam darajaga keltirish vositasi bo'lgan jarayon. Bunda ijtimoiy tartibga solish (normalar va boshqa ijtimoiy tartibga soluvchilarni yaratish va ularni haqiqiy ijtimoiy munosabatlarga nisbatan qo'llash jarayoni sifatida) va ijtimoiy nazorat (tartibga soluvchi tizim o'rtasidagi nisbatni hamda aniqlangan farqlarni eng kam darajaga keltirishni tekshirish sifatida) tushunchalarini farqlash zarur.

Jamiyat ijtimoiy nazorat tufayli tizim sifatida muvozanatli holatda saqlanib turadi. Ijtimoiy munosabatlarning muvozanati huquqiy, iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, axloqiy xarakterdagi ijtimoiy tartib-ga soluvchilar murakkab tizimi bilan tutib turiladi.

Biroq ijtimoiy nazorat shakllari faqat normativ tartibga soluvchilar emas. Masalan, T. Parsons ijtimoiy nazoratning qadriyatlar, ijtimoiy institutlar (mulk, oila, ijtimoiy fikr va hokazo) usullarini, qarindoshlik tizimlari, ijtimoiy ta'sir shakllari, ijtimoiy stratfikatsiya standartlari kabilarni ajratadi. Shu tariqa ijtimoiy normalar hamda qadriyatlar, shuningdek, o'zaro ijtimoiy munosabat shakllari va ulardan kelib chiqadigan ijtimoiy fikr talablari

institutsional shakl oladigan ijtimoiy institutlar ijtimoiy nazorat vositalaridan biriga aylanadi.

Bunda ijtimoiy amaldagi xulq-atvorni qandaydir o'zgarmas standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha bir tomonlama jarayon sifatida tushunish noto'g'ri bo'ladi. Ayrim kishilarning xulq-atvori jamiyat qadriyatlari va me'yorlariga moslashibgina qolmay, jamiyatning qadriyat-normativ tizimining o'zi jamiyatning ayrim individlari, ijtimoiy guruhlari, sinflari va qatlamlari xulq-atvori ta'siri ostida o'zgaradi. Shu ma'noda aytish mumkinki, ijtimoiy nazoratning maqsadiga – haqiqiy ijtimoiy munosabatlar va qadriyat-normativ kutishlar bilan jamiyat talablari o'rtasidagi muvofiqlikka ikki usul bilan erishish mumkin: 1) ijtimoiy munosabatlarni jamiyatda qabul qilingan normalar va qadriyatlarni muayyan maqsadni ko'zlab tashkil qilish yo'li bilan; 2) eskirib, o'zining ijtimoiylashuvchi ahamiyatini yo'qotgan normalar va qadriyatlarni o'zgartirish, qayta ko'rib chiqish hamda ularga asoslangan ijtimoiy institutlar va ijtimoiy o'zaro munosabatlar shakllaridan voz kechish hisobiga.

O'tish davridagi jamiyatlarda ijtimoiy nazorat bobida o'ziga xos vaziyat yuzaga kelmoqda. Bunday ijtimoiy nazorat maqsadini ro'yobga chiqarish – amaldagi ijtimoiy munosabatlarni jamiyatning qadriyat-normativ kutishlari hamda talablariga muvofiqlashtirish ushbu qadriyat-normativ kutishlar va talablar ko'pincha ziddiyatli xususiyatlarga ega bo'lishi bilan qiyinlashadi. Chunki o'tish davri jamiyatlari – ijtimoiy munosabatlarni integratsiyalashi mumkin bo'lgan qadriyatlar va normalar shakllanmagani holda, bir qadriyat-normativ tizimidan boshqasiga o'tayotgan jamiyatlardir. Biz buni o'zining avvalgi qadriyat yo'l-yo'riqlaridan mahrum bo'lgan va yangi axloqiy hamda ma'naviy tortilishi markazini azob bilan izlayotgan hozirgi O'zbekiston jamiyati misolida ko'rishimiz mumkin. Qadriyat yo'nalishlari ziddiyatli, ko'pincha esa qutblarga ajralgan bizning jamiyatda samarali ijtimoiy nazoratni amalga oshirish uchun

muvofiq bo'lgan, ko'pchilikka maqbul qoidalar va normalar hali shakllanib ulgurgani yo'q.

Bundan tashqari, ijtimoiy nazorat tizimining o'zida muvozanat buzilgan bo'lishi o'tish davridagi jamiyatlarga xosdir. Bunda ushbu tizimning ayrim bo'g'inlari: biron-bir normalar, qadriyatlar, ba'zan esa butun-butun ijtimoiy institutlar ham o'z vazifasini lozim darajada bajarmay qo'ydi. Masalan, jamoatchilikning o'z fikrini erkin namoyon qila olmasligi yoki bildirilgan jamoatchilik fikri hech qanday ahamiyatga ega emasligi, huquqning ijtimoiy og'ishlarni bartaraf etish, jinoyatchilikni jilovlash, ijtimoiy hayotda huquqiy erkinlik va adolatni ta'minlash bo'yicha o'zining nazorat qilish vazifalarini bajarishga qodir bo'lmasligi jamiyat uchun alohida xavf tug'diradi.

IV. 3. Axloq va ijtimoiy (jamoatchilik) fikrining o'zaro aloqadorligi

Axloqning jamoatchilik fikriga ko'rsatadigan ta'siri yoki teskari ta'siri masalasining batafsil tadqiqotiga kirishishdan avval axloq tushunchasining o'zi xususida qisqacha to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Axloq ijtimoiy ong shakli sifatida muayyan xalq, elat yoki uyushmaning asrlar davomida shakllangan xulq-atvor, xatti-harakatlar, his-tuyg'u va kishilar o'ratasidagi o'zaro real munosabatlar tizimini ifoda etadi. Axloq muayyan xalqning atrof-muhitga, kishilarga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlari majmuyi sifatida, bir jihatdan, mahalliy-milliy xususiyatga ega bo'lsa, ikkinchi jihatdan, millatning umumjamiyat talablariga uyg'un muvofiqligini ta'minlovchi umuminsoniy xususiyatga ham egadir.

Axloq va jamoatchilik fikri hodisalari uchun mushtarak manbalardan biri, tabiiyki, til hisoblanib, u ijtimoiy axborotni

saqlovchi, ifodalovchi va yetkazuvchi muhim vosita bo'lib, kishilar xatti-harakatlari, fe'l-atvorlarini (axloqiy ta'sir-tazyiq, ishontirish, tushuntirish, rag'batlantirish, jazolash va hokazo) boshqarish omilidir. Til muloqot kaliti, ijtimoiy munosabatlarga tarixiy-tabiiy ehtiyoj mahsulidir.

Axloq va jamoatchilik fikri hodisalarining bog'liqligi insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichi – ibtidoiy jamoa tuzumi va undan keyingi davrlarda namoyon bo'la boshlagan bo'lib, qabila hamda elatlar maishiy turmushi va ijtimoiy ongida o'z ta'sirini o'tkaza boshlagan.

Maishiy hayot doirasida axloq, asosan, quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'lgan: a) munosabatlar; b) xatti-harakatlar; v) faoliyat. Axloqiy sifatlar insoniy xatti-harakatlarda namoyon bo'lib, uning gnoseologik, iqtisodiy va ijtimoiy kelib chiqishi, hozirgi mavqe va axloqiy qarashlariga ishora va guvohlik berib turgan. Axloqiy sifatlar yoki xatti-harakatlar ilk kishilar tarixi, ya'ni insoniyatning zaminga dastlabki qadam qo'yishidan shakllanish bosqichiga kirgan va shu boisdan har bir xalq, elatlarda u o'ziga xos va betakroridir. Xuddi shuningdek, millat va elatlar ijtimoiy ongining muayyan holati hisoblanmish jamoatchilik fikri ham o'zining shakllanish manbalarining salmog'i, real kuchga aylanish sur'ati, uyushqoqlik darajasi, hissiy emotsional potentsiali hamda mantiqiy-intellektual asoslariga ko'ra milliy, iqlimiy, mahalliy hamda hududiy o'ziga xosliklarga egadir.

Axloq jamoatchilik fikriga ta'sir-tazyiq o'tkazish darajasiga erishgunga qadar uzoq tarixiy-tadrijiy yo'lni bosib o'tgan. Axloq mehnatni tashkil etishning ham muhim mezonini hisoblanib, muayyan ijtimoiy hamda texnologik tartib-qoidalarga rioya qilish, shaxsiy sifatlar, mas'uliyat va intizom fazilatlarini e'tiborga olish, mo'ljallangan rejalarni bajarish, yuqori faoliyat natijalariga erishish imkonini bajaradi.

Milliyligimizga xos bo'lgan axloq qoidalari nafaqat shaxsiy sifatidagi bir butunligi barqaror turmog'i, jamoaviy integratsiya

doirasida ham ruhiy-botiniy yaxlitlik saqlanmog‘i zarurligi, umumiy bir butunlik ko‘plab serjilo va mustaqil yaxlitliklar yig‘masidan iboratligini yorqin ifodalaydi. Jamoada shaxs bir butunligi yemirilmaydi, umumintilishlar negiziga qurbon etilmaydi, balki mantiqiy muvofiqlik mezonini doirasida uyg‘un birlashuv jarayoni tabiiy ravishda amalga oshiriladi.

Jamiyat jamoatchilik fikri orqali shaxs zimmasiga ijtimoiy tuzum, shakllangan axloqiy qarashlar, an‘ana va urf-odatlar mantiq‘idan kelib chiquvchi talablar, sa‘y-harakatlar, ish yuritish, turmush tutishda qator majburiyatlarni hisobga olish mas‘uliyatini ham yuklaydi. Axloqiy qarashlarning jamoatchilik fikrini hosil etishdagi imkoniyatlari qanchalik katta bo‘lsa, uning ommaga ta‘sir doirasi shunchalik teran va ta‘sirchan bo‘ladi. Shu boisdan ham har bir axloqiy talab va qoidalar jamiyat tomonidan to‘la ma‘qullangan va o‘zlashtirilgan bo‘lishi zarur. Axloqiy qoidalar kishilarning odatiy amali, urf-marosimi, kundalik yurish-turishi tartibiga aylanib qolgan hollarda mazkur masalalar yuzasidan shakllanuvchi jamoatchilik fikri to‘laqonli va yaxlit ijtimoiy hodisa qiyofasini kasb etadi. Zero, har qanday axloq qoidasi, xulq-atvor belgisi ham jamiyat tomonidan ma‘lum vaqt mobaynida sinovdan o‘tib e‘tirof etiladi va shundan keyin jamoatchilik fikri hodisasining mezoniga aylanadi. Bunday hollarda jamoatchilik fikri jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy qoidalar, an‘ana va urf-odatlarining nechog‘li bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatadi.

Axloq va jamoatchilik fikrining o‘zaro ta‘sir va aloqadorlik me‘yori jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy shakllanishiga, jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotiga, holatiga, shaxslararo uyushuv darajasiga va, eng muhimi, ongning voqelikka bo‘lgan munosabatiga bevosita bog‘liq. Turli xalqlarda axloq qoidalari, talab va ehtiyojlar, hissiyot va fe‘l-atvor turlicha bo‘lgani kabi, jamoatchilik fikrining paydo bo‘lishi, shakllanishi va amal qilish kuchi, doirasi, zamondagi amal qilish davri turli millat, el-elatlar va hatto

urug'larda turlichadir. Xuddi shuningdek, jamoatchilik fikri turli davr hamda tuzumlarda boshqacha kuch va mazmunda namoyon bo'ladi. Jamoatchilik fikrini hisobga olmasdan ish tutish aksariyat hollarda misli ko'rilmagan falokatlariga olib kelishi mumkin.

Jamoatchilik fikri muayyan xalqlarda loaqal bir marta ijtimoiy-tarixiy amaliyot sinovidan o'tgandan so'ng, shu millatning axloqiy qoidalari tizimidagi mustahkam unsurga, millatning xarakter belgisiga, hissiy mayli, ichki olami yo'nalishlari xususiyatini belgilovchi omilga aylanadi.

Xulosa qilib quyidagilarni alohida qayd etib o'tish zarur:

– axloq jamoatchilik fikrining uyg'onish, shakllanish va amal qilishining uzviy manbalaridan sanalgani holda, xalq axloqi yaxlitligining yuzaga kelishida jamoatchilik fikri ham muhim o'rin tutadi, bu ikki ijtimoiy hodisa hamma holatlarda o'zaro mustahkam aloqada bo'lib turadi, bir-birini to'ldirib, boyitib boradi;

– jamoatchilik fikri o'zining shakllanish manbalarining salmog'i, kishilarning uyushqoqligi darajasi, aholining hissiy-emotsional potentsiali, mantiqiy-intellektual imkoniyatlariga, shuningdek, milliy, iqlimiy, mahalliy va regional shart-sharoitlarga bog'liqdir;

– axloq va jamoatchilik fikrining o'zaro aloqadorlik me'yori jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy shakllanishiga, taraqqiyoti uchun tanlangan rivojlanish dasturiga, mantiqiy yo'nalishlarning o'ziga xosligiga, xalq ma'naviyati va milliy o'ziga xosliklar omillariga bog'liq;

– jamoatchilik fikri xalq an'ana va urf-odatlariga mustahkam tayanadi va ularning jamiyat hayotida amal qilishiga imkoniyat yaratadi. Zero, an'analar-axloqiy qarashlarning progressiv jihlatlarini avloddan-avlodga yetkazuvchi muhim omili, xalqning o'ziga xos qiyofasini saqlab qolish va himoyalash mezonidir;

– axloq kategoriyasining muayyan urug', qabila va xalq miqyoslaridan xalqaro miqyoslarga o'sib o'tishida, umumin-

soniy tamoyillar negizidagi umumplanetar axloqning tarkib topishida jamoatchilik fikri o'ziga xos ko'prik vazifasini o'taydi. Ayni chog'da, jamoatchilik fikri va axloq jamiyatda umumiy murosa va madoraning turg'un maromini ta'minlash yo'lida o'zaro mutanosiblikda, tadrijiy takomil jarayonidagi muvofiqlikda rivoj topa boradi. Bir-birini to'ldiradi, bir-biriga uyg'un tarzda mukammallashadi.

IV. 4. An'ana, urf-odat va marosimlar hamda ijtimoiy (jamoatchilik) fikri

Biz yuqorda – uchinchi bo'limda marosim va an'ana haqida ma'lumotlar berib o'tganimizda, hali-hanuzgacha ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar haqida noaniqlik ko'p bo'lib, ularning hech qaysisi to'liq ta'rifga erishmaganligini ta'kidlab o'tgan edik. Biz ham o'z izlanishlarimizdan imkon qadar kelib chiqqan holda bu tushunchalarga izoh berishga harakat qildik.

An'analar – muhim ijtimoiy hodisa bo'lib, muayyan xalq, ijtimoiy guruh hayoti va faoliyatida o'z tarixiy o'rnini topgan, avloddan-avlodga o'tadigan, tabiiy takrorlanadigan hayotning barcha sohalarida qabul qilingan tartib va qoidalardir.

Urf-odat esa an'ana tushunchasidan mazmunan torroq bo'lsa-da, chuqur ma'noga ega bo'lgan ma'naviy hodisa sifatida kishilarning ehtiyojiga monand takrorlanib turuvchi va ko'pchilik tomonidan qabul qilingan harakat, ko'nikmalar majmuyidir. Odatda, hayotning turli sohalarida, ya'ni kishilar mehnati, turmushi, xulq-atvori, muloqoti va oilaviy munosabatlarida ko'proq zohir bo'lishi, ro'y berishda inertsiya tarzda ustunlik qilishi bilan xarakterlanadi.

Marosim – inson, jamiyat hayotidagi muhim voqealarni insoniy-lashtirishga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatida o'tadigan ramziy harakatlarga ega bo'lgan hayotiy tadbir-

dir. Qaror topshirish, mukofotlash, nikohdan o'tish kabi rasmiy va ramziy harakatlarda tashkil topgan ma'naviy tadbirlarni marosim shakllariga kiritish mumkin. Ma'raka esa jiddiy g'oyaviy-intellektual mohiyati, diniy-mafkuraviy mazmuni, inson hayotining muhim sanasi va burilish lahzalarini shaxs ong-shuuridan tashqaridagi ilohiy-ramziy qudratlar bilan bog'lash maqsadlarida nishonlanuvchi muhim ijtimoiy hodisadir.

Yuqorida izoh etilgan "an'ana", "odat", "marosim" hodisalari ijtimoiy ongning o'ziga xos holati bo'lgan jamoatchilik fikri bilan chambarchas bog'liq holda amal qiladi. Aksariyat jamoatchilik fikri ham aynan xalq marosimlari va bayramlari o'tayotgan vaqtda shakllanadi. O'z navbatida, jamoatchilik fikri xalq udumi va ma'rakalarining tarixan qat'iylashuvi, ijtimoiy hayotda mustahkamlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Marosim va bayramlar jarayonida namoyon bo'ladigan, kishilarning orzu-o'ylari, manfaati, e'tiqodi va hissiyotlari asosida shakllanadigan jamoatchilik fikri ancha mustahkam bo'ladi. Ayni vaqtda, milliy an'analar va jamoatchilik fikri hodisalarining o'zaro muvofiqlashadigan yoki to'qnashadigan joylari ko'p bo'lib, qator muammolar yuzaga kelishi ham tabiiy. Xususan:

1. Jamoatchilik fikrining marosim va an'analarning tarkib topishi va taraqqiyotiga ta'sir.

2. Xalq an'ana, marosim, bayramlari jarayonida jamoatchilik fikrining shakllanishi va burilishi holatlarini chetlab o'tib bo'lmaydi. Shu sababli mazkur muammolarning qo'yilishi va yechimi masalalariga diqqatni jalb etishga harakat qilamiz. Avvalo, ta'kidlash joizki, an'ana, marosim va bayramlar jarayonida jamoatchilik fikrining shakllanishi ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy, ruhiy omillar yordamida sodir bo'ladi. Ma'lumki, uzoq tarixiy jarayonda marosim, to'y-ma'raka va bayramlar aholi uchun nafaqat muhim, tantanavor yoki kommunikativ ijtimoiy hodisalar, balki yangiliklardan xabar topish, fikr almashish, dardlashish vositasi ham bo'lgan.

Marosimlar ichida to‘y marosimlari o‘ziga xosligi va jamoatchilik fikrining almasha olish darajasi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Chunki to‘y marosimlari ularni rejalashtirishdan boshlab to tugagunga qadar o‘zaro muloqot va fikr almashinuvdan iborat bo‘ladi. Agarda to‘y marosimlarida suhbat quriladigan mavzularni klassifikatsiya qilib chiqsak, ular quyidagi kategoriyalarga bo‘linadi:

- bo‘lajak tadbirlar bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar va o‘zaro muloqotlar;
- turmush tashvishlariga oid kundalik dolzarb mavzular va masalalar;
- oila va turmush muammolariga oid mahalliy, xususiy masalalar;
- dunyoviy va umumiysoniy muammolar;
- mamlakat ichki va tashqi siyosatiga doir masalalar bo‘yicha suhbatlar.

Taassufki, ko‘pgina marosimlarda mol olish, mol berish, sarmo qilish, sovg‘a ulashish, qalin so‘rash, ortiqcha xarajatlarga yo‘l qo‘yish, pul sochish singari xususiyatlarga birinchi galda e‘tibor qaratilib, odob-axloq, tarbiya, tomoshalar, kuy-qo‘shiq va raqslar kabi ma‘naviy atributlar ikkinchi navbatga tushib qolmoqda. Marosimlarni o‘tkazish jarayonlarida moddiy sarf-xarajatlarni muayyan me‘yorlarga keltirish va, ayniqsa, masalaning ma‘naviy-tarbiyaviy jihatlariga jiddiy e‘tibor qaratish lozimligi kun tartibiga chiqmoqda. To‘yning salbiy tomonlariga jamoatchilik fikrini qarshi qo‘ymoq, mazkur ahvol xalq ma‘naviyati, madaniyati tanazzulining mahsuli ekanligini keng targ‘ib etmoq zarur. Ma‘lumki, nafaqat ijobiy ijtimoiy fazilatlar an‘ana tarzida avlod suradi, balki jamiyatning salbiy unsurlari ham avloddan-avlodga o‘tib kelishi mumkin. XIX asr oxirida bosib olingan Turkiston o‘lkasida yuzaga kelgan ma‘naviy inqiroz, xalqning axloqiy talab va tamoyillaridan birmuncha

chetlashishi, ertangi kunga ishonchning susayganligi xalqimiz ziyolilari tomonidan o'z vaqtida ilg'ab olingan edi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ma'naviy-ma'rifiy holatiga jadidchilardan biri bo'lmish Behbudiy o'z munosabatini bildirar ekan, u milliy marosimlarimizdan joy olgan to'y marosimiga ham o'z bahosini berib o'tgan. Ma'rifatparvar ma'naviy tanazzulning yaqqol belgilaridan biri sifatida ortiqcha to'y-hashamlarga berilish ekanligini ko'rsatib, bunday illatdan tezroq forig' bo'lish va barcha diqqat-e'tiborni avval ma'naviy poklanish, ilm-ma'rifatga, keyin esa ozodlikka qaratmoq zarurligini qat'iy ta'kidlaydi: "Hamvatanlarimiz mulkini sotib to'y qilganlaridek, Sizda hatto lozim bo'lganda mulkingizni sotsangiz-da, o'g'lingizning zamonga yarasha o'qimog'iga say' qilingiz. To'ya isrof qilinaturg'on aqchalarni o'qimoq yo'lga sarf qilingiz"¹.

Demak, to'ylarni ularning an'ana, udum sifatida xalq ma'naviy merosi ekanligini unutmagan holda imkon boricha kamtorona, yuksak madaniy saviyada o'tkazishga intilish zarur. Me'yor saqlay bilmagan xalq nafaqat ma'naviy, balki jismoniy-fiziologik tanazzulga ham mahkumdir. Tarix guvohlik berishiga ko'ra, istalgan xalqning jangovor ruhini so'ndirish, vatanparvarlik tuyg'ularini yo'qotish, manqurtga aylantirish uchun uning kasb-korlar mazmuni, bayramlari, turmush tarzi, xullas, ma'naviyat yo'nalishlarini o'zgartirish kifoya. Bu haqida antik dunyo tarixchisi Gerodot o'z asarida Eron shohi Kirga Krez tomonidan qilingan murojaatni bayon qilib, Sord shahrini qo'lga olish uchun vayron qilmaslik, balki uning aholisini yoppasiga manqurt xalqqa aylantirish ko'proq samara berishi mumkinligini aytib, quyidagi yo'lni misol qilib keltiradi: "Ey, shoh! Sord shahriga buyruq yo'llab, aholiga qurol ko'tarishni taqiqlab qo'y, noqulay va baland qo'njli etik kiyish, uzun, yurishga xalal beruvchi

¹ Oyina jurnali. 1914-y., № 21. Qarang: Pedagogika tarixidan xrestomatiya. – T.: O'qituvchi. 1993-y., 116 – 117-betlar.

ko‘ylakar (bu erda, asosan, erkaklar nazarda tutilmoqda) kiyishni buyur. Bolalarga esa faqat musiqa asboblari chalishdan o‘zga narsani taqiqlab qo‘y. Mayda savdogarlik bilan shug‘ullanishga farmoyish ber. Ana shunda aholi erkaklarning ayolsifat kishilarga aylanib qolganligini, ozodlik to‘g‘risida hech qachon hech kim o‘ylamay qo‘yishini ko‘rasan”¹.

Shu o‘rinda Turkiston bosqinidan keyin o‘tgan sal kam bir yarim asr mobaynida Turon xalqlariga ham xuddi shunday yondashuv siyosati o‘tkazib kelinganligini eslab, chuqur mulohaza qilish joiz.

IV. 5. “Ijtimoiy fikr” hodisasining sotsiologik jihatdan o‘rganilish tarixi va bugungi kunda uni ilmiy tadqiq etish usullarining o‘rni va roli

Mamlakatimizda ijtimoiy fikr mustaqil ijtimoiy institut sifatida yaqindagina – siyosiy islohotlar boshlanishi bilan shakllana boshlagan. Bir tomondan, jamiyatning asosiy ko‘pchiligini tashkil qilgan ijtimoiy quyi tabaqalar o‘rtasida, ikkinchi tomondan esa, jamiyatning tor doiradagi yuqori qatlami turli ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va hokazo o‘zgarishlar hamda sharoitlarda yashagan Xiva xonligi, Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligidagi qanday ijtimoiy fikr to‘g‘risida gap bo‘lishi mumkin? Barcha ijtimoiy munosabatlar qattiq siyosiy lashtirilgan, fuqarolik jamiyati hamda mustaqil, ya’ni hukmron mafkura andozalariga va hokimiyat talablariga mos kelmaydigan, oshkora ifodalandigan fikrni tashuvchi hamda ifodalovchi erkin xususiy individ bo‘lmagan totalitar sotsializm davrida ham ijtimoiy institut sifatidagi ijtimoiy fikr bo‘lmagan.

Shunday bo‘lsa-da, sobiq sovet hukumati davrida ham qator xususiyatlariga ko‘ra hozirgi ijtimoiy fikr tadqiqotiga o‘xshab

¹ Abu Rayhon Beruniy. 100 hikmat. – T.: Fan, 1993. 16-bet.

ketadigan aholi so'rovlari o'tkazilgan. Biroq bu ijtimoiy fikrni so'rash emas, balki dehqonlarning mehnat va turmush sharoitini, xalqning madaniy rivojlanishi va ma'rifatliligi darajasini, kitobxon aholi afzal ko'rgan narsalarni statistik tahlil qilishdan iborat bo'lgan. XX asr boshida ishchilarning mehnat va turmush sharoitini, ishchi hamda xizmatchilar oilalari budjetini va hokazolarni so'rov metodi yordamida o'rganish jadal avj olgan. XX asr boshlarida sobiq sovet hukumatida "fikrlar statistikasi" degan soha ham shakllana boshlagan. Biroq hali gap ijtimoiy fikr haqida bormayapti: bunda asosiy fikr subyekti ekspert (o'sha davr atamashunosligi bo'yicha "ma'lumotli kishi") bo'lib, boshqaruvchi mutaxassis yoki "oddiy xalq"ning aqlli va bilimdon vakillaridan biri bu rolda chiqishi mumkin bo'lgan. Jamiyatning yig'ma holda ijtimoiy fikrni tashkil qiluvchi turli qatlamlari oddiy, tipik vakillarining fikri esa o'sha davrda maxsus empirik tadqiq qilinmagan.

Sovet hokimiyati ijtimoiy-statistik tadqiqotlar o'tkazishni davom ettirgan. Biroq so'rov metodlariga asoslangan tadqiqotlar 30-yillardan boshlab 50-yillarning oxiriga qadar sovet jamiyatshunosligi vositasi sifatida yo'qolgan. Sotsiologiyaga qiziqish uyg'onib, uning mavjudlik huquqi rasman tan olingach, tadqiqotchilarning so'rov metodlari faqat ijtimoiy-statistik tadqiqotlarning emas, balki sotsiologik tadqiqotlarning ham metodi sifatida foydalanila boshlangan. 1960-yilda "Комсомолская правда" gazetasi huzurida butun mamlakatda tadqiqotchilar guruhlarini tuzilishi va laboratoriyalar ochilishiga asos bo'lgan Jamoatchilik fikri instituti ish boshlagan¹. Biroq o'sha davrda o'tkazilgan so'rovlarni qiyinlik bilan jamoatchilik fikri so'rovi deyish mumkin. Bunda gap ko'proq aholining bo'sh vaqtini o'tkazish usullari, hayotiy rejalarini tanlashi, kishilarning ommaviy axborot vositalaridan bahramand bo'lishi, kitobxonlar afzal ko'rgan narsalarni o'rganish va hokazo haqida boragan.

¹ Истроия античности. – М.: Изд. Правда, 1989. стр. 96.

Jamoatchilik fikrini o'rganish deb atash mumkin bo'lgan "narsa"ga yaqin tadqiqotlar komsomol va partiya tashkilotlari buyurtmasi bilan o'tkazilgan, ammo bu so'rov va tadqiqot natijalarini xalqqa e'lon qilish mumkin bo'lmagan. 60-yillarga kelib qator respublika, o'lka va viloyat komsomol qo'mitalari huzurida jamoatchilik fikrini o'rganish bilan shug'ullanuvchi tuzilmalar ochilgan. Keyinchalik tashkil qilingan bu komsomol "tashabbusi"dan KPSS turli xil "o'ziga xos" maqsadlarda foydalangan. Komsomol va partiya organlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar ko'pincha ijtimoiy hayotning birmuncha muhim va dolzarb muammolariga aholining munosabatini o'rganishga yo'naltirilgan. Biroq bunda respondentlarning nuqtayi nazarini samimiy bo'lganligiga ishonish juda qiyindir.

1991-yildan boshlab mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritganidan va siyosiy, iqtisodiy islohotlar o'tkazila boshlaganidan so'ng, yurtimizda ijtimoiy fikr sohasida tub burilishlar yuz berdi. Ushbu islohotlar va iqtisodiyot sohasidagi keyingi o'zgarishlar natijasida ijtimoiy fikr orqali ijtimoiy munosabatlarni isloh qilish yo'li, maqsadlari hamda vositalari tubdan o'zgardi.

Jamiyatimiz ijtimoiy muhitida bir vaqtning o'zida ko'plab partiyalar, uyushmalar, markazlar faoliyat yuritayotganligi pluralizm ijtimoiy kuch kasb etganligi, referendumlar o'tkazilayotganligi, qolaversa, davlat boshlig'i – Prezidentning alternativ – muqobillik asosida umumxalq tomonidan saylanishi mustaqil mamlakatimizda sotsiologik tadqiqotlar uchun ijtimoiy empirik baza ko'lamlarining kengayib, to'laqonli mazmun kasb etib borayotganligiga to'la asos bo'la oladi. Sotsiologiya fani jamiyatda ro'y berayotgan yirik ijtimoiy-siyosiy voqealar, xususan, jamoatchilik fikri hodisasini shunchaki qayd etish bilan cheklanmaydi, balki uning motivatsion maxraji mazmunan va tarkibiy jihatlarini ham atroflicha ochib beradi. Demak, jamoatchilik fikrini bevosita o'rganishda sotsiologiya ijtimoiy

fanlar orasida o'zining aniq va konkretligi, zimmasidagi masalalarga beradigan javoblarning ilmiyligi atroficha asoslanganligi, qayta-qayta tekshirilinganligi bilan ham qimmatlidir.

Umuman olganda, ijtimoiy fikrga munosabatning garchi nazariy negizlari rasman G'arbiy Yevropada yuzaga kelgan bo'lsa-da, uning tub ijtimoiy-tarixiy ildizlarini Sharq falsafasida ko'proq topamiz. Xususan, ulug' mutafakkir Abu Nasr al-Farobiy tafakkur san'atiga doir ilm sohalarida, jamiyatning turli jabhalarida, konkret individlar xatti-harakatlarida ro'y beruvchi o'zgarishlar ilmiy asoslarda, mantiqiy tugal talablar doirasida o'rganilishini tavsiya etadi. Akademik M. Xayrullayevning ulug' faylasuf merosiga bag'ishlagan kitobidan jamoatchilik fikrini sotsiologik o'rganishga bevosita aloqador quyidagi o'gitlarni o'quvchi e'tiboriga havola etamiz:

1. Turli masalalar xususida fikr yuritish, ularning tarkibi, farqli jihatlari, ehtimolli va mutlaq bildiriluvchi mulohazalarni tiniq, puxta tahlil etish.

2. Keskin va mutlaq, ya'ni e'tirozga o'rin qoldirmaydigan mulohazalar xususida fikr yuritish.

3. Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan va qarama-qarshi turmaydigan mulohazalar farqlari xususida fikrlash va ularning qanday holatlarda qarama-qarshi kuchlarga aylanib qolishi xususida o'ylash.

4. Bir-biriga qarama-qarshi fikrlar, mulohazalarning qancha ko'rinishlarga ega ekanligini qayd etish.

5. Haqiqiy kriteriy asosida har bir mulohazalarning to'g'ri yoki noto'g'riligini tekshirib ko'rish va ularning qanday ahvolda bo'lishi xususida o'ylab ko'rish.

6. O'zgaruvchan va o'zgarmas mulohazalar, o'zgaruvchan mulohazalarning o'zgarish ma'nolari va sabablarini bilib olish;

7. Ma'lum bo'lgan umumiy fikrdan kelib chiqmaydigan mulohazalar ko'rinishlari xususida fikrga ega bo'lish;

8. Turli qarashlarning ta'rifi, ularning nimalarga asoslani-shi, nimalardan tarkib topganligi xususida ilmiy tasavvurga ega bo'lish.

Ulug' mutafakkirning jamiyat hayotini, xususan, jamoatchilik fikrini o'rganishga doir yuqoridagi konseptual yondashuvidan ko'rinib turibdiki, ijtimoiy holatlar, umumiy va har bir individ fikri tadqiqotchi nazaridan chetda qolmasligi, uning aniq tahlili va sintezidan o'tkazib o'rganilmog'i lozim.

Garchi sotsiologiya fani nisbatan yosh hisoblansa-da, uning tarixiy shakllanish jarayoni o'ziga xos tarixga ega. Utopist Sen-Simon sotsiologiya fanini kuzatishga asoslanagan fan darajasiga ko'tarishni ilgari surgan edi. Marksizm asoschilari o'z asarlarida empirik xarakterdagi ochiq sotsiologik tadqiqotlar rivojiga baho berib, mazkur tadqiqotlar burjua ilmining muayyan ko'rinishi ekanligini qayd etib, bu ilmni keraksiz hisoblanadigan kapitalistik davlatlar ilmi, deb ta'kidlashgan.

Jamiyatni ilmiy boshqarish, ijtimoiy muhit va fikrni shakllan-tirish bilan bog'liq masalalarni pozitiv hal qilishga moyil G'arb sotsiologiyasi so'nggi yillarda bir necha oqimlarga bo'linib ketdi. Klassik yoxud an'anaviy pozitivizm pozitsiyasida turgan olimlar sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazish jarayonida faqat tabiiy fanlar metodologiyasini qo'llashni talab etadilar. Bu yo'nalishning yirik namoyandalari O. Kont, G. Spenser o'z asarlarida ijtimoiy hodisalarga baho berishda faqat naturalistik yondashuvgina yagona to'g'ri ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi, deb hisoblaydilar. XX asr o'rtalariga kelib, asl mohiyatida mantiqiy pozitivizm yotuvchi neopozitivizm oqimi keng yoyila boshlandi. Neopozitivizmning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

1. Ijtimoiy hodisalar hamma uchun umumiy bo'lgan tabiat qo-nuniyatlari, ijtimoiy-tarixiy qoidalar asosida amalga oshadi.
2. Sotsiologik tadqiqot metodlari aniq, tabiiy fanlar metodlari kabi obyektiv, konkret va aniq bo'lishi lozim.

3. Inson xatti-harakatlaridagi “subyektiv jihatlar” faqat kuzatish uchun qulay bo‘lgan tashqi xatti-harakatlarga ko‘ra o‘rganilishi mumkin.

4. Tadqiqot natijalari empirik tarzda tekshiruvdan o‘tkazilgandan keyingina haqiqiy deb topilishi lozim.

5. Barcha ijtimoiy hodisalar miqdoriy ko‘rsatkichlarda ifodalinishi lozim.

Ko‘rinib turibdiki, pozitivistik va neopozitivistik oqim namoyandalarning maqsadi sotsiologiya fani imkoniyatlarini chegaralab, uni tarix yoki antropologiya singari ijtimoiy konkret fanlar sirasiga qo‘yishdir. Bu oqimlar orasida geografik va sotsial-darvinizm yo‘nalishlari ham alohida o‘rin tutadi. Geografik yo‘nalish o‘z ichi-ga irqiy-antropologik (J. Gobino, X. Chemberlen, O. Ammon, J. Launj va boshqalar) va biorganik maktab (P. Lilienfeld, A. Sheffle, R. Vorms, A. Fule va boshqalar)ni oladi. XIX asr oxiridan boshlab psixologik maktabning instinktivism, bixeviorizm yo‘nalishlari keng rivojlandi.

Bixeviorizm oqimi mohiyat e‘tiboriga ko‘ra, inson xatti-harakatlari tizimiga o‘z tadqiqot obyekti sifatida qaraydi. Bixeviorizm psixologiyadagi mexanik yo‘nalishni davom ettirib, ruhiy hodisalarni organizm xatti-harakati bilan bog‘liq, deb hisob-laydi, ong va xatti-harakatlarni uzviy va yagona narsa sifatida baholaydi.

Hozirgi zamon bixeviorizmi ehtiyoj-reaksiya qoidalariga qisman o‘zgartirishlar kiritib, oraliq holatlar atamasini qabul qilishdi va ana shu asosda faoliyat yurita boshlashdi. Bu oraliq holatlar o‘z zamiriga ongli ehtiyoj, hissiyotning kuchayishi yoki pasayishi darajalari tushunchalarini qamragan bo‘lishiga qaramay, bixeviorizmning idealistik va mexanik mohiyatini o‘zgartirmaydi.

Hozirgi zamon G‘arb sotsiologiyasidagi eng katta oqimlardan biri – empirik sotsiologiyadir. Empirik sotsiologiya nazariyotchilari sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishdan maqsad jami-

yat hayotining ayrim jihatlarini xarakterlab berishdan iborat, deb biladilar. Mazkur oqim tarafdorlari (E. Landsberg) jamiyat taraqqiyotining obyektiv taraqqiyot qonuniyatlarini inkor etadi va ijtimoiy hodisalar mohiyatiga kirib borishni xohlashmaydi. Jamiyatni esa ijtimoiy hodisalarning mexanik yig'indisi, deb qaraydilar. Garchi empirik sotsiologiya tarafdorlari ham o'z tadqiqotlarida anketa, intervyu, statistik materiallarga tayansa-da, bu usullar ijtimoiy jarayonlar-ning ilmiy nazariyasi bo'lgan konkret va aniq metodologiya asosida izohlab berilmaydi.

Nazariy-mafkuraviy chegaralanmagan, faqat umuminsoniy tamoyillarga tayanib faoliyat yurituvchi sotsiologiya insonni to'laqonli tizimi sifatida tadqiq etadi. Adabiyotlarda ko'p martalab ta'kidlanganidek, to'laqonli shaxs to'laqonlilikni ta'minlovchi, organik uyg'un jihatlar, umumning ajralmas qismlari yig'indisidan iboratdir, degan nuqtayi nazar predmet mohiyatini atroflicha ifodalay olmaydi. To'laqonlilik, bizningcha, shaxsning intellektual-hissiy barkamolligi chegaralarini belgilaydi. Zero, shaxs muayyan madaniy-ma'naviy, axloqiy muhit sharoitidagina hissiy barkamollikka erishadi. Hissiy barkamollik insonni tabiatan estetik idrok etishga, insoniy mu-loqotlar qadriga yetishga va uni e'zozlashga, mehnatga go'zallik va ezgulik yaratish manbayi deb qarashga, borliqqa muhabbat qo'yishga undaydi.

Sotsiologiya fani shaxs ma'naviyati yoki jamiyat muammolarini tadqiq etar ekan, albatta, muayyan nazariy model, ya'ni o'ziga xos konseptual yo'nalish asosida faoliyat yuritadi. Tadqiqot natijasida olingan empirik manbalar mazkur nazariy bilimlar asosini boyitib, ijtimoiy muammolarni amaliy hal etish tavsiya-takliflarini ilgari suradi, shu boisdan ham sotsiologiya u yoki bu ijtimoiy muammoga murojaat etar ekan, ana shu empirik manbani atroflicha o'rganib chiqadi.

Masalan, madaniyat muammolariga bo'lgan jamoatchilik fikrini o'rganish ilmiy maqsad qilib qo'yilsa, madaniyat va san'atga

madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan yondashuv talab etilib, madaniyatning tarkibiy qismlari orasidagi o'zaro munosabatlarni boshqaruvchi umumiy qoida-qonuniyatlarni va mazkur munosabatning tarixiy jarayonda ham ijtimoiy-axloqiy makonadagi o'zgarishlarni izohlovchi qonuniyatlarni mufassal o'zlashtirish talab etiladi.

Shu nuqtayi nazardan, shaxs ma'naviy olamiga madaniy-ma'rifiy faoliyat ta'siri va jamoatchilik fikri o'rtasidagi mutanosiblik muammosiga qo'l urar ekanmiz, madaniyat muassasalaridagi mehnat faoliyati spetsifikasi, mehnatkashlarning bo'sh vaqtini oqilona va foydali uyushtirish, ularning samarali dam olishini tashkil etish, dam olish va ijodiyot uylari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, boyitish, barkamol tarbiya beruvchi tom ma'nodagi tarbiyachilar – tashkilotchilarga ega bo'lish, mehnatni progressiv ilmiy asosda tashkil etish, mehnat va odamlar bilan munosabat jarayonida umuminsoniy talab va burchni sinfiy talab va burchdan nechog'li yuqori qo'ya bilish va boshqalarni e'tibordan chetda qoldirmasligimiz zarur.

Muammoni o'rganish jarayonida madaniyat sotsiologiyasi kishi qiziqishi, ehtiyojlari, maqsadlari tizimi, qobiliyati, iste'dodni o'stirish muammolari, shaxsning axloqiy va goyaviy-siyosiy xislatlari, siyosiy faolligi, fuqarolik insoniy pozitsiyasining barqarorligi, umumiy va professional bilimlari doirasidagi turli xil muammolar bilan ham faol shug'ullanadi.

Sotsiologik tadqiqot natijasida tarbiya ishini yaxshilash, milliy-mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olish, aholi turli qatlamlarining demografik xususiyatlarini chuqur tadqiq etish va shu asosda to'laqonli tarbiya va ma'rifiy jarayon olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sotsiologik tadqiqotlar nazariy asoslarini ishlab chiqish va faktlarni yig'ish bir paytda amalga oshirilmaydi, ammo ular mushtarak birlikda bo'ysungan holda amalga oshiriladi. Dasturni ishlab chiqish jarayonida ikki asosiy talabga rioya qilish muhim

ahamiyatga ega. Birinchidan, ishlab chiqilgan nazariy umumlashmalardan real tadqiqot o'tkazishga o'ta bilish va, ikkinchidan, olingan natijalar, faktlar, yig'ilgan empirik materiallardan nazariy umumlashmalarga, ilmga qayta bilish ko'nikmalariga ega bo'lish ana shu talablar mazmunidir. Bu ikki talabga rioya qilish, bir jihatdan, real sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni tizimli yo'lga qo'yish, jamiyat ijtimoiy muammolarini tadqiq etish ishlarini uzluksiz amalga oshira borishni ta'minlasa, ikkinchi jihatdan, ilm-fanning turli sohalari uzviy rivojlana borishi uchun keng imkoniyatlar ochiladi.

Sotsiologik tadqiqot izlanishlari to'g'ri natija berishi uchun esa ilmiy muammo to'g'ri qo'yilmog'i lozim. Ilmiy muammoning qo'yilishi muayyan soha uchun kerakli bo'lgan bilimlar doirasidan chetga chiqish, bu bilimlar chegarasini kengaytirish demakdir. Zero, muayyan va hozirgacha ma'lum bo'lgan bilimlar doirasida hamisha ham ijtimoiy muammo vaziyatlari hal etilavermaydi. Shu boisdan ham ko'pincha bilimlarga bo'lgan ehtiyojlar o'sa boradi. Ko'pincha sotsiologik tadqiqotlar nafaqat nazariy umumlashmalar ishlab chiqadi, balki mazkur ijtimoiy muammo vaziyatni hal etishning konkret amaliy tavsiyanomalarini ishlab chiqadi.

Masalan, madaniy-ma'rifiy muassasalar kadrlarining qo'nimsizligi va unga bo'lgan jamoatchilik fikri masalasini o'rganishga bag'ishlangan sotsiologik tadqiqotda nazariy umumlashmalar bilan birga, amaliy, ya'ni bir necha masala o'rtaga tashlanib, tadqiq etilishi mumkin. Bir jihatdan, mazkur ijtimoiy muammo vaziyatini keltirib chiqargan shart-sharoitlar atroficha tahlil etilib, nazariy xulosalar ilgari surilsa, ikkinchi jihatdan, bu vaziyatni baratrof etishning yo'l-yo'riqlari tavsiya etiladi.

Yuzaga kelgan ijtimoiy muammo ma'lum bo'lgan amaliy vositalar bilan hal etilmagan holatda ilmga, tadqiqot o'tkazishga murojaat qilinadi. Bu murojaat ilmda ijtimoiy buyurtma deb ataladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Jamoatchilik fikrining jamiyat hayotidagi roli.
2. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi va uning asosiy yo'nalishlari.
3. O'zbekistonda jamoatchilik fikrining rivojlanishi.
4. O'zbekistonda ekologik vaziyatning sotsial muammolari.
5. Mahallaning yoshlar tarbiyasidagi o'rni.
6. Mahalla va o'z-o'zini boshqaruv sotsiologiyasi.
7. Jamoatchilik fikri hodisasining O'zbekiston miqyosida o'rganilish darajasi va sifati.
8. Jamoatchilik fikri jamiyat a'zolarining madaniy holatidan darak berishini asoslab bering.
9. Jamoatchilik fikrini o'rganish bilan shug'ullangan qanday olim va sotsiologlarni bilasiz? Ularning jamoatchilik fikrini o'rganishga doir usullarini asoslab bering.
10. O'zbekistonda jamoatchilik fikrini o'rganadigan qanday markazlar mavjud?

Adabiyotlar:

1. Karimov I. A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. "Xalq so'zi" gazetasi. 30. 08. 2002.
2. Герел. Сочинения, том VII. – М.-Л.: Соцекгиз, 1934.
3. Тард. Общественное мнение и толпа. – М., 1902.
4. Дж. Локк. Избранные философские произведения в двух томах: Т. 1. – М.: Соц. Эк. Гиз., 1960.
5. Лапаева В. В. Социология права. Краткий учебный курс. – М.: Норма, 2000.
6. Ле Бон Г. Психология народов и масс. – М., 1995.
7. Ортега-и-Гассет Х. Восстание масс. – М., 1991.
8. Falsafa qomusiy lug'at. (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q. Nazarov). – T.: Sharq, 2004.
9. Xayrullayev M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. – T.: O'qituvchi, 1971.

V BO'LIM. MADANIYAT VA IJTIMOIY STRUKTURA

V. 1. Ijtimoiy struktura va ijtimoiy tengsizlik

Jamiyatdagi bog'lanishlarni tushunishimizga yordam beradigan muhim konsepsiya – bu ijtimoiy struktura (tuzilma) konsepsiyasidir.

Bizning atrofimizdagi ijtimoiy muhit voqea-hodisalarning betartib yig'indisidan iborat emas. Odamlarning xulq-atvorida, ularning o'zaro munosabatlarida chuqur muntazamlilik seziladi. Mana shu muntazamlilik bilan ijtimoiy struktura (tuzilma) g'oyasi bir-biriga bog'langan. Ba'zi jihatdan jamiyatning strukturaviy (tuzilmaviy) tomonlarini binoga qiyoslab ta'riflash mumkin. Binoga muayyan shakl berib turadigan devorlari, poli va tomi bor. Ammo bu qiyoslashni aynan tushunmaslik kerak, unda biz masalaning mohiyatidan uzoqlashib ketamiz. Ijtimoiy struktura (tuzilma) insonlarning xatti-harakatlari va munosabatlari bilan belgilanadi: strukturalar (tuzilmalar) barqarorligi, mukammalligi ularning makonda va zamonda takrorlanib turishiga bog'liq. Shunday qilib, ijtimoiy ishlab chiqarish va ijtimoiy struktura (tuzilma) sotsiologik yondashuv doirasida juda mahkam bog'langan. Shuning uchun ham biz kishilik jamiyatlarini binolar sifatida tasavvur qilishimiz mumkin va bu binolar har daqiqada o'z tarkibidagi g'ishtlardan qayta tiklanib turadi. Bizning barcha xatti-harakatlarimiz o'zimiz yashayotgan jamiyatning strukturasi (tuzilma) ta'sirida shakllanadi va, ayni paytda, biz ham o'z harakatlarimiz bilan bu strukturalarga (tuzilmalarga)

ta'sir qilib (muayyan darajada o'zgaritirib ham) turamiz.

Bugungi kunga qadar ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy strukturaga berilgan ko'pgina ta'riflar mavjud. Bu ta'riflarni o'rganar ekanmiz, ular orasidan eng haqiqatga yaqinini va umumiy jihatga ega bo'lganlarini tanlab chiqdik.

Jamiyatdagi ijtimoiy kuchlarning o'zaro aloqadorligi orqali o'zgarib boruvchan tizimlar sistemasi – bu ijtimoiy strukturadir¹.

Ijtimoiy struktura tushunchasi ijtimoiy jarayonlar va ularning o'zaro munosabatlari, o'zaro qaramliklari aloqalarini aks ettiradi².

Sotsiologik lug'at va izohli lug'atlarda ham ijtimoiy strukturaga berilgan ta'riflarning bir-biriga yaqinligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, B. Shefersning lug'atida quyidagi ta'rif keltiriladi:

Ijtimoiy struktura ostida ijtimoiy hayotning bir maromdagi qonuniyatlari, ya'ni ijtimoiy xulq, ijtimoiy qatlam kabilar tushuniladi³.

Shunga o'xshash ta'rif amerikalik zamonaviy sotsiolog T. Xolt lug'atida ham beriladi:

Ijtimoiy struktura (a) ijtimoiy tuzum qatlamlari orasidagi mavjud bo'lgan bir maromdagi munosabatlarni, (b) o'z mavqeyi bilan boshqalardan ajralib turuvchi individual yoki jamoaviy pozitsiyalarning tashkilotini bildiradi⁴.

Ijtimoiy struktura keng ma'noda turli ijtimoiy jamoalararo (qatlamlar, ijtimoiy birliklar, tashkilotlar) va ijtimoiy institutlararo aloqalarning yig'indisini anglatadi, tor ma'noda ijtimoiy rolni bajara olish uchun zarur hisoblangan va ma'lum bir

¹ Xayrullayev M. Abu Nasr Farobiy. – T.: Fan, 1976. 29-bet.

² Qarang: Fürstenberg F. Die Sozialstruktur der Bundesrepublik Deutschland. – Opladen: Westdeutscher Verlag, 1978.

³ Qarang: Schäfers B. Sozialstruktur und Wandel in der Bundesrepublik Deutschland. – Stuttgart, 1966.

⁴ Qarang: Zapf W. Sozialstruktur // Grundbegriffe der Soziologie / Hrsg. Von B. Scharfart. – Opladen: Leske & Budrich, 1986.

huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan ijtimoiy pozitsiyalarning o'zaro bog'langan yig'indisini bildiradi. Ijtimoiy struktura ijtimoiy tizimning normal ishlashini, uning turg'unligini ta'minlab beruvchi jamiyatning ichki tuzilmasidir¹.

Ijtimoiy struktura – ijtimoiy qatlamlar, guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, mehnat taqsimoti, ijtimoiy institutlar xarakteri bilan belgilanadigan ijtimoiy tizim² tarkibiy qismlari o'rtasidagi turg'un aloqalar tarmog'idir. Iqtisodiy munosabatlar ijtimoiy strukturaning qolgan tarkibiy qismlari o'rtasida belgilovchi rolni o'ynaydi. Jamiyatda uning sinfiy tarkibi muhim ahamiyatga ega. Aholining ijtimoiy strukturasi uning kasbiy, milliy, jinsiy, yosh, madaniyat va boshqa belgilariga ko'ra bo'linishini ham qamrab oladi. Mustaqillik sharoitida mulkchilikka, umuman, iqtisodiy jarayonlarga demokratik yondashuv qaror topayotganligi tufayli ijtimoiy strukturada ham qator o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.

Agar ijtimoiy strukturaga berilgan yuqoridagi ta'riflarning barchasi umumlashtirilgan holda berilsa, ikki holat o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bular: tizimiy-tashkiliy va stratifikatsion holatlardir. Bir tarafdin, ijtimoiy struktura jamiyatni yagona butunlikda ushlab turgan turli tizimlar aloqasi bo'lsa, ikkinchi tarafdin esa, ijtimoiy struktura – ketma-ketlik tartibida joylashgan ijtimoiy mavqelar, guruhlar, jamoalar, kishilar turli qatlamlari, tabaqalari yig'indisidir.

Ijtimoiy struktura haqida gap ketganda, jamiyatdagi turli qatlamlar va ularning ketma-ketligi, ularning o'zaro bog'liqligi haqida to'xtalmasdan iloj yo'q. Lekin nimagadir ijtimoiy strukturaga berilgan ko'pgina ta'riflarda (jumladan, yuqorida keltirilgan ta'riflarning ham ayrimlarida) ijtimoiy qatlamlarning

¹ Qarang: Hault T. F. Dictionary of modern sociology. – Totowa, New Jersey: Littlefield and Adams, 1974.

² Комаров М. Введение в социология. – М.: Наука, 1994. С. 300.

ketma-ketligi masalasi kam yoritiladi yoki umuman tushib qoladi. Chuqurroq o‘ylab qaralsa, aynan “tengsizlik” jarayonining mavjud bo‘lishi ijtimoiy strukturani o‘zgarish yoki rivojlanish tomon yetaklaydi.

V. 2. Stratifikatsiya va vertikal klassifikatsiya

Ko‘pgina mualliflarning ta’kidlashi bo‘yicha, ijtimoiy tengsizlik barcha davrlarda ham mavjud bo‘lgan. Haqiqatan ham, insonlar o‘zlarining didlari, tana va soch ranglari, daromadi, bilimi, ma’lumoti, yoshi, aqli va jismoniy qobiliyati, salohiyati, kasbi, boyligi, ijtimoiy kelib chiqishi, yashash sharoitlari va hududlari hamda boshqa ko‘pgina jihatlari bilan ajralib turishadi. Lekin ijtimoiy tengsizlik haqida gapirganda shuni unutmash lozimki, yuqorida sanab o‘tilgan tengsizlik belgilarining barchasi jamiyatda mustahkamlangan qonuniyat holatiga ko‘tarilib, ular kishilarning turli qatlamlari klassifikatsiyalanishida tagzamin vazifasini bajara olsagina, ularni tengsizlik belgisi sifatida ko‘rsatish mumkin.

Ijtimoiy stratifikatsiya – industrial jamiyatdagi individlar va ijtimoiy guruhlar o‘rtasida moddiy ne‘matlar, hokimiyat funksiyalarini va imtiyozlarining notekis taqsimlanishini ifodalaydigan ijtimoiy-falsafiy tushuncha. Ijtimoiy stratifikatsiya ustuvorligini qaror toptirishga da’vo qiluvchi jamiyat o‘z a’zolari o‘rtasida turli ijtimoiy pozitsiyani taqsimlashi va ularni shu pozitsiyaga mos ravishda o‘z burchini bajarishga majbur qilishi kerak. Buning uchun jamiyat ikki xil darajadagi motivatsiya bilan shug‘ullanishi lozim: avvalo, o‘z a’zolarida muayyan ijtimoiy pozitsiyani egallash istagini uyg‘otishi, keyin esa shu pozitsiya bilan bog‘liq majburiyatlarni bajarish istagini mustahkamlashi kerak. Agar turli pozitsiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan majburiyatlari bir-biri bilan bir xilda o‘xshash bo‘lsa, bu pozitsiyani egal-

laydiganlar uchun hech qanday qizig'i bo'lmas edi. Aslida, ahvol butunlay boshqacha: ayrim pozitsiyalar kishilarga shunchaki maqquul bo'lib qolmay, ular kishilarda maxsus qobiliyat va tayyorgarlikni ham talab etadi. Shuning uchun ham jamiyat kishilarni yuqori pozitsiyani egallashga undashi uchun, avvalo, shu jamiyatning o'zi muayyan imtiyozlarga ega bo'lishi lozim. Ikkinchidan, jamiyat bu imtiyozlarni kishilarning egallangan pozitsiyasiga mos ravishda notekis taqsimlashi uchun o'z ixtiyorida muayyan qobiliyatlarga ega bo'lishi ham zarur. Imtiyozlar va ularning taqsimlanishi ijtimoiy tizimning tarkibiy qismi bo'lib qoladi hamda stratifikatsiyani vujudga keltiradi. Shunday qilib, ijtimoiy tengsizlik beixtiyor (anglanmagan holda) shakllantiriladigan jarayon bo'lib, jamiyat ana shu jarayon tufayli malakali shaxslarni muhim pozitsiyalar tomon yo'naltiradi. Har qanday jamiyat oddiy yoki murakkab bo'lishidan qat'i nazar, kishilarni maqom va obro'siga ko'ra tabaqalashtirishi hamda institutlashgan tengsizlik darajasiga ko'tarilgan bo'lishi kerak. Sotsial silkinishlardan ko'proq himoyalangan jamiyatlarda ijtimoiy stratifikatsiyaning amal qilish doirasi ancha cheklangan. Agar sotsial struktura jamiyatning gorizontal kesimini ifodalasa, ijtimoiy stratifikatsiya jamiyatning vertikal kesimini aks ettiradi.

Jamiyatning vertikal kesimi stratifikatsiyaning vertikal mobiligini bildiradi. Sotsial mobillik tushunchasiga asos solgan olim P. Sorokin fikri bo'yicha, individlarning vertikal o'rin almashinuvida yetakchi kanallar mavjud bo'lib, ular siyosiy, iqtisodiy, professional (kasbiy) o'rin almashish, armiya, cherkov singari tashkilotlarda yuqori lavozimlarni egallash hisoblanadi.

Fikrimizning davomini an'anaviy jamiyatlarga murojaat qilib izohlaymiz. An'anaviy jamiyatlarda turli tabaqalarga va sinflarga bo'linish yuqori darajada bo'lgan. Bu jamiyatlarda jamiyat a'zolari nafaqat yosh va jinsdan kelib chiqib, balki mehnat shaklining bo'linishiga qarab ham sinflarga ajratilgan. Albatta,

ayrim ilmiy adabiyotlarda an'anaviy jamiyatlarda kishilarning turli sinflarga ajratilishi ijtimoiy kelib chiqishidan belgilanadi, deb ko'rsatilsa-da, lekin bu masalaga chuqurroq e'tibor berilsa, yuqoridagi xulosa to'liq emasligini ko'rish mumkin. Bugungi kunga kelib ko'pgina mualliflar an'anaviy jamiyatlarda kishilarning ijtimoiy bo'linishi faqatgina "tug'ma" imtiyozlar bilan emas, balki mehnatning bo'linishi tarzi bilan ham ajratilganlar, deb hisoblashadi. Buning ustiga, "terimchilar", "ovchilar", "dehqonlar" kabi mehnat shakliga bo'linish juda ahamiyatli bo'lib, ular hattoki ijtimoiy evolutsiyaning asosiy sababchisi hisoblanadilar. Bundan tashqari, sekin-astalik bilan pog'onalar, bosqichlar tizimiga bo'linish boshlandi: dehqonlar bilan hunarmandlar orasida, hunarmandlar bilan ilm ahli o'rtasida farqlar ko'rinsa boshlandi. Lekin bu farqlar va bo'linishlar ijtimoiy tengsizlik muammosi deb hisoblanmadi. An'anaviy jamiyat a'zolari tengsizlikni ko'rmaydilar, sezmaydilar. Gap shundaki, an'anaviy jamiyatlarda tengsizlik tabiiy bo'lgan oddiy holdek qabul qilingan, bu jamiyatlarda tengsizlik ilohiyotdan yuborilgan qonun-qoida va tartibning bir qismi sifatida hech qanday qarshiliksiz qabul qilingan. Tengsizlikning yorqin namunasi bo'lmish vertikal klassifikatsiya prinsipi dunyoviy tartib-qoida qonuniyati, ilohiy bosqichma-bosqichlik, deb qabul qilinadi. Tengsizlik haqidagi bunday qarash barcha an'anaviy jamiyatlarga xos nazariyadir. Bu fikrimiz isboti tariqasida Yevropa o'rta asrlaridagi tabaqalashuv klassifikatsiyasiga asoslangan jamiyatlarni keltirishimiz mumkin.

Kishilarning ijtimoiy bo'linishi tarixi, ayniqsa, hindlarning kasta tizimida yorqin ko'rinadi. Ijtimoiy tengsizlikning tugatilishiga va ijtimoiy tenglikning tezroq o'rnatilishiga, odatda, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikning o'zi sabab bo'ladi. Ya'ni ijtimoiy tengsizlikdan charchagan xalq va rivojlanish sari beto'xtov (yanada yaxshiroq yashashga bo'lgan ishtiyoq) intilayotgan

jamiyat a'zolari hamisha harakatda, kurashda va taraqqiyotda bo'ladi. Lekin taajjubki, kastalik tizimiga asoslangan hind jamiyatida esa buning umuman aksini ko'rishimiz mumkin. Hind kasta tizimi tengsizlikning tezroq tugatilishiga xizmat qilishi uyoqda tursin, balki bu tizim jamiyat ichidagi ijtimoiy tenglikka bo'lgan intilishni sekinlashtirgan. Tengsizlikning kelib chiqish tarixini ilohiylikka bog'lab talqin etish tushunchasi jamiyatdagi bu vaziyatga o'zgacha baho berib, uni kastalik tizimining "tengsizlik belgisi" sifatida tushunishga to'sqinlik qilgan.

Zamonaviy jamiyatlarda tengsizlik vaziyatiga an'anaviy jamiyatlarga nisbatan umuman boshqacha tarzda yondashiladi va tengsizlik holatiga o'zgacha baho beriladi (ya'ni zamonaviy jamiyatlarda tengsizlik holatiga "ilohiyot aralashuvi natijasi yoki ilohiyotdan belgilangan haqiqat" deb emas, balki kishilarning ijtimoiy muhitida, ijtimoiy munosabatlarida yuzaga kelgan hamda o'zgartirilishi mumkin bo'lgan vaziyat, deb baholanadi). Bugungi kunga kelib, tengsizlik klassifikatsiyalari (turlari, shakllari) talablarining soni g'ayritabiiy tarzda ko'payib bormoqda. Shunisi qiziqki, bu tengsizlik klassifikatsiyalari bir-birlari bilan shu darajada chirmashib ketganki, ular o'zaro aloqada bo'lib, o'rgimchak to'risimon murakkab tizimni ham tashkil qilinmoqda. Lekin eng asosiysi, turli ko'rinishlarga ega bo'lgan tengsizlik shakllari kishilar tomonidan ijtimoiy jarayonlar natijasi sifatida anglanibgina qolmay, balki "tenglik" nuqtayi nazaridan qaraganda, yanada mukamallashib bormoqda. Shuning uchun ham ular jamoatchilik tomonidan ijtimoiy tengsizlikning yaqqol faktarlari sifatida qabul qilinmoqda va ko'pgina bahs-munozaralarga hamda turli sinflararo yuzaga kelayotgan ziddiyatlarga sabab bo'lmoqda.

An'anaviy jamiyatlarda qabul qilingan "ilohiy ketma-ketlik" qonuniyatiga qarama-qarshi ravishda ko'psonli ijtimoiy tizimlar, sinfiy yoki tabaqaviy stratifikatsiyalar nazariyasi yaratilmoqda. Biroq shu o'rinda aytib o'tish kerakki, tabaqalashuv masalalar-

iga doir yaratilayotgan bu nazariyalarning barchasining asosida, baribir, avvaldan yashab kelayotgan vertikal klassifikatsiya (pog‘analik) qonuniyatining soyasi mavjud.

V. 3. Ijtimoiy strukturani tadqiq etishda modernizm

Konkret ijtimoiy faoliyat yuritish jarayonida modern loyihasi o‘zini shunday holat sifatida aks ettirishi lozim ediki, unda madaniy va texnologik modernizatsiya, sekulyarizatsiya, yangi ijtimoiy sohalar ishlab chiqarilishi lozim bo‘lgan. Madaniy, iqtisodiy va siyosiy modernizatsiyaning asosi bo‘lib “raqobatbardosh demokratiya”, ijtimoiy-iqtisodiy bozor xo‘jaligi kabi fundamental institutlar xizmat qilmog‘i lozim edi. Individlar va kichik guruhlar hayotida esa modernizatsiya loyihasini barcha hayotiy imkoniyatlarning oshishi, yangi ijtimoiy aloqalarning paydo bo‘lishi va o‘rnatilishi orqali ko‘rish mumkin bo‘lgan.

Modernizatsiya tomonidan olib kelinishi kutilayotgan ijtimoiy tenglikka erishish harakatida ijtimoiy strukturaning qanday tuzilganligi asosiy rol o‘ynadi. Jamiyatning sinfiy bo‘linishini, ijtimoiy tabaqalashuvini va ijtimoiy mobillikni tadqiq etib o‘rganish uchta maqsaddan kelib chiqqan holda amalga oshdi:

– tengsizlikning qaysi qoidasiga binoan bo‘linayotganligini topish va tasvirlab berish, ya’ni kamyob, lekin juda qiyamatli hisoblangan daromad, ta’lim, hokimiyat, maqom kabi ijtimoiy resurslarning qanday tengsizlik qoidasiga binoan bo‘linishini o‘rganib chiqish;

– yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan maqsadni o‘rganish jarayonida ijtimoiy resurslarning bo‘linish tartibini statistik raqamlarga asoslangan holda emas, balki alohida shaxslarning imkoniyatlarini o‘rganishga asoslangan holda yuz bergani uchun ikkinchi maqsad yuzaga keldi – tengsizlikning bo‘linishini o‘rganishda asosiy mavqelar guruhini aniqlab olish lozim;

– mavqelar guruhining qay yo‘l va qay miqdorda tashkil eti-

lishini o'rganish ijtimoiy qatlamlarning, ya'ni stratalarning qanday shakllanishiga olib kelinishini tadqiq etib, o'rganib chiqishiga sabab bo'ldi.

O'zaro bog'langan bu uch jarayonni chuqur tahlil va tadqiq etish natijasi sifatida jamiyat ijtimoiy tuzilishining ta'rifi kelib chiqdi. Avlodlararo ijtimoiy mobillik jarayonini tadqiq etish va bu jarayonni o'rganishda ijtimoiy institut hisoblanmish oilaning, ta'limning, bandlik darajasining yuqoriligini o'rganish – bularning barchasi ijtimoiy sistema (tuzum)ning shakllanishiga olib keldi.

Ijtimoiy tuzumni tahlil qilish, uning sistemalilik xususiyatga ega ekanligini ko'rib chiqish, bu holatlarning madaniy jihatlarini aniqlash hamda ijtimoiy tengsizlikning sabablarini ko'rsatib izohlab berish – bularning barchasi ijtimoiy vaziyatga berilgan sotsiologik tashxis sifatida qabul qilina boshlandi yoki, boshqacha aytganda, vaqt va zamonga berilgan tashxis sifatida baholandi. Bu tashxis tanqidiy vazifani bajargan.

Umuman olganda, agar chuqur e'tibor berib qaralsa, ijtimoiy strukturaning tuzilishini o'rganishda G'arb olimlari ham, marksizm davomchilari ham bir g'oyani, ya'ni ijtimoiy tenglik g'oyasini ilgari surishgan. Ijtimoiy strukturani o'rgangan har ikki oqim ham o'z g'oyalariga ma'rifatparvarlik oqimidagi g'oyalarni asos sifatida qabul qilishgan edi. Lekin bu ikki oqim tarafdorlari o'z g'oyalarni amalga oshirish yo'llarini turlicha tanlashdi va oradan necha yillar o'tgandan so'ngina qaysi yo'nalish ko'proq samara berganligini vaqt ko'rsatib berdi.

V. 4. Sotsiologiya va postmodern

Yuqorida sanab o'tilgan ijtimoiy struktura sohasidagi o'zgarishlar ushbu asrda amalga oshgan ko'pgina ijtimoiy va madaniy jarayonlar bilan qo'shib ketib, o'ta murakkab holatni

vujudga keltirdi. Endilikda ijtimoiy struktura sohasidagi rivojlanishlar modern loyihasi ishga tushgan davridagidek aniq va harir shaklda emas, balki yanada noaniq va mukammal bo‘lib bora boshladi. Bu esa, o‘z navbatida, modern loyihasining ish bermaganligidan yoki bu loyihaning kuchi va uning amal qilish davri tugaganligidan, bu loyiha bugungi kun talabiga to‘liq javob bera olmasligidan dalolat beradi.

Mana, bir necha yildirki, san‘at namoyandalari, aniqroq aytdigan bo‘lsak, avvaliga rassomlar va san‘atshunoslar, so‘ngra esa madaniyatshunos va ijtimoiy fanlar mutaxassislari yangi asr – postmodern asri kelganligi haqida so‘z yuritishmoqda.

“Postmodernizm” atamasi ilk bor o‘tgan asrning 30-yillarida badiiy tanqid yo‘nalishida vujudga keldi, keyinchalik esa bu atama “postmodern” atamasi ostida 1947-yili olim Arnold Toynbi ijodida uchraydi. Toynbi bu atamani G‘arb sivilizatsiyasi rivojlanishning yangi pog‘onasiga ko‘tarilganini bayon qilish uchun ishlatgan edi¹.

Hozirda esa biz postmodern haqida gapirishdan avval, postmodernizm haqida, uning mohiyati haqida qisqacha to‘xtalib o‘tishimiz lozimdir.

Postmodernizm murakkab, ko‘p turli eklektik jarayondir. U XX asrning to‘rtinchi choragida G‘arbiy Yevropa madaniyatida shakllandi. Postmodernizmning birinchi g‘oyalari 60-yillarning oxirlarida dolzarblashib bordi, hozirgi sivilizatsiyaning ijtimoiy, madaniy va falsafiy asosiga tanqidiy refleksiya sifatida namoyon bo‘ldi. “Postmodernizm” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi shundan iboratki, u hozirgi davr modernizmidan keyin keluvchi hodisadir, u Yevropa badiiy madaniyatining mazmu-

¹ Ijtimoiy tizim – kishilar o‘rtasida tarixiy tashkil topgan ijtimoiy munosabatlar tizimi. U muayyan ijtimoiy aloqalar va munosabatlar taqozo qiladigan davlat shakli, jamiyatning siyosiy strukturasi, huquqiy munosabatlari tizimi ekanligi bilan xarakterlarnadi. Har qanaday ijtimoiy tizimning asosini ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. Ijtimoiy munosabatlar tizimida iqtisodiyot, siyosat, ma‘naviyat hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

niy o'zgarishlarini qayta fikrlanishi bilan bog'lanadi. 80-yillarga kelib "postmodernizm" iborasi keng qo'llanila boshlandi. Postmodernizmning shakllanishida marksizm, nitsshechilik va freydchilikning ta'siri kuchli bo'lgan.

Postmodernizmni o'zidan avvalgi oqimlar tadqiqotlarida "nima qilinganlik" emas, balki "qanday qilinganlik" masalasi qiziqтира boshladi, ana shu masalani nima birinchi o'ringa chiqardi, ularning belgilari, simvollari, tili, tuzilmani shakllantiruvchi faoliyati qanday degan muammolar ularning diqqat markazida bo'ldi.

Ontologik jihatdan postmodernizmning qarashlari "dunyoni o'zgartirish maqsadida bilishdan" uni "dekonstruksiya qilish" masalasiga o'tdi. Postmodernizm dunyoni o'zgartirish maqsadidan butunlay voz kechdi, chunki u "hodisalar olami" bu jarayonga qarshilik ko'rsatadi, deb hisobladi.

Postmodernizmni na "hozir borlik", na "berilganlik", na dunyoning ilmiy asosini tushuntiruvchi dunyoqarash xususiyatiga ega bo'lgan paradigmalар qiziqтirmaydi, balki noaniqlik, bilib bo'lmaslik, "belgilanuvchi"dan qolgan qoldiq qiziqtiradi, bu esa "belgilovchi subyektning tiliga" xos bo'lgan ziddiyatdan xoli bo'lishga olib keladi. Biluvchi subyekt gnoseologik faoliyatning markazi sifatida "dunyoga yuz ochib", unga singib ketadi. Natijada reallik poyonsiz yagona "matn" sifatida namoyon bo'ladi, u o'zida metaformalarni, ilyuziyalarni, sitatalarni mujassam etadi. Bu esa falsafiy tahlil qilish yo'llarining ko'pligiga, haqiqat va qadriyatlarni talqin qilishda ko'p variantlikka olib keladi.

Postmodernizmning bunday qurilmasi "matn"ni yoki ("matnshunoslikni") yangicha tahlil qilish uslublari yaratilishiga olib keldi: "tushunuvchi mikrotahlil" birinchi o'ringa chiqdi; oliy ratsionallik hissiyot bilan ratsionallikning, emotsionallik bilan mushohadaviylikning birligi sifatida talqin etiladi. Baho bermaslik, falsafiy marginalizm, diskriptivlik tamoyili darajasiga ko'tarildi. Postmodernizm falsafiy didaktiv baholashdan voz

kechdi. Bu esa tushunish predmetiga nisbatan tolerantlikka olib keldi.

Postmodernizmning turli xilligini nazarda tutgan holda, ularga xos bo'lgan umumiylik haqida gapirish mumkin. Postmodernizmnda dunyo anglanuvchi obyekt sifatida talqin etiladi, uning natijalari yozma shaklda ifodalanadi. Shuning uchun ham dunyo matn sifatida namoyon bo'ladi.

Shaxsning o'z-o'zini anglashi "matn yig'indisi" sifatida ro'yobga chiqadi. Bu matnlar boshqa matnlar bilan munosabatda bo'ladi, bu esa, o'z navbatida, madaniyatni keltirib chiqaradi. "Matndan tashqari hech narsa mavjud emas"¹, – deydi J. Derrida. Shuning uchun ham hamma narsa matn ichida mavjud, u matnni talqin etish orqali amalga oshadi, bu esa tanqidiy faoliyat tomonidan "farqlanishi" natijasida aniqlashadi. Dunyoning cheksiz matn sifatida tushunilgani uchun, uni talqin qilish chegaralarini turlicha modellashtirish vositasi sifatida allegoriyalar qo'llanildi.

Konseptual talqin qilish, mazmunlarni oydinlashtirish yangicha metodologik yondashuvni talab qiladi. Bunday uslub "dekonstruksiya", deb atala boshlandi. Uning mazmuni shundan iborat ediki, matn yagona belgilangan ma'nodan tashkil topadi, degan tasdiq shubha ostiga olindi. Buning natijasida matn bilan mazmun bir-biridan ajralib qoldi, yo'nalishlar, shakllar o'rtasidagi jarayonlar shakllandi. "Mazmun" va "ma'no" diktaturasini yo'qotish biryoqlama oppozitsion tomonlarning hamda markazning ham yo'qolishiga olib keldi, makon-zamon chegaralari ham yo'qoldi. "Markazsizlashtirish" hokimlik kuchini hamda unga bo'ysungan tomonlarning munsabatiga ham barham berdi.

Makon-zamon chegaralarining yo'qolishi postmodernizmnda an'analarning ahamiyatini ham tan olmaslikka olib keldi. Uning o'rniga matnlardan "sitata" olish birinchi o'ringa ko'tarildi.

¹ Qarang: Hassan I. The culture of postmodernism // Theory, Culture & Society. 1985. № 2 / 3.

Tajriba va avtoritetlardan ham voz kechildi. Dunyo pluralistik borliqqa aylandi. Tarix shuning uchun ham o'z yo'nalishini va mazmunini yo'qotdi. Vaqt o'z moduslaridan ayrilib, "o'tmish-hozir"ga aylandi. Shakl mazmunsiz qoldi, antishakl hukmronlik qila boshladi; tarixda tasodifning ahamiyati kuchaydi, har qanday qonuniyatga o'rin qolmadi; iyerarxiyali tuzilma buzilib, o'rmini anarxiya egalladi; ijodkorlik dekonstruksiya bilan, markazlashish tarqoqlik bilan o'rin almashdi, maqsad o'yin bilan almashtirildi, aniqlik noaniqlikka aylandi. Postmodernizmning ana shu asosiy tamoyillari insonni tushunishga ham tatbiq etiladi, metafizik antropologizmga va gumanizmga qarshi qo'yildi. Inson subyekt sifatida emas, uning mohiyati "kollektiv Men", "ijtimoiy-siyosiy ongsizlik" sifatida talqin etildi. Bu tamoyil butun jonli samovotga yo'naltirildi. "Hokimiyat" va "erkinlik" tushunchalari tanqidiy ko'rib chiqildi.

Hokimiyat postmodernizmda mikrodarajada, ya'ni kundalik hayot darajasida tahlil etildi, bu insonni jamiyat tomonidan qanday qilib manipulatsiya qilinishi vositalarini ochib berdi. Bu tahlil sotsial institutlar, davlat, shaxsiylashgan avtoritet bilan ham bog'langan. Postmodernizmning g'oyalari poststrukturalistlar tomonidan rivojlantirildi.

Postmodernning ijtimoiy hayotga tegishli bo'lgan tamoyillariga to'xtaladigan bo'lsak, avvalo, bu oqim modernizmning asosi hisoblangan ratsional g'oyaviy qarshlarning sinishi natijasida vujudga keldi. Bular: ma'rifatparvarlik, ilm-fan, falsafa, feminizm va hokazolardan iborat bo'lgan va olamni to'liq bilishga, yangicha dunyoqarashni yaratishga da'vogar bo'lgan g'oyaviy qarashlar yig'indisidir.

Postmodernning vujudga kelishiga yana bir sabab bu uning olamni bilishda (Veber nazarda tutgan) "sehr-jodu" usulidan voz kechgan holda ish ko'rish lozimligi tamoyiliga qo'shilmaganligi va olamni bilishda o'zining yangicha yo'llarini taklif qilganligidadir. Modern uchun tupik bo'lib chiqqan va modern loyihasi

nazarda tutgan “olamni bilishda unga ratsionallik bilan yondashish lozim” degan fikr o‘zini oqlamaganligi postmodernning vujudga kelishi uchun imkoniyatga aylandi.

Postmodernizm davrining kirib kelishi madaniyatning mazmuniga ham o‘zgarishlar olib keldi. Madaniyatning iyerarxik ko‘rinishga ega ekanligi yo‘qola boshladi. Madaniyat bir-biriga qismangina bog‘liq bo‘lgan mayda madaniy yo‘nalishlarga, shakl-larga va hayot tarziga ajralib, bo‘lina boshladi. Avvalgi “yuqori, oliy madaniyat” endilikda submadaniyat yo‘nalishiga aylandi. Va, aksincha, avvallari qiymatsiz, arzon hisoblangan ommaviy madaniyat esa yangicha ko‘rinish va vazifa bilan “sahna”da paydo bo‘ldi. Unga endilikda, nafaqat yengil-yelpi musiqa yoki san’at asarining “vakili” sifatida, balki madaniyat sanoatini yurituvchisi, kishilar-ning hayot tarzini belgilovchisi sifatida qarala boshlandi.

Sotsiologiya yo‘nalishiga postmodern davrining kirib kelishi madaniyatning birinchi darajaga ko‘tarilishi va u sotsiologiyaning diqqat markaziga aylanishi orqali sezila boshlandi. Bu jarayonni madaniyat muammolariga, madaniyat masalalariga juda katta e‘tibor qarata boshlagan yangidan-yangi sotsiologik va ijtimoiy-ilmiy jurnallar sonining oshib borishi orqali ham ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, bugungi kunga kelib jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlarni izohlab, baholay olish uchun madaniyat sotsiologlarning asosiy quroliga ham aylanib qoldi. Oxirgi o‘n yillik ichida yaratilgan eng yaxshi sotsiologik konsepsiyalarga va qarashlarga (masalan: P. Burde, N. Elias, Yu. Xabermas) chuqurroq e‘tibor bersangiz, ular madaniyat sotsiologiyasi muammolarini o‘rtaga tashlagan va madaniyatning ijtimoiy jarayonlar rivojida tutgan o‘rnini ko‘rib chiqqan sotsiologik konsepsiyalar ekanini anglaysiz.

Postmodern (yoki postmodern tushunchasi ostida amalga oshirilayotgan jarayonlar) bugungi kunga kelib aynan madaniyat negizida va madaniyat ostida amalga oshmoqda. Shuning

uchun ham bugun madaniyatga tayanib ish ko‘rishga majbur bo‘layotgan sotsiologiya istasa-istamasa, hozirda kechayotgan tarixiy jarayonni (postmodern davri nazarda tutilyapti) tahlil qilish uchun asosiy qurolga aylanib qolmoqda. Qolaversa, bu jarayon madaniyat sotsiologiyasi deb topiladimi yoki boshqa holat deb baholanadimi – bu ahamiyatsiz. Shunisi ma‘lum bo‘ldiki, endilikda madaniyatni tadqiq etish jarayoni uzoq vaqtgacha sotsiologiya sohasining predmeti bo‘lib qoladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Madaniyat va ijtimoiy tizim haqida ma‘lumot bering.
2. Madaniyat “madaniyat sotsiologiyasi”ni ishlab chiqaruvchi qurol ekanligini asoslab bering.
3. Maks Veber sinflar, statuslar, partiyalar haqida.
4. Modernizatsiya nazariyasi sotsiologik evolutsiyaning eng yuqori bosqichi sifatida o‘rganilganligini bayon eting.
5. Modernizatsiya nazariyasini bugungi kun o‘zbek sotsiomadaniy rivoji analizida qo‘llash masalalari.
6. Ijtimoiy tengsizlik muammolarinig yechilishida nafaqat sotsiologiya, balki madaniyatning ham o‘rni mavjud ekanligini asoslang.
7. Jan Jak Russo qarashlarida ijtimoiy tengsizlik masalalari.
8. An’anaviy jamiyatlarda ijtimoiy tengsizlik, xususan, vertikal kesishuvga bo‘lgan munosabat.
9. Modern loyihasida jamiyatni “irim-sirimlardan” forig‘ etish g‘oyasini Veber qanday asoslaydi?
10. Modern loyihasi bugun nima uchun o‘zini oqlay olmadi? Shuningdek, modern loyihasining yutuqlarini ham bayon eting.
11. Modern loyihasi natijasida ijtimoiy strukturada yuz bergan o‘zgarishlar?
12. “Modern”ning ijtimoiy tengsizlikka bo‘lgan munosabati. Modern loyihasi davrida ijod etgan G‘arbiy Yevropa faylasuflarining nuqtayi nazarlari nimalarda ko‘rinadi?

13. Modern davrining o'z o'rnini postmodernga bo'shatib berishi. Postmodern davrining mazmunini bayon eting.

14. Postmodern davrida kutilayotgan o'zgarishlar va ularning sotsiologiya fani istiqboliga ta'sirlari?

Adabiyotlar:

1. Berger P., Luckman T. The social construction of reality. – New York: Doubleday, 1966.

2. Berking H. Kultur-Soziologie. Mode und Methode // Kultursoziologie – Symptom des Zeitgeistes / Hrsg. H. Berking, R. Faber. – Würzburg: Königshausen & Neumann, 1989.

3. Webster's new collegiate dictionary. – Merriam: Springfield, Mass., 1977.

4. G'arb falsafasi. (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q. Nazarov). – T.: Sharq, 2004.

5. Zapf W. Sozialstruktur // Grundbegriffe der Sozialologie / Hrsg. Von B. Scharfert. – Opladen: Leske & Budrich, 1986.

6. Schäfers B. Sozialstruktur und Wandel in der Bundesrepublik Deutschland. – Stuttgart, 1966.

7. Schütz A. Collected Papers. – Hague: Nijhof. 1962. Vol. 1.

8. Юнин. Л. Г. Социология культуры: Учебное пособие. 2-е издание. – М.: Логос. 1998.

9. Merton R.K. Social theory and structure. – Glencoe: Free Press, 1936.

10. Social behavior and personality. W. Tomas' contribution in social theory. – New York, 1951.

11. Fürstenberg F. Die Sozialstruktur der Bundesrepublik Deutschland. – Opladen: Westdeutscher Verlag, 1978.

12. Hoult T. F. Dictionary of modern sociology. – Totowa, New Jersey: Littlefield and Adams, 1974.

13. Hassan I. The culture of postmodernism // Theory, Culture & Society. 1985. № 2 / 3.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. Istiqloq va ma'naviyat. – T.: O'zbekiston, 1994.
2. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997.
3. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: O'zbekiston, 1998.
4. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 1999.
5. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. – T.: Sharq, 2003.
6. Karimov I. A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. "Xalq so'zi" gazetasi. 30. 08. 2002.
7. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Prezident I. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqi. – T., 1997.
8. Abdulla A'zam. Fan va din: munosabat dialektikasi. //Tafakkur. 1999. 1-son.
9. Abdulla A'zam. Fan va din: odamzodning paydo bo'lishi.//Tafakkur. 1999. 4-son.
10. Abdullayev N. San'at tarixi. T – 1. – T.: O'qituvchi, 1987.
11. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchilik tarixi. – T.: Sharq, 2000.
12. Amir Temur o'g'itlari. – T., 1992.
13. Asqarov A. O'zbekiston tarixi. – T., 1994.
14. Ahmedov B. Amir Temur: tarixiy roman. – T., 1995.
15. Ахмедова Е., Габидулин Р. Культурология. Миротвая культура. – T.: Акад. Худ. Узб. 2001.
16. Al-Buxoriy. Hadis: Al-jome as-sahih. (Ishonarli to'plam). – T.: 1997.
17. Abdurahmon Jomiy. Risolai musiqiy. // Fors tilidan N. Shodmonov tarj. FBAN. 1997.
18. Alisher Navoiy. Vaqfiya. // Asarlar. 15 tomlik. T – 13. – T., 1966.
19. Avazov Yu. Buxoro amirligining tashqi iqtisodiy aloqalari. (XIX – XX asr boshlari) // Moziydan sado. 2007. 1-son.

20. Aliqoriyev N. Umumiy sotsiologiya. – T., 1999.
21. Аликариев Н. Моделирование социолных процессов. – Т.: Фан, 1979.
22. Berger P., Luckman T. The social construction of reality. – New York: Doubleday, 1966.
23. Бертелс Е. Е. История персидско – таджикской литературы. – М., 1960.
24. Bekmurodov M. Sotsiologiya asoslari. – T., 1997.
25. Berking H. Kultur-Soziologie. Mode und Methode // Kultur-soziologie – Symptom des Zeitgeistes / Hrsg. H. Berking, R. Faber. – Würzburg: Königshausen & Neumann, 1989.
26. Вебер М. Избранные произведения. – М.: Прогресс, 1990.
27. Webster's new collegiate dictionary. – Merriam: Springfield, Mass., 1977.
28. Гегел. Сочинения, том VII. – М.-Л.: Сотсекгиз, 1934.
29. Gulmetov E., Qobiljonova T., Ernazarov Sh., Mavkulov A. Madaniyatshunoslik: Ma'ruzalar matni. – T., 2000.
30. Тард. Общественное мнение и толпа. – М., 1902.
31. Дж. Локк. Избранные философские произведения в двух томах: Т. 1. – М.: Соц. Эк. Гиз., 1960.
32. G'arb falsafasi. (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q. Nazarov). – T.: Sharq, 2004.
33. Данилевская Н. Я. Россия и Европа. – М., 1995.
34. Jabborov I. O'zbek xalq etnografiyasi. – T.: O'qituvchi, 1994.
35. Зиммел Г. Общение, пример или формальной социологии // Социологические исследования. 1984. № 2. 171 с.
36. Zapf W. Sozialstruktur // Grundbegriffe der Sozialologie / Hrsg. Von B. Scharfert. – Opladen: Leske & Budrich, 1986.
37. Schäfers B. Sozialstruktur und Wandel in der Bundesrepublik Deutschland. – Stuttgart, 1966.
38. Schütz A. Collected Papers. – Hague: Nijhof. 1962. Vol. 1.
39. Иогансон Б. В. Как понимать изобразительную искусство. – М., 1960.
40. Ион. Э. Проблема культуры и культурная деятельность. // Перевод с нем. – М., 1969.
41. Ионин. Л. Г. Социология культуры: Учебное пособие. 2-е издание. – М.: Логос. 1998.
42. Ионин Л. Г. Георг Зиммель – социолог. – М.: Наука, 1981. 59 с.

43. Искусство стран и народов мира. Архитектура. Живопись. Скульптура. Графика. Декоративное искусство. Краткая Художест. Энцикл. – М., 1962.
44. Искусство: Живопись, скульптура, архитектура, графика. – М., 1987.
45. Искусство Древнего Египта. Живопись. Скульптура. Архитектура. Прикладное искусство. // Альбом. – М., 1972.
46. Zayniddin Vosifiy. Badoye ul-vaqoye. – Т.: Fan, 1979.
47. Karimova M. Farg'onada ijtimoiy-iqtisodiy hayot. (XIX asr-ning ikkinchi yarmi) // Moziydan sado. 2007. 1-son.
48. Конт О. Курс позитивный философии // Родоначальники позитивизма. Вып. 4. – СПб, 1912. 19 стр.
49. Qurbonov Sh. va boshqalar. Barkamol avlod orzusi. ("Kadrlar tayyorlash" Milliy dasturini amalga oshirish borasidagi publitsistik mulohazalar). – Т.: Sharq, 1998.
50. Qur'oni Karim. // O'zbekcha izohli tarjima Alouddin Maxsud. – Т.: Cho'lpon, 1992.
51. Лапаева В. В. Социология права. Краткий учебный курс. – М.: Норма. 2000.
52. Литературный энциклопедический словарь. Статьи: барокко, рококо, классицизм, романтизм, реализм, стиль. – М., 1987.
53. Ле Бон Г. Психология народов и масс. – М., 1995.
54. Лихачёв Д. Поэтика древнерусской литературы. – М.: Наука, 1979.
55. Madaniy va ma'rifiy ishlar. Lug'at. – Т., 1996.
56. Merton R. K. Social theory and structure. – Glencoe: Free Press, 1936.
57. Najmiddin Komilov. Komillik tariqati. //Tafakur. 1998. 1 – 4-sonlar.
58. Радугин А., Радугин Н. Социология. Курс лекций. – М., 1996.
59. Умаров Э., Абдуллаев М., Хакимов Э. Культурология. – Т., 2004.
60. Sotsiologiya: o'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi. – Т.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.
61. Social behavior and personality. W. Tomas' contribution in social theory. – New York, 1951.
62. Skirbek, G., Gile N. Falsafa tarixi: oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'll. – Т.: Sharq, 2002.

63. Ортега-и-Гассет Х. Восстание масс. – М., 1991.
64. Пугаченко Г., Ремпель Л. История искусств Узбекистана. – М., 1965.
65. Пугаченко Г., Ремпель Л. Очерки истории искусства Средней Азии. – М., 1982.
66. Рождественский Ю. В. Введение в культуроведение. – М., 1996.
67. Тайлор Э. Первобытная культура. – М., 1984.
68. Тойнби А. Постижение истории. – М., 1991.
69. Tulenov J. Falsafa tarixi. //Bakalavrlar uchun ma'ruza – T., 2001.
70. Tenbruck F. H. Repräsentative Kultur // Sozialstruktur und Kultur/ Hrsg. Von H. Haferkamp. – Frankfurt am Main: Suhrkamp, 1990.
71. Шпенглер О. Закат Европы. – М., 1993.
72. O'rolov A., Hojixonov M. Temuriylar ma'naviyati va madaniyati. – Sug'diyona, 1996.
73. Falsafa: (O'quv qo'llanma.) // E. Yusupovning umumiy tahriri ostida. – T.: Sharq, 1999.
74. Falsafa qomusi lug'at. (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q. Nazarov). – T.: Sharq, 2004.
75. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – T.: Fan, 1993.
76. Fürstenberg F. Die Sozialstruktur der Bundesrepublik Deutschland. – Opladen: Westdeutscher Verlag, 1978.
77. Xayrullayev M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. – T.: O'qituvchi, 1971.
78. Харчева А. Основы социологии. – М. 1994.
79. Xondamir. Makorim ul-axloq. – T.: O'qituvchi, 1967.
80. Xolbekov A., Idivov U. Sotsiologiya. – T., 1999.
81. Hault T. F. Dictionary of modern sociology. – Totowa, New Jersey: Littlefield and Adams, 1974.
82. Hassan I. The culture of postmodernism // Theory, Culture & Society. 1985. № 2 / 3.
83. Entoni Giddens. Sotsiologiya. – T.: Sharq, 2002.
84. Yusupova N. Xonaqoh – ma'rifat maskani. //Tafakkur. 2006. 1-son.
85. Yunusov K. Sotsiologiya. – Andijon, 1997.
86. Сицерон. М. Т. Избранные сочинения. – М., 1975.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

I BO‘LIM. MADANIYAT NAZARIYASI TARIXI

I. 1. Madaniyatning ijtimoiy fanlar va sotsiologiya negizida tutgan o‘rni.....	6
I. 2. “Madaniyat” tushunchasiga tarixiy va ilmiy yondashuv.....	8
I. 3. Madaniyatning asosiy shakl va elementlari.....	14
I. 4. Kontrmadaniyat va submadaniyat ko‘rinishlari.....	21
I. 5. Ommaviy madaniyat turi.....	30
I. 6. Kiborlar (elitar) madaniyati turi.....	37
I. 7. San’at va din uyg‘unligi.....	38
I. 8 Kiborlar (elitar) madaniyat turi.....	44
I. 9 San’at va din uyg‘unligi.....	46

II BO‘LIM. SOTSILOGIYA NEGIZIDA MADANIYAT

II. 1. Ogyust Kont talqini – bu ... madaniyatmi yoki sotsiologiya ?.....	51
II. 2. An’anaviy sotsiologiya ko‘rinishi bo‘lmish obyektivizm sotsiologiyasi.....	57
II. 3. Veber sotsiologiyasida: madaniyat yoki olamni bilishda “tushunarli sotsiologiya” ning o‘rni.....	58
II. 4. Protestantlik etikasi va kapitalizm ruhi – jamiyatni “oldinga yetaklovchi (reprezentativ) madaniyat” sifatida.....	63
II. 5. Kalvinizm – Veber talqinida.....	66
II. 6. Sotsiologiyani o‘rganishdagi ikki tendensiya.....	71
II. 7. Tushunarli sotsiologiyaning yana bir ko‘rinishi: anglash – bu yaratish.....	72
II. 8. Madaniyatning sotsiologik tasnifi.....	76

III BO'LIM. MAROSIM – TIMSOL – AFSONA

III. 1. Madaniyat va jamiyat hayotining muhim omili bo'lgan marosim va marosimchilik.....	81
III. 2. Marosimlar va ijtimoiy institutlar.....	85
III. 3. Dyurkgeym: marosim va dinlar.....	87
III. 4. Afsonaviy timsollar yoki timsollashtirish nima?.....	91

IV BO'LIM. MADANIYAT – JAMIYAT – IJTIMOY FIKR

IV. 1. Jamiyatda ijtimoiy fikr yoxud jamoatchilik fikri tushunchasining o'рни.....	95
IV. 2. Ijtimoiy fikr – ijtimoiy nazorat usuli sifatida.....	102
IV. 3. Axloq va ijtimoiy (jamoatchilik) fikrining o'zaro aloqadorligi.....	104
IV. 4. An'ana, urf-odat va marosimlar hamda ijtimoiy (jamoatchilik) fikr.....	108
IV .5. "Ijtimoiy fikr" hodisasini sotsiologik jihatdan o'rganilish tarixi va bugungi kunda uni ilmiy tadqiq etish usullarining o'рни va roli.....	112

V BO'LIM. MADANIYAT VA IJTIMOY STRUKTURA

V.1. Ijtimoiy struktura va ijtimoiy tengsizlik.....	122
V. 2 Stratifikatsiya va vertikal klassifikatsiya.....	125
V. 3. Ijtimoiy strukturani tadqiq etishda modernizm.....	129
V. 4. Sotsiologiya va postmodern.....	130
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	138

O'quv qo'llanma

Mansur BEKMURODOV, Nargiza YUSUPOVA

**MADANIYAT
SOTSILOGIYASI**

Muharrir *A. Irisboyev*
Badiiy muharrir *A. Aqilov*
Texnik muharrir *T. Smirnova*
Musahhib *J. Qo'nishev*
Sahifalovchi *B. Usmonov*

Bosishga 15. 09. 2010-yilda ruxsat etildi.

Bichimi 60x84 _{1/16}. Hajmi 9.0 b. t.

Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 37.

“YANGI NASHR” nashriyoti

“MEDIANASHR” MCHJ bosmaxonasi
Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasi, 1-uy.